

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O'zbek tilshunosligi kafedrasи

Fan: **NUTQ MADANIYATI**

Bilim sohasi: **100000 – Gumanitar soha**

Ta'lif sohasi: **120000 - Gumanitar fanlar**

Ta'lif yo'nalishi **5A120102 – Lingvistika va barcha ixtisosliklar uchun**

Buxoro – 2018-yil

**O‘MM BuxDU o‘quv kengashining 1-son (28-avgust 2018-yil) yig‘ilishi
qarori bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asiosida tuzildi.**

O‘MMning muallifi

**B.E.Qilichev - filologiya fanlari
nomzodi, dotsent**

Taqrizchilar

**Abuzalova M.Q. – f.f.n., dotsent.
Asadov T.H. – f.f.n., dotsent.**

**Mazkur O‘MM BuxDU o‘quv kengashining 1-son (28-avgust 2018-yil)
yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan.**

**BuxDu o‘quv-uslubiy
kengashi raisi**

f-m.f.d. D.Q.Durdiyev

Mundarija

1	Nazariy materiallar	4
2	Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar	37
3	Mustaqil ta’lim	56
4	Glossariy	57
5	Ilovalar	
5.1.	Fanning namunaviy dasturi	59
5.2.	Fanning ishchi dasturi	69
5.3.	Tarqatma materiallar	82
5.4.	Test savollari	90
5.6.	Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash mezonlari	102

NAZARIY MATERIALLAR

1-ma’ruza:

“Nutq madaniyati” kursining maqsadi, vazifasi va mundarijasi

Reja:

1. “Nutq madaniyati” kursi predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Til – ijtimoiy hodisa.
3. Ta’lim jarayonida davlat tili.
4. “Nutq madaniyati”ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi ahamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar: *nutq madaniyati, til, nutq, ona tili, o‘zbek tili, davlat tili, nutq mahorati, savodxonlik, notiqlik, notiqlik san’ati, ta’lim, ta’lim jarayoni.*

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ijrosi sifat bosqichiga kirdi. Ta’lim jarayonining sifatini ta’minalash va oshirish o‘qituvchining kasb mahorati hamda nutq madaniyatiga e’tiboriga ham bog‘liq. Bu sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Oliy o‘quv yurtlarida yuzlab professor-o‘qituvchilar va umumta’lim maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining ko‘plab o‘qituvchilari turli fanlardan dars o‘tishlariga qaramasdan, til madaniyatiga katta e’tibor bera boshladilar. Har bir darsning mutaxassislik nuqtai nazaridan puxta bo‘lishiga erishishdan tashqari o‘zbek tili imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanila boshlandi. Chunki har bir sohaga oid bilim til orqali etkaziladi, o‘quvchi, talaba ongiga singdiriladi. Lekin yuzlab o‘qituvchilarda hamon nutq madaniyatiga e’tiborning pastligi yoki mahorat etishmayotganligi tashvish uyg‘otadi. O‘qituvchining nutq madaniyatiga e’tiborini oshirish, ularni yuqori til madaniyati va ma’naviyatini egallash uchun tayyorlash hozir ham dolzarb bo‘lib turibdi.

«...1993 yil 2 sentyabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi.

O‘tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta’minalash bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirilganini ta’kidlash lozim. Avvalo, o‘zbek tilining lotin yozuvini asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e’lonlar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtida bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, bu masalaga mantiqiy ko‘z bilan qaraydigan, eng muhim, xalqimizning ko‘pmillatli ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, ayrim milliy guruhlar Kirill yozuvini ishlashini nazarda tutib, yuqorida tilga olingan qonunda bu imlodan foydalanish uchun ham imkoniyat yaratish ko‘zda tutilgan.

Ayni vaqtida jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko‘p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba’zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma’lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo‘shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bu haqda so‘z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e’tiborsiz – elga e’tiborsiz» degan so‘zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz»¹.

Ma’lumki, «Nutq – bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutqiy jarayon – tilning o‘z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma’lum ma’noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir».

«Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o‘rinli, unumli foydalanilgan holda tuzilgan nutqqa aytiladi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni – aloqa-aratashuv qurolini ishlatishga bo‘lgan munosabatdir»². Bu va boshqa dastlabki ma’lumotlar talabalarning nutq madaniyatiga e’tiborini yo‘naltirishga, og‘zaki va yozma nutq madaniyatiga erishish o‘z faoliyatlari uchun nihoyatda zarurligini anglab etishlariga xizmat qilishi lozim.

O‘qituvchining jamiyatdagi eng obro‘li, ma’naviyatli va ma’rifatli inson, bir so‘z bilan aytganda, ziyoli sifatidagi mavqeい tildan foydalanish jarayonidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishda nihoyatda foydalidir. Chunki ziyoli insonning aniq faktlar, foydali mulohazalar bilan o‘quvchi va talabalar ongiga ta’siri beqiyosdir. Buning uchun nafaqat filolog-o‘qituvchilar, balki boshqa fan o‘qituvchilari ham o‘zbek adabiy tili me’yorlari, qonun-qoidalarini yaxshi bilishi, atama qo‘llashdagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘quvchilar va talabalar savodxonligiga, nutq mahoratiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillarni farqlay bilishi hamda ularni etkaza olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Demak, qaysi fan o‘qituvchisi bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z sohasini mukammal bilishidan tashqari, jamiyatning ilg‘or ziyolisi sifatida o‘zbek tilining hozirgi ijtimoiy mohiyatini to‘g‘ri anglagan holda, uning sofligi, nutq jarayonida to‘g‘ri foydalanish, o‘quvchi va talabalarning og‘zaki hamda yozma nutq mahoratini oshirish uchun mas’ulligini zinhor unutmasligi lozim.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. – T.: Navro‘z, 1997.
2. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – T.: Fan, 1983. -151 b.

¹ Karimov I. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 88-89-b.

² Tojiev YO., Mallaboev M. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. 1-qism. – Toshkent, 2006, 12-, 14-b.

5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: Cho'lpox, 2012.
6. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
7. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. T, O'qituvchi, 1985.
8. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –T.:O'qituvchi, 1992. - 160 b.
9. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
10. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

2-ma'ruza:
Nutq madaniyat va notiqlik tarixi

Reja:

1. Qadimgi Xitoyda notiqlik san'ati.
2. Qadimgi Misrda nutq madaniyati va notiqlik.
3. Yunon notiqligi.
4. Rim notiqligi.

Tayanch so'z va iboralar: *antik davr notiqligi, notiqlik san'ati, Yunon va Rim notiqligi, voizlik, suxandonlik, og'zaki nutq turlari, nutqiy muloqot, o'qituvchi nutqi.*

Qadimgi Xitoyda notiqlik san'ati.

Tadqiqotlardan ma'lumki, Xitoyda davlatchilikning shakllanishi eramizdan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. Xitoy xalqi tarixining umumiy yo'nalishi, o'ziga xos ijtimoiy kategoriya sifatidagi so'z san'atiga va uning tarkibiy qismi bo'lgan notiqlikka bo'lgan e'tibor xalqning rivojlangan davlatchilik sharoitida yashay boshlagan davrga to'g'ri keladi. Xitoyda so'z san'ati va notiqlikka e'tiborni o'sha davr adabiyotlarining vazifalaridan ham anglash mumkin. "Mo-tszi" yodgorligida bayon etilgan qarashlarda manfaatlar munosabatiga alohida e'tibor qaratilgan. "Bitta odam - bitta manfaat; ikkita odam - ikkita manfaat; o'nta odam - o'nta manfaat. Odamlar ko'p, demak manfaatlar ham ko'p. Ustiga-ustak har bir odam o'z manfaatlarini o'ylaydi va o'zgalarning manfaatlarini rad etadi. Oxir-oqibat, barcha bir-birini rad etadi. Ota va bolalar, aka-ukalar o'zaro urushib, har tomonqa tarqaydilar, birgalikda yashashga qodir bo'lolmaydilar. Shu darajaga etib boradiki, ular bunga imkoniyat bo'lsa-da, birgalikda mehnat qila olmay qoladilar...".

Manfaatlar to'qnashuvi hamisha ham janjal, o'zaro kelishmovchiliklar bilan tugamaydi. Chunki umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unlashgan holda berilgan tarbiya tomonlarning oqilona fikr-mulohaza yuritishiga, to'g'ri qaror qabul qilishiga, ota-onalar, kattalarga hurmat-e'tibor ko'rsatishga undaydi. Bu jarayonni amalga oshirish, albatta, nutq orqali yuzaga chiqadi. Demak, manfaatlar himoya qilinayotgan paytda ham o'zaro hurmat-izzat nuqtai nazaridan til birliklari tanlanishi, nutq odob-axloq doirasida, tushunarli, mazmunli, yuqori madaniyatli bo'lishi kerak.

Xitoy adabiyotining eng qadimiy yodgorliklari taxminan eramizdan avvalgi XII asr o'rtalariga taalluqli bo'lib, ular hukmdorning nutqlari, xalqqa murojaatlari (gao)lardan tashkil topgan. Bunday nutq na murojaatlar tarkib topgan sharoit, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq. Masalan, "Buyuk murojaat" ("Dagao") bunga misol bo'la oladi.

"Buyuk murojaat"dan keyin yaratilgan asarlar orasida eng mashhuri – "Xun fanъ" ("Boshqaruv haqida buyuk qonun") ham notiqlikka e'tibor nuqtai nazaridan diqqatga sazovor. Qonunning ikkinchi moddasida boshqaruv bilan bog'liq "besh amal" haqida gap boradi. Birinchi amal – o'zini qanday tutmoq, ikkinchisi – qanday so'zlamoq, uchinchisi – qanday ko'rmoq, to'rtinchisi – qanday tinglamoq, beshinchisi – qanday fikrlamoq bilan bog'liq. Ularni tushuntirishda quyidagilar ma'lum qilinadi: "Odob-ahloq doirasidagi xatti-harakat tartibni hosil qiladi. Nutqdagi muvofiqlik tartibni hosil qiladi. Nazarning tiniqligi ziyraklikni hosil qiladi. Fikrlash ravshanligi donolikni hosil qiladi" (1.20-b.).

Nutq madaniyati va mahoratini o'rganish jihatidan ushbu amallar e'tiborga molik. Chunki boshqaruv faoliyati ham fikrlash va uni yuzaga chiqarish, ya'ni nutqiy faoliyat bilan bog'liq. Suhbat jarayonining samarali bo'lishini esa amallarda ko'rsatilgan jihatlar ta'minlaydi.

Xitoyda notiqlik san'ati, ayniqsa, Xitoy tarixining klassik davri hisoblanmish eramizdan avvalgi VIII-III asrlarda rivoj topdi. Manbalarga qaraganda, u erda turli vaqtda 70 dan ortiq mashhur shaxslar yashagan. Ular qatorida Konfutsiynipg izdoshi Men-tszi, ulug' Mo-tszinning izdoshlari Sun Ke va Inъ Venъ, dong'i ketgan vazir, o'sha davr iqtnsodiy, ijtimoiy va siyosiy fikrning ajoyib namunasi bo'lmish "Gu-an'tszi" risolasining muallifi Guanъ CHjunni tilga olish mumkin. O'sha davrda asosan notiq va muallim sifatida peshqadam jamoat arboblari etishib chiqdi. Aslini olganda, bu sifatlar bir odamda mujassam bo'lgan, zero, u davrda ta'lim berish "gapirosh", gapirosh esa "o'qitish" ma'nosini anglatgan. Buning uchun notiqlik san'atini puxta egallah ijtimoiy faoliyat bilan shug'ul-lanishning asosiy shartlaridan biriga aylangan.

Muhimi shundaki, ularni ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatda tutgan mavqeiga qarab emas, balki iste'dodiga qarab tanlashgan.

Xitoy notiqlik san'atida ta'lim jarayoni, ya'ni o'qitishning «gapirosh», so'zlash, ya'ni nutq bilan chambarchas bog'langanligi muhim o'rin tutadi. O'qituvchi faoliyatining asosini ham ta'lim berishda bilim asoslarini qanday o'quvchilarga etkazish, ya'ni uning nutqi tashkil etadi. O'qituvchining nutq mahoratini tarbiyalashda ana shu holat – «ta'lim berish va nutqiy faoliyat» o'rtasida tenglik alomatini qo'yib, bilim berish va ko'nikmalar hosil qilish muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimdan fikrni aniq va lo'nda ifodalash, buning uchun zarur so'z va iboralarni topish so'z san'ati va demakki, notiqlik san'atining bosh xususiyatlaridan biri deb sanalgan (1.21-22-b.).

Qadimgi Misrda nutq madaniyati va notiqlik.

Qadimgi Misrda ham so'zning ta'sir kuchiga katta e'tibor berilgan. Garchi nutq madaniyati va notiqlik san'atining nazariy jihatlari maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, bizga qadar saqlanib qolgan o'git, pand-nasihat ruhida yozilgan qadimiy asarlarda so'z qudrati, uning davlat va jamiyatni borpchaishdagi o'rni qa qida ko'plab fikrlarni uchratamiz.

Avvalo, qayd etish lozimki, so'z, matn bilan bevosita ish ko'ruvchi hattot (mirza)lar Misr jamiyatida ancha imtiyozli o'rin egallaganlar va mamlakatning butun ma'muriy-xo'jalik hayotini boshqarganlar. Hatto yuqori lavozimlarni egallagan zodagonlar o'z martabalari qatorida "barmoqlari mohir hattot" martabasiga alohida urg'u berishgan. Taxtga o'tirgan, "ezgu ma'bud" hisoblangan va butun ulkan

ma'muriy tizimni boshqargan fir'avnlar o'zлari uchun xattot mavqeini olishni or deb bilmagan.

Bugungi kunda og'zaki nutqni o'stirish uchun umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlari va oliy ta'lim tizimida muayyan sharoitlar yaratilgan. Ayrim o'quv fanlaridan og'zaki nazoratlar topshirish, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ish, referat ishlari himoyalari jarayonida o'quvchi va talabaning og'zaki nutqini o'stirishi uchun ma'lum imkoniyatlar beriladi. Demak, og'zaki nutqni tarbiyalash uchun turli vosita va imkoniyatlar mavjud. Lekin yozma nutq savodxonligi, keyin mahoratini egallashlari uchun imkoniyat va sharoitlar yetarli emas. Buning bir qator sabablari bor. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim jarayonida bayon, erkin mavzuda insho kabilarning kam o'tkazilayotganligi, oliy ta'lim jarayonida esa deyarli bu kabi yozma ishlarga o'rin berilmasligi yozma nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham aksariyat yozma ishlarda oddiy imlo qoidalarini qo'llashdan ko'ra jumla tuzishdagi kamchiliklar nihoyatda ko'payib bormoqda. Filolog mutaxassislar talabalarning yozma ishlarini baholashda uning savodxonligiga ham e'tibor berishadi, bu holat talabaning o'z xatosini tushunib, qayta takrorlamasligiga yordam beradi. Lekin aniq va tabiiy fanlar bo'yicha bajarilgan yozma ishlarning faqat o'sha fan nuqtai nazaridan baholanishi, talabaning sadvodxonligiga e'tibor berilmasligi, yozma nutqdagi kamchiliklarning bemalol davom etishiga yo'l ochib beradi. Bunday holatlarning barham topishi uchun aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilari ham talabaning yozma ishinii savodxonlik nuqtai nazaridan, hech bo'limganda, yozma ishning dastlabki sahifalarida imloviy, uslubiy xatolarini ko'rsatib baholashlari lozim, deb hisoblaymiz.

Demak, yozma nutq mahoratini egallashning ahamiyatini Qadimgi Misr tajribasi misolida tushuntirish foydali bo'lishi mumkin.

Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikda "Qadimgi podsholik" davridayoq Misrda didaktik adabiyot yuksak rivoj topadi. Bu davr keyingi avlod misrliklar xotirasida donishmandlar davri, madaniyatlarning oltin asri sifatida iz qoldirgan. Qadimgi donishmandlarning o'gitlari asrlar davomida yuqori baholanib kelingan. Qadim podsholik qulagandan so'ng qariyb ming yil o'tgandan so'ng Iester-Bitti IV ismli muallif Imxotep, Jedefxor, Ptaxxotep kabi donishmandlarni tilga olib, ularga teng keladigan yo'q deya e'tirof etadi. Ular yozib qoldirgan o'gitlar ham yuksak nutq, fikrlarni bayon etish madaniyatidan dalolat beradi, ham nutq va muloqot madaniyatiga oid qimmatli fikrlarni o'zida mujassam etgan. Jumladan, "Ptaxxotep o'gitlari"da ma'muriy muhitda muvaffaqiyat qozonish uchun kishi o'zini qanday tutmog'i kerakligi haqidagi pand-nasihatlar berilgan, Ptaxxotep o'gitlari uniig inson qalbini, inson psixologiyasini juda nozik his etganidan dalolat beradi: "Baxtsizlikka uchragan odam, o'z muammosining hal etilishidan ko'ra ko'proq o'z dardini to'kib solishni istaydi" (1.25-26-b).

O'rta podsholik (er.av.XXII-XVI asrlar) davri adabiyoti oldingi tarixiy davr an'analarini yanada rivojlantirdi.

Saqlanib qolgan papiruslarning mazmuni shundan dalolat beradiki, bu davrda so'zga, suxandonlikka e'tibor yanada ortdi. Xususan, "Suxandon kishi haqida qissa" nomi bilan ma'lum bo'lgan asarni o'sha davr suxandonlik san'atining namunasi deb atash mumkin. Qissa voqealari X sulola hukmronligi davriga tegishli bo'lib, asar

oddiy bir kishining qudratli amaldor oldida so‘zlagan 9 ta nutqidan iborat. O‘z nutqlarida bu odam amaldorning qo‘li ostidagi xizmatchi uning mulkini talaganligidan noroziliginu ifodalaydi. Bu nutqlar yozib olinadi va yozma shaklda suxandonlikni yaxshi ko‘rgan fir’avnga jo‘natiladi. Unga tortib olingan barcha iarsalar qaytarib beriladi, boz ustiga, uni mukofotlashadi. Natijada hamma mammun bo‘ladi: fir’avn va amaldor dehqonning suxandonligidan, dehqon esa odil hukm va suxandonligidan uchun olgan mukofotidan xushnud bo‘lishadi.

Bu davrda yaratilgan asarlar qatorida "Gerakl opol shohining o‘gitlari" alohida o‘rin egallaydi. Shohniig o‘z o‘g‘li Merikarga qilgan pand-nasihatlari ichida Misr davlati rahbarining yuqori darajadagi siyosiy ongidan dalolat beruvchi qiziqarli fikrlarni uchratamiz. Masalan: "boy xalq qo‘zg‘olon qilmaydi", "seni o‘rab turgan odamlarning muhabbatidan o‘zingga haykal qo‘y", "amaldorlarning hurmatini joyiga qo‘y, o‘z xalqingning turmushini farovon qilishga intil" va sh.k. XII sulola fir’avnları xalq mehrini qozonish va o‘z obro‘larini mustahkamlashda bu fir’avnning "til shohning qilichidir" va "nutq - har qanday quroldan kuchliroq" degan fikriga suyanib ish ko‘rdilar.

"O‘gitlar" yangi shohlik davrida ham keng rivoj topdi. Ular ham qadimgi Misrda suxandonlikka, so‘zning qudratiga alohida e’tibor qaratilganidan dalolat beradi va davlat boshqaruvida ularning muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

Yunon notiqligi.

Notiqlik san’atiga qadim davrlardan yunonlar katta e’tibor bilan qarashgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda YUnionistonda tarixiy-nasriy asarlar, notiqlik va falsafiy dialog rivoj topadi. «Nasr asri»ning kelishi YUnionistonda demokratik tartiblarning o‘rnatalishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi, zero, bunday boshqaruv tizimida notiqning ommaga ta’sir o‘tkazish mahorati xalq yig‘inlarida qonunlarning qabul qilinishida va sudda hukm chiqarishda hal qiluvchi rolъ o‘ynay boshladи. Bu ehtiyoj yangicha o‘qitish usullarining joriy etilishiga olib keldi. Unga asos solganlar sofistlar ("donishmandlik muallimlari") bo‘ldi. Ular shaharma-shahar yurib, ma’lum haq evaziga ma’ruza o‘qishar va asosan tinglovchi-larga nutq tuzish, notiqlik sir-asrorlaridan saboq berishar edi. Antik demokratiyaning beshigi bo‘lgan Afina shahri ularning faoliyati uchun qulay bo‘lgan. SHuning uchun ham ayni Afinada notiqlik san’ati rivoj topdi.

Ilk sofistlar haqida bizga qadar kam ma’lumot etib kelgan. Ularning yozganlaridan ayrim parchalargina saqlanib qolgan. V asrning eng mashhur sofistlari qatorida Protagor, Prodik, Gippiy va Gorgiylarning nomlarini tilga olish mumkin.

Sofistlar til boyligini mohirona egallahni va kerak paytda undan foydalanishni o‘rgatardi.

Sofistlar so‘z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar Ularning ilmiy izlanishlari asosida tilshunoslik fanining ikki sohasi – Orfoepiya (grammatika) va ritorika (notiqlik nutqlarini tuzish haqidagi ta’limot) shakllandi. Orfoepiya bilan asosan Protagor va Prodik shug‘ullangan bo‘lsalar, ritorikaga Gorgiy va Frisimaxlar asosiy hissalarini qo‘shdilar (1.29-30-b.).

Qadimgi tarixchilarning fikricha, notiqlik san’atiga o‘rgatish va tegishli qo‘llanmalarni ishlab chiqish Sitsiliyada tiraniyaning ag‘dari-lishiga olib kelgan(er. avv. 467 y.) sud jarayonlari bilan bog‘liq Ayni shu davrda sitsiliyalik ritorlar - Korak

va Tisiy yodlash va keyinchalik o‘z nutqlarida foydalanish uchun mo‘ljallangan tayyor namunalar to‘plami (xrestomatiya)ni va notiq nutqi tuziishiga oid nazariy yo‘riqnomani chiqardilar. Bu qo‘llanmalarda notiqlik tajribasi ilk bor umumlash-tirib berildi. Ularda notiq nutqi uchun zarur bo‘lgan eng asosiy talablar o‘z ifodasini topdi: nutq yaxlit va tugal bo‘lishi kerak, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘lmogi lozim. Asosiy qism o‘z navbatid ikki anik bo‘limga ajralgan: voqealar bayon etilgan hikoya va o‘z fikri (iuqtai nazari) isboti va muxolif fikrini inkor etishga qaratilgan bahs.

Bunday usulda tashkil etilgan nutq tinglovchilarning qalbiga ta’sir etishi, ularni inontirishi, jalb etishi mumkin edi. YUnion notiqlari ayniqsa, badiiy so‘z imkoniyatlaridan keng foydalanganlar. Qadimgilar hikoya qilishicha, Gorgiy Afina er avv. 427 yili xalq yig‘inida so‘zga chiqqanda turli badiiy vositalarni qo‘llab, shunday chiroyli nutq so‘zlagan ekanki, tinglovchilar hayratga tushibdi.

Sofistlar shaklan chiroyli nutqning emotsiyal kuchini yaxshi his etganlar (1.31-b.). Til imkoniyatlaridan foydalanib «bo‘s sh dalilni kuchli, kuchli dalilni bo‘s qilish» ularning shioriga aylandi. Masalan, Gorgiy notiqlarning vazifasi tinglovchilarni o‘z gaplariga ishontirishdan iborat, deydi. Buning uchun u alohida notiqlik usullari bilan: auditoriyani rom eta bilishi kerak. Odatda «Gorgiy figuralari» deb nomlanadngan bunday usullar qatoriga metaforalar, tovush takrorlari, antiteza shaklida tuzilgan gap(jumla)lar va sh.k kiradi.

Gorgiy nazariyasi yunon notiqlik san’atining barcha turlari: sud notiqligi, siyosiy notiqlik, tantanali notiqlikka o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Er. avv. V asr oxiri - IV asr boshlaridagi sud notiqligining eng mashhurlaridan biri Lisiy (459-380 y.y.) bo‘lgan.

Lisiy kelib chiqishi bo‘yicha afinalik bo‘lmagani uchun Afina fquqarosi huquqlariga ega emas edi. SHuning uchun ham u o‘zgalar uchun buyurtma asosida nutq tuzar edi. Unga jamiyatdagi mavqeい turlicha bo‘lgan kishilar murojaat etishar va Lisiy ularning aqliy darajasi, mavqeiga moslab nutqlar yozishga majbur bo‘lardi. Bizga qadar Lisiyning 34 ta nutqi etib kelgan bo‘lib, ular oddiy jonli so‘zlashtuv tilida yozilgan.

Tantanali noitiqlik eng yorqin vakillaridan biri Gorgiyning shogirdi Isokrat (er. avv. 436-338 y.y) bo‘lib, Afinada ritorika maktabiga asos solgan. Aytish lozimki, bu maktabda ritorika faqat notiqlik san’atiga o‘rgatuvchi fan bo‘libgina qolmay, balki haqiqatni anglash va tarqatish vositasi vazifasini o‘tagan.

Isokrat o‘zi nutq so‘zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergen va YUnioniston bo‘ylab tarqatilgan nutqlarni yozgan.

Isokrat maktabining tajribasi IV asrdagi ommaviy potiqlikka katta ta’sir o‘tkazdi.

Siyosiy notiqlikning eng yirik va eng mashhur vakili Demosfen (er. avv. 384-322 y.y.) yangi attika uslubining ravnaqiga katta hissa qo‘shdi, Uning ijodida Isokrat nutqlariga xos tekis, chiroyli shakl o‘rnini ehtirosli pafos egallaydi.

Demosfen maqsad sari og‘ishmay boradigan va metin irodali kishi sifatida ham nom qoldirgan. Plutarx va boshqa antik davr tarixchilari dalolat berishicha, uning notiq uchun asos bo‘lmagan jismoniy kamchiliklari bo‘lgan. Talaffuzi yomon, ovozi

past, nafasi qisqa bo‘lganligi uning gaplarini tushunishga halaqit bergan bo‘lsa, nutq so‘zlash paytida elkasini uchirib turishi tinglovchilar diqqatini chalg‘itgan.

Tinimsiz mehnat, astoydil harakat orqali Demosfen barcha nuqson va kamchiliklardan xalos bo‘ladi. Masalan, aniq talaffuzga erishish uchun u og‘ziga mayda toshchalarni solib nutq so‘zlashni mashq qilgan; bir nafasda uzun jumلالарни talaffuz qilishni o‘rganish uchun yugura turib shoirlarning asarlaridan parchalar o‘qigan; shipga osilgan qilichning uchini elkasiga to‘g‘rilab nutq so‘zlashni mashq qiladi va jarohat olmaslik uchun iroda kuchini ishga solib, elka uchishidan xalos bo‘ladi (1.34-b.).

Rim notiqligi.

Qadimgi Rimda ham notiqlik san’atining shakllani-shi va ravnaqi Yunonistondagi kabi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda kechdi. Rim davlatining ilk davridayoq senat, xalq yig‘inlari, sudda so‘zlanadigan ommaviy nutq san’ati shakllanadi.

Rim notiqligining asoschilaridan biri Mark Portsiy Katon ham lashkarboshi, ham Rim siyosiy arbobi sifatida mashhur bo‘lgan (1.35-b.). U ajoyib notiq bo‘lishi bilan birga notiqlik san’atining ilk nazariyotchilardan biri bo‘lib, birinchi rim «Ritorika»sini yaratgan.

Rim zodagonlariga loyiq janrlardan birinchisi notiqlik hisoblangan. Biroq uzoq vaqt Rim notiqlik san’ati an’alarining tayanchi notiq iste’dodi va tajribasi bo‘lib kelgan. Uning asosiy tamoyilini Katon: shunday ifodalagan edi: «Mohiyatni nazardan qochirma, so‘zlar esa o‘zi keladi».

Aka-uka Grakxlar o‘z nutqlarida ilk bor yunon ritorikasining ta’sirchan usullarini qo‘llab rim notiqligiga yangi yo‘nalish berdilar (1.35-b.). Ozmi-ko‘pmi tanilgan siyosiy arbob, albatta, yaxshi notiq bo‘lgan. Lashkarboshi o‘z jagchilari oldida nutq so‘zlashni bilishi kerak edi. Sitseron 46 yili «Brut» risolasida Rim notiqligi tarixiga qisqacha to‘xtalib, 200 dan ortiq notiqni sanab o‘tadi va ularning asosiy ko‘philigi fuqarolar urushi davri vakillaridir.

Rim notiqlari notiqlik san’ati nazariyasida jiddiy yangilik yaratmagan bo‘lsalar-da, yunon notiqligida shakl-langan tamoyillarni chuqurroq ishlab chiqdilar va ularga taqlid qilgan holda lotin tilida notiqlik san’atining yuksak namunalarini yaratdilar. Iotiqlik usullari vaqt o‘tishi bilan takomillashib, murakkablashib bordi.

Notiq o‘z fikr va dalillarining haqqoniyligi haqida emas, haqiqatga o‘xshashi haqida qayg‘urgan.

Umuman olganda, Rim ijtimoiy-siyosiy hayotida notiqlik muhim rolb o‘ynagan. Sitseron shunday yozgan edi: «Insonni hurmat-ehtirom va shuhratning eng yuksak cho‘qqilariga ikki tur san’at olib chiqishi mumkin: biri lashkarboshilik bo‘lsa, boshqasi yaxshi notiqlik san’ati. Keyingisiga tinch hayot ne’matlarining saqlanishi bog‘liq bo‘lsa, birinchisiga urush xavfini bartaraf etish bog‘liq».

Rim notiqlik san’atida ikki yo‘nalish (usul) shakllandi: Osiyocha (azianizm) usul va attika (attikizm) usuli. Osiyocha usul Iskandarning o‘limidan so‘ng ko‘p o‘tmay Kichik Osiyoda paydo bo‘ldi. Unga hashamadorlik, patetika (ehtiroslilik), tashqi effektlarga moyillik xos edi. Attika uslubi tarafдорлари esa afina notiqlariga xos sodda, qisqa, aniq nutq mezonlariga rioya etishni targ‘ib etganlar. Osiyocha usul

vakillaridan eng mashhuri Kvint Gortenziy Gortal (er. avv. 114-50 y.y.) bo‘lsa, Gay Yuly Sezar va Mark Yuniy Brut attika uslubi notiqlari qatoriga kiradi.

Rim notiqlik san’ati nazariyasiga muvofiq nutq quyidagi shakl va tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim: 1) kirish (exogido); 2) ko‘rilayotgan masalaning bayoni (narratio); 3) himoya yoki aybnomaning asosiy moddasini ko‘rib chiqish(trastratio) va 4) xulosa (regogatio). Himoyalovchi (yoki qoralovchi) nutqning eng muhim qismi, ya’ni traktatsiya o‘z navbatida yana quyidagi qismlarga bo‘lingan: a) traktatsiya predmeti va rejasini ajratib ko‘rsatish (rgorozitio va ragtitio); b) notiq qarashlari to‘g‘riligining isboti (rgobatio) va v) muxolifning fikr va dalillarini inkor etish (gefutatio). Notiq ikki turdagilardan foydalangan: sudbunalarning aqliga ta’sir etuvchi, ya’ni argumentlar va ularning hislariga ta’sir etuvchi, ya’ni amplifikatsiyadir.

Rim respublikasining so‘nggi davridagi eng yirik siyosiy arbobi Mark Tulyi Sitseron (er. avv. 106-43 y.y.) Rim madaniyati taraqqiyotida ulkan rol o‘ynagan. TSitse-ronning nutq, risola va xatlari hayotligi davridayoq lotin nasrchiligining tan olingan namunalari hisoblangan.

Sitseron sudlarda so‘zlangan nutqlari bilan shuhrat qozongan, siyosiy chiqishlari esa uning eng yaxshi notiq mavqeini yanada mustahkamlagan.

Sitseron o‘z faoliyatining boshida Osiyo uslubi ta’sirida nutqlar yozgan, biroq keyinchalik u har ikki usulni muvofiqlashtirishga harakat qiladi (1.38-39-b.).

Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariysi. 1- qism. – T.: Navro‘z, 1997.
2. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. – T.: Fan, 2007.
3. Kaykovus. Qobusnoma. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: O‘qituvchi, 2006.
4. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – T.: Fan, 1983. -151 b.
5. Golovin B.N. Osnovi kulturi rechi. – M.: Vys.shkola.1980.
6. Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. –T., 1992.
7. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Buxoro, 2003.
8. Qilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. T, O‘qituvchi, 1985.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –T.:O‘qituvchi, 1992. - 160 b.
- 10.Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. –T.: 1973.

3-ma’ruza: Adabiy til me’yorlari.

Reja:

1. Madaniy nutqning talaffuz me’yorlari.
2. Madaniy nutqda leksik me’yorlar.
3. Madaniy nutqning morfologik, sintaktik va uslubiy me’yorlari.
4. Madaniy nutqda pragmatik va sotsial me’yorlar.
5. Nutqning etnik va sohaviy me’yorlari.

Tayanch so‘z va iboralar: *madaniy nutq, talaffuz me’yori, mvadaniy nutqda*

leksik me'yor, madaniy nutqning morfologik me'yori, sintaktik me'yor, uslubiy me'yor, madaniy nutqda pragmatik va sotsial me'yor, nutqning etnik va sohaviy me'yorlari.

Me'yor tushunchasi³. Me'yor jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir. Me'yor tilning yashash shaklidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yor deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yor. 3. Argolar, jargonlar me'yor. 4. Adabiy til me'yor⁴.

Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy norma va nutq madaniyati mummolarini atroflicha tadqiq etgan E.Begmatov adabiy normaga xos quyidagi mezon va xususiyatlarni belgilaydi:

- «1. Adabiy norma ob'ektiv mavjud va moddiy bo'ladi.
- 2. Adabiy norma ongli ravishda ishlangan (normalan-gan, kodifikatsiyalangan) bo'ladi.
- 3. Adabiy norma(normativlar) maxsus tanlangan va baholangan bo'ladi.
- 4. Adabiy norma (normativlar) muayyan qat'iy qoida-larga solingan (reglamentatsiya qilingan) bo'ladi.
- 5. Adabiy norma yozuvda, yozma manbalarda mustahkam-langan (fiksatsiya qilinan) bo'ladi.
- 6. Adabiy norma (normativlar) nufuzli, mo''tabar manbalarga tayanadi.
- 7. Adabiy norma tasodifiy hodisa emas, balki vazifa-viy, lisoniy-kommunikativ jihatdan zaruriy bo'ladi.
- 8. Adabiy norma zamonaviy bo'ladi va u tilning zamonaviy (sinxron) holatiga tayanadi.
- 9. Adabiy norma jamiyat a'zolarining adabiy ko'nikmalariga asoslangan bo'ladi.

³ Mazkur mavzuni yoritishda asosan quyidagi darslik materiallaridan foydalanildi: Karimov S., Mamatov X., Bo'riev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004.

⁴ Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 15-b.

10. Adabiy norma konkret adabiy tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi, undan oziqlanadi.

11. Adabiy norma barqaror (stabil) bo‘ladi.

12. Adabiy norma mo‘tadil rivojida o‘zgaruvchan, rivojlanuvchan (dinamik) bo‘ladi.

13. Adabiy norma an’anviy (tendentsioz, qaysar) bo‘ladi.

14. Adabiy norma (normativlar) muayyan qolipga, modellarga solingan (standart, turg‘un) bo‘ladi.

15. Adabiy norma variantdor bo‘ladi.

16. Adabiy norma(normativlar) tipik bo‘ladi.

17. Adabiy norma xalq sheva va lajhalaridan ustun turuvchi normadir.

18. Adabiy norma namunaviy va mo‘tabar normadir.

19. Adabiy norma uslubiy tarmoqlangan normadir.

20. Adabiy norma yopiq konservativ normadir.

21. Adabiy norma (normativlar) madaniy estetik jihat-dan baholangan bo‘ladi.

22. Adabiy norma vazifaviy(funktsional) va aloqaviy funktsional jihatdan maqsadga muvofiq normadir.

23. Adabiy norma umumqo‘llanuvchan va keng tarqalgan normadir.

24. Adabiy norma ommaviy ravishda tan olinuvchi va o‘zlashtiriluvchi normadir.

25. Adabiy norma yagona, umumxalq normadir.

26. Adabiy norma xalqchil normadir»⁵.

Imlo va talaffuz me’yorlari. Hozirgi o‘zbek tilida 31 ta tovush - fonema

O‘zbek adabiy tili me’yoriy ko‘rinishlari. O‘zbek adabiy tili me’yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Talaffuz (orfoepik) me’yori.

2. Fonetik me’yor.

3. Aktsentologik (urg‘uni to‘g‘ri qo‘llash) me’yor.

4. Yozuv (grafika) me’yori.

5. Imloviy me’yor.

6. Leksik-semantik me’yor.

7. So‘z yasalish me’yori.

8. Grammatik (morphologik va sintaktik) me’yor.

9. Uslubiy me’yor.

10. Punktuatsion me’yor.

Orfoepik me’yorlarga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo‘lib qolmoqda. Tilshunoslarimiz zahmatlari tufayli o‘zbek tilidagi birliklarining deyarlik barchasidagi me’yoriy ko‘rinish-lar ommaga turli qo‘llanmalar, lug‘atlar shaklida tavsiya etildi. Yangi imlo qoidalariga o‘tishimiz munosabati bilan bunday ishlar davom ettirilmoqda. Nafaqat filolog olimlar, balki maorifimiz jonkuyarlari, o‘z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaraydigan barcha ziyolilarimiz bu me’yorlarning buzilishiga e’tiroz, tuzatish va tavsiyalar tarzida chiqishlar

⁵ Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. III qism. – Toshkent, 1999, 23-24-b.

qilib turishibdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, talaffuz me’yorlarini buzish, til madaniyatiga e’tiborsizlik hamon davom etmoqda. Bu kamchiliklar hatto radio, ayniqsa, televidenie eshittirishlarida ham seziladi. Xalqimiz shevachilikdan batamom qutula olgan emas. Garchi ko‘pchiligidan adabiy til me’yori talablari asosida savodli yozsak-da, talaffuzda e’tiborsizlik, loqaydlik, mas’uliyatsizlik davom etmoqda.

Leksik me’yorlar deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va o‘rinli ishlatish tushuniladi. Ko‘pma’nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanla-nish imkoniyatining ko‘pligi uning xususiy me’yorlari-ning shakllanishiga ham sabab bo‘lgan. Tilimizdagи dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me’yoriy xususiyatlarini bilish kam leksik me’yor to‘g‘risidagi ma’lumotlarimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me’yori doirasida me’yorni belgilash tilimizdagи mas’uliyatli masala-lardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksi-kasidan ularning ko‘pchiligi uchun umumiy bo‘lgan so‘zlarni tanlab oladi va uni o‘z leksik tarkibiga kiritadi (mas., *sigir-siyir-inak*; *chaqaloq-buvak*, *tuxum-moyak-yumurta*, *chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa* kabilar).

O‘zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu*, *tak*, *vot*, *sovsem*, *voobuqe*, *tolko*, *tolko tak*, *estestvenno*, *obyazatelno*, *konechno*, *uje*, *pochti*, *tak chto*, *znachit*, *kak raz*, *neujeli*, *tem bolee*, *dokument*, *oformit qilmoq*, *organizovat qilmoq*, *prinimat qilmoq*, *razreshenie olmoq*, *podpis qo‘ymoq*, *bo*, *akun*, *soni* kabi so‘z va birikmalarining ishlatilishi ham ijobjiy hodisa emas. Bu erda ham me’yor buzilgan.

Kasb-hunarga oid birliklardan tashqari tilimizda biror ijtimoiy guruh yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o‘g‘rilar, bezorilar, shofyorlar kabilarning o‘ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan «yasama tili» mavjud. Bu til ana shu guruhlar doirasida amal qiladi va og‘zaki shaklda me’yoralashib, og‘izdan og‘izga ko‘chib yashaydi. SHu jarayonda ularning ayrimlari yo‘qolib ketishi, ayrimlari o‘zgarishi, davrlar o‘tishi bilan bu qatlam yangi birliklar hisobiga boyib borishi mumkin. Ma’lum qismi esa ommalashib ketadi. *Dollar* ma’nosini beradigan *ko‘k*, *karam* so‘zları bunga misol bo‘la oladi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar maxsus vazifa ba-jaradi. Uning ko‘magida asar voqealari bir qadar ishonch-li tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individuallashtirilishi mumkin. Masalan, *qafas* (13) - *turma*, *arava* (66) - *mashina*; *malax* (56)- *pul*; *dum* (54) - *orqadan kuzatib yuruvchi odam*; *buyurtma*, *mukofot* (36, 45) – o‘g‘irlangan mol, *narsa* kabi.

Morfologik me’yor. O‘zbek tili grammatikasi tilshunoslik sohalari orasida nazariy jihatdan bir muncha yaxshi ishlanganligi, so‘z shakllari, qo‘sishimchalar, so‘z birikmali va gap qurilishi bir qadar mukammal me’yoriy tavsiyalarga ega bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarida tegishli mulohazalar aytilgan.

Morfologik me’yor haqida fikr yuritilganda gap aslida qo‘sishimchalar qo‘llashning me’yoriy holatlari haqida boradi. Qaysi guruh qo‘sishimchalar bo‘lishidan qat’iy nazar, ular o‘rtasida variantdorlikning, sinonimiyaning mavjudligi nutqda bu qo‘sishimchalar me’yorlari yoki ularning buzilishlari haqida,

ba'zan esa vazifaviy chegaralanishlari xususida mulohaza yuritishga sharoit yaratadi.

Demak morfologik me'yor tushunchasi tilning ana shu qatlamini qamrab oladi va uning atrofida yuritiladigan fikr-mulohazalar har bir so'z turkumi doirasidagi qo'shimchalar hamda ularning nutq jarayonidagi me'yoriy ko'rinishlari, agar ular buzilgan bo'lsa, tuzatish yo'llari haqida bo'ladi.

Grammatikaning uzviy qismi bo'lgan morfologiya doirasida me'yor muammolarini anglashga intilish ona tilimiz salohiyatini yanada teranroq qilishimizga ko'maklashadi. Bu yo'nalishda me'yorlashish uzoq davom etadigan tarixiy jarayon ekanligi ma'lum bo'lib turadi. Ya'ni tilimizning morfologik ko'rsatkichlari qat'iy bir holatga kelgunga qadar uzoq davrni bosib o'tganligi, hatto ularning ma'lum qismi hali ham me'yorlasha olmayotgani ba'zan ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston televidenesi ko'rsatuvarlarida ayrim jurnalistlarimiz qo'shimchadagi bu noziklikni ba'zan payqamasdan, suhbatdoshlarini teletomoshabinlarga tanishtirayotganlarida bir kishiga nisbatan ham *ular*, *bular* so'zlarini (hatto *ula*, *bula* shaklida) qo'llashib, «hurmat bildirishmoqdalar». Yozuvchi Said Ahmad esa *ular*, *bular* o'mida *u kishi* jumlasini qo'llaydi va ko'zda tutilgan ma'noni to'lig'icha saqlab qoladi: *Ammo G'afur aka yozishga shoshilmasdi. Sababini so'raganimda, u k i sh i shunday deb javob bergen edilar* (Nazm chorrahasida). Hammamiz mana shu tarzda hurmat bildirsak, tilimiz me'yorlariga to'g'ri kelgan bo'lar edi.

Yana bir holatga e'tibor beraylik. Fe'llarga qo'shilganda *-lar* qo'shimchasi hurmat yoki boshqa ma'nolarni anglatar ekan, uni mana bu misoldagidek ishlatish ham me'yorning, binobarin mantiqning buzilganligi deb qaralishi kerak: *Intellektual so'zlar umumiste'moldagi leksikaga xos b o'l g a n l i k l a r i d a n , har qanday janrda i sh l a t i l a v e r a d i - l a r va stilistik jihatdan chegaralanmagan b o'l a d i l a r . Shunga ko'ra ularni stilistik neytral bo'lgan leksika deb ham ataydilar* (A.Shomaqsudov). Misoldagi *ularni, ataydilar* so'zlari haqida bu gapni aytib bo'lmaydi. Ular grammatik-uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llangan.

Sintaktik me'yor. Sintaksis doirasida me'yorning amal qilinishi deganda, avvalo, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan nutqni ko'z oldimizga keltiramiz. Grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishlik gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro mazmuniy muvofiq kelishiga – valentligiga bog'liq bo'ladi.

Bu xususiyat, ayniqsa so'z birikmalariga tegishli bo'lib, ular tarkibidagi semantik va grammatik aloqaning kuchliligi, ulardagi a'zolar yaxlit holda gap tarkibida paradigma hosil qilishi ana shu a'zolar o'rtasidagi aloqalarning turg'unligini, binobarin, me'yorning muntazamligini taqozo qiladi.

Erkin so'z birikmalarining bitishuvli, boshqaruvli, moslashuvli shakllari mavjud. Ular orasida bitishuvli birikmalar me'yorga munosabati bilan ajralib turadi. Ot+ot tipidagi birikmalarni olib qaraylik : *kumush qoshiq, movut chakmon, chilvir belbog'*, *zar do'ppi, g'isht devor* kabi. Bu birikmalar ongimizda *kumush* (*metall*)dan *yasalgan qoshiq*, *movut* (*material*)dan *yasalgan chakmon*, *chilvir* (*argon*)dan *bo'lgan belbog'*, *zardan tikilgan do'ppi, g'ishtdan qurilgan devor*

tarzida shakllanadi. Ammo ularni aynan shu tarzda qo'llash me'yor sanalmaydi. Tildagi tejamkorlik, qisqalikka intilish qoidalari ularni dastlab qo'llagan shakllarda aytish va yozishni taqozo qiladi.

Nisbiy sifat + ot tipidagi birikmalar orasida ularning yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi – *li* qo'shimchali shakllari mavjud: *mazali ovqat, aqli odam, kulgili holat, g'ayratli yigit* kabi. Bu birikmalarning aniqlovchi qismi ikki a'zodan iborat bo'lgan ko'rinishlari ham uchraydi: *o'tkir tig 'li pichoq, qora ko'zli bola, jigar rangli sumka, o'ta aqli odam, juda g'ayratli ayol, nihoyatda kuchli shamol* singari. Ularning bir qismini belgisiz – *o'tkir tig 'pichoq, qora ko'z bola, jigar rang sumka* tarzida qo'llash mumkin bo'lgani holda, ikkinchi qismini bunday qo'llash mumkin bo'lmaydi, me'yor buziladi.

Uslubiy me'yor. Uslubiy me'yor to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish ham filolog talabalar uchun muhimdir. Ammo bu me'yorning nozik tomonlarini tushunib olish adabiy til me'yorini tizimidagi boshqa xususiy me'yorlarni anglashga nisbatan bir qadar og'ir kechadi. Buning sababini E.Begmatov shunday izohlagan edi : «Ma'lumki til sohalariga ko'ra normalar o'z materiali, ya'ni o'z til birliklariga egadir. Masalan, fonetik normalar – fonema, grafik normalar – grafema, morfologik normalar – morfema, leksik normalar – so'z (leksema), sintaktik normalar – so'z birikmasi, gap; so'z yasash normalari – yangi so'z va so'z formalari singari. Uslubiy normalarda ham mana shu kabi material, birikmalar bormi? Birinchi qarashda har bir uslub o'z mustaqil vositalariga egadek tuyuladi. Aslida esa bunday vositalarning yo'qligini ko'ramiz».

Uslubiy me'yorning o'zi nima va uni qanday tushunishimiz kerak? Ma'lum bir nutqiy vaziyatda, u og'zaki va yozma bo'lishidan qat'iy nazar, so'zlovchi va yozuvchining o'z niyati va muddaosidan, nutq mavzusi va mazmunidan kelib chiqib, til birliklarini qo'llash, tanlab ishlatish imkoniyati uslubiyatni yuzaga keltiradi. Bu birliklarni tanlab ishlatishga bo'lgan so'zlovchi yoki yozuvchining individual ehtiyoji ularning o'z uslubini, agar kengroq doirada olib qaraladigan bo'lsa, ana shu elementlarni ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida qo'llash bu sohalarda tobora xoslana boradigan vazifaviy chegaralanganliklarni, binobarin, funksional – vazifaviy uslublarni keltirib chiqaradi.

Angladikki, tildagi har bir vosita uslubning shakllanishi uchun material bo'la olishi mumkin.

Endi so'z qo'llash me'yoriga ham diqqat qilib ko'raylik. Zavqiyda shunday misralar bor : *Yuzingni ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding* misolidagi yuz so'zini uning sinonimlari bilan almashtirib ko'ramiz: *J a- m o l i n g ko'rsatib avval..., R u x s o r i n g ko'rsatib avval...* Yana: *T u r q i n g n i ko'rsatib avval o'zingga bandalar qilding, B a sh a r a n g ko'rsatib avval...* va hokazo. Garchi bir sinonimik qatorda joylashgan so'zlar misrada o'rni almashtirilib qo'llanilayotgan va bu so'zlarning leksik ma'no darajasi teng bo'lsa ham, ularning uslubiy qiymatini bir xil deb aytish mutlaqo mumkin emas. Hatto keyingi almashtirishlar tufayli ifodada mantiqsizlik ro'y bermoqda, uslubiy me'yor qo'pol ravishda buzilmoqda.

Tahlildan shu narsa ma'lum bo'ladiki, adabiy til doirasidagi har bir me'yoriy buzilish nutqiy ifoda va mazmunga, binobarin, uslub va til madaniyatiga ham

salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Uslubiy me'yorda nutq uslublari alohida o'rin egallaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili vazifaviy uslublari miqdori va tasnifi haqida ham turlicha qarashlar mavjud. Ularning quyidagi turlari haqida fikriy yakdillik bor:

1. Rasmiy uslub.
2. Ilmiy uslub.
3. Ommabop uslub.
4. Badiiy uslub.
5. So'zlashuv uslubi.

Adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, № 6, 51-б.
2. Бабаханова Д. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1987
3. Кожина М.Н.Стилистика русского языка. – М., 1983, с.59.
4. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.
5. Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантико-функциональном аспекте. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1985.
6. Мухамедов С. Ўзбек тили функционал стилларини белгилаш тўғрисида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, № 4. 58-б.

4-ma'ruza:

Nutqning vazifaviy uslublari.

Reja:

1. Nutqning vazifaviy uslublari.
2. Ilmiy uslub.
3. Rasmiy - ish uslubi.
4. Publisistik uslub.
5. So'zlashuv uslubi.
6. Badiiy uslub.

Tayanch so'z va iboralar: *nutqning vazifaviy uslublari, ilmiy uslub, rasmiy - ish uslubi, publisistik uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, nominativ (atash), kommunikativ (xabar qilish, darak), ekspressiv-emotiv (ifodalik, hayajon, to'lqinlanish), tilning asosiy vazifasi, axborot kommunikatsiya, emotsional-ekspressivlik, stilistika, uslubiyat, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, punktuatsion vositalar.*

Nutqning vazifaviy uslublari.

So'zlar vositasida tuzilgan bir gap ta'sir doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Chog'ishtiring: Bu voqeani hamma biladi. Bu voqeani kim bilmaydi? Ikkinchchi gapda fikr kuchli va hayajonli ifodalangan. qizlar keldi. – Sening xotirangni unutmas aslo, Mening yuraklarim, O'rta Osiyo, O'rta Osiyo! (V.Inber.) Keyingi gapdag'i yurak so'ziga qo'shilgan - lar qo'shimchasi ma'noni ko'chaytirish uchun xizmat qilgan va hokazo. Ko'rinadiki, til hodisalarining vazifalari turlicha: nominativ(atash), kommunikativ (xabar qilish, darak),

ekspressiv-emotiv (ifodalik, hayajon, to'lqinlanish). Tilning asosiy vazifa axborot kommunikatsiyadir. Emotsional- ekspressivlik unga qo'shimcha, yordamchi axborot bo'lib, bu uslubiyatda tekshiriladi.

Uslubiyat fikr va emotsiyalarni bildirishda tilning turli vositalaridan saylab foydalanish yo'llarini o'rgatadi. Demak, uslub (stil) fikr va hodisalarni shunga mos vositalar orqali ifodalash yo'lidir

Stilistika so'zi yunoncha stilos (uchi o'tkir qilingan tayokcha) so'zidan yasalgan. Grek mirzo (xattot)lari shu stilos - maxsus tayoqcha bilan sirti mum bilan qoplangan taxtachalarga xat yozganlar. Bu tayoqcha ma'qul bo'limgan ifodalarni o'chirib, yangisini - yaxshisini yozish imkonini bergen. Stil so'zining arabchadan o'zlashgan sinonimi uslubdir.

Stil (uslub) so'zi o'zbek tilida quyidagi ma'no va tushunchalarni bildiradi:

1. Biror yozuvchi yoki badiiy asarlarning til xususiyatlarini o'rganuvchi soha: Oybek stili. "Navoiy" romanining tili va stili.
2. San'atkor ijodining yoki ma'lum davr san'ati va adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, belgilari yig'indisi: romantik stil, qasida stili, doston stili.
3. Sintaksis va umuman adabiy til me'yorlariga mos nutq qurilishi: sodda, ravon stil; dag'al, g'aliz stil; stil kamchiliklari.
4. Ish-harakat, faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari: rahbarlik stili, suvda suzish stili, gapirish stili.

Demak, stil so'zi "xoslik", "biror narsa yoki hodisa uchun xos bo'lgan xususiyatlar" ma'nolarini ifodalaydi. Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o'rtasidagi oraliq fan bo'lib, u fikrni, maqsadni har bir sohaning o'z talablariga ko'ra til vositalari bilan aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san'atini o'rgatadi.

Uslubiyat kursi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bilan uzviy bog'liqidir. Chunki bu kursda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" predmetidagi nazariy materiallar, ya'ni fonetik, leksik, grammatik vositalarning nutqda qo'llanishi o'rganiladi.

U yoki bu til hodisalarining nutqda qo'llanilishini o'rganishdan oldin, uning o'zini va ichki mohiyatini bilmox kerak. Jumladan, sinonimlarning nutqda qo'llanishi haqida bahs yuritish uchun sinonimning o'zi haqida tasavvurga ega bo'lish lozim; gramatikada fe'l zamonlarining ko'chgan ma'noda, ya'ni bir zamon o'mida ikkinchisining qo'llanilishini va bunday qo'llashni ma'lum uslubiy talab bilan bo'lishini aytish uchun avvalo zamon haqida tushunchaga ega bo'lish kerak va hokazo. SHuning uchun ham bu kursning fundamental asosi "Hozirgi o'zbek adabiy tili"dir. SHunga qaramay, bu ikki fan bir-biridan tubdan farq qiladi. "Hozirgi o'zbek adabiy tili"da lingvistik dalillarning mohiyati va ularning til tizimidagi o'rnini belgilash muhim ahamiyatga ega bo'lsa, uslubiyat asoslari uchun hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fonetik, leksik, frazeologik va grammatik vositalarning qo'llanish shartlarini belgilash; so'z, ibora yoki grammatik shaklning qaydarajada to'g'ri yoki noto'g'ri ishlatalganligini, ularning nutqda bajargan vazifasini aniqlash zarur.

Chog'ishtiring:

- Pushti panoho, - dedi hudaychi, - xiyonatkor o'z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo'lmoqchi!
- Xiyonatkoring kim?
- Mirzo Anvar!.. (A. Qod.)
- Osilgan kim?
- Qiyotlik bir g'o'ch yigit. (J.Sharipov.)

- Nishatamiz, o‘g‘lim, taqdir, - dedi xo‘rsinib ona. (J. Sharipov.)

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tusga qo‘yib, manglayida terlar ko‘rindi, g‘azab o‘ti alanga oldi.

- Sening qig‘on ishing pusilmonlikda bormi, it uvli?!

- Musulmonchiliqda yuzlab xotin ustiga, bir kambag‘al uylanmoqchi bo‘lgan qizga ham zo‘rlik qilish bormi, qiblai olam?!

- Chiqar buni, jallod !!!(A.Qod.)

Yuqoridagi matnlar tilshunoslar tomonidan turli yo‘nalishda turlicha tahlil etiladi. Jumladan, leksikolog matndagi so‘zlarning ma’nosi, uning bo‘yog‘i haqida fikr yuritsa, grammatik hodisalarini tekshiruvchilar esa so‘zlarning qaysi turkumga oidligini va so‘z shakllarini yoki so‘z birikmalarini, gaplarni tahlil qiladi. Uslubiyotda esa matndagi jargonizimlar (pushti panoho, domi adolat), dialektizimlar (g‘o‘ch, nishatamiz), istorizimlar (hudaychi, jallod) hamda arxaik grammatik shakllar (-liq, -g‘on)ning turli o‘rnirlarda har xil maqsadlar uchun: davr ruhi, personaj nutqining tavsifi uchun qo‘llanilishi o‘rganiladi.

Uslubiyat kursining mundarijasini fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, punktuatsion vositalarning qo‘llanilishini o‘rganish tashkil etadi.

Nutq tovushlarining uslubiy vazifasini, ulardan nutqning ifodalilagini oshirish vositasi sifatida foydalanish yo‘llarini fonetik uslubiyat o‘rganadi.

Leksik uslubiyat so‘z, uning ko‘chma ma’nolari, sinonim, omonim, antonimlar, uslubiy bo‘yoqli so‘z va iboralarning nutqda qo‘llanilishini o‘rganadi.

So‘z shakllarining uslubiy bo‘yog‘i, ularning transpozitsiyasi, sinonimiyasi, tushib qolishi natijasida paydo bo‘ladigan konnotativ ma’nolarining qo‘llanishi morfologik uslubiyatda o‘rganiladi.

So‘z birikmasi va gaplarning sinonimiyasi, gapda suzlar tartibining uslubiy roli sintaktik uslubyatining o‘rganish obe’ktidir. Tinish belgilari ham yozma nutqdagi turli holatlar, subyektiv maqsadlar, emotsiyal-ekspressivlikni ifodalaydi hamda aytilayotgan fikrni yozuvda ixcham va ravon bayon qilishda katta rol o‘ynaydi. Tinish belgilarining sintaktik uslubiy vazifasini, ularning barcha nutq uslublarida qo‘llanish qonuniyatlarini so‘z san’atkorlarining u yoki bu tinish belgisini qo‘llashdagi individual holatlarini punktuatsion uslubiyot o‘rganadi.

So‘zlovchi yoki yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va vazifasi, voqelik hamda nutq sharoitiga qarab til vositalarini tanlab ishlataladi. Jumladan, ma’lum bir soha mutaxassis bo‘lgan olim o‘z ilmiy nutqida shu sohaga xos terminlarni tanlab qo‘llasa, shoir yoki yozuvchi badiiy estetik ma’noli so‘zlarni topib ishlatishga harakat qiladi, ya’ni bir voqelik mazmuni turlicha shakllarda ifoda qilinadi.*Chog‘ ishtiring:* quyosh SHarqdan chiqib, g‘arbga botadi (ilmiy uslub). Quyosh Sharq yoqasidan zar kokilini tarab, g‘arb ufqiga bosh qo‘yadi (badiiy uslub).

Uslublar tilning asosiy vazifalariga (fikr bildirish, ekspressivlik kabilarga mos ravishda) qarab bir qancha turlarga bo‘linadi. Shunga ko‘ra, ular vazifaviy uslublar deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, nutq uslubi til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidir.

Vazifaviy uslublar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko‘rinishlari bo‘linib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Xuddi shuningdek, so‘z, termin va frazeologik iboralardan foydalanishda har bir uslub o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘ladi. Hatto umumiste’ moldagi so‘zlar ham turli nutq uslublarida turlicha ma’noda keladi.

Nutqning vazifaviy uslublari uslubiyatning katta bir tarmog‘i hisoblanadi. Nutqning vazifaviy uslublari turli olimlar tomonidan har xil tasnif qilingan. Neytral uslubga oppozitiv holatda nutq uslublarining asosiy besh ko‘rinishi mavjud: ilmmiy uslub, rasmiy-ish uslubi, publitsistik uslub, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub. Bu uslublarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.

Ilmiy uslub.

Ilmiy uslubdagagi nutq fikrning aniq, mantiqli bo‘lishini talab qiladi. Shuning uchun mantiqiy fikrlash, abstraktsiya, analiz va sintez ilmiy uslubning xarakterli xususiyatidir. Ilmiy uslub adabiy til me’yorlarini to‘la saqlagan daliliy materiallarga boy, aniq va siqiq axborotli nutq ko‘rinishidir.

Fan-texnika, madaniyat va san’at sohasida yoziladigan monografiya, darslik, ilmiy - texnik xabarlar, turli to‘plam va jurnallardagi ilmiy maqolalar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy terminlari va formulalaridan faydalaniлади. Masalan: Morfemika -so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot - so‘zning ma’noli qismlari morfemalar deyiladi. Morfemalar ikki turga bo‘linadi:

- 1) o‘zak morfema;
- 2) affiksal morfema. (“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik).

Ilmiy uslubda yozilgan asarlar, odatda, ilm-fanga oid ma’lumotlar berish bilan mutaxassislarga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Ilmiy uslubdagagi nutq monologik xarakterdagi ixcham nutq bo‘lib, unda ko‘chma ma’noli so‘zlar, majoz, hazil, erkalash, emotsiyonal-ekspressiv so‘zlar, frazeologik iboralar deyarli uchramaydi. Morfoloqik jihatdan bu uslubda qaratqich kelishigi belgisiz holatda ko‘p ishlatiladi (nutq stili, til birligi, til oldi, undoshlar tasnifi). Sonlar harfiy shaklda emas, ko‘proq raqamlar shaklida beriladi. Birinchi shaxs birlik olmoshi (men) ko‘pincha ko‘plik (biz) shaklida ishlatiladi. Aniq va majhul darajali fellar nisbatan ko‘proq uchraydi.

Sintaktik jihatdan ilmiy uslubda murakkab sintaktik birliklar kengaygan oborotlar va ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar uchraydi. Tinglovchining diqqatini tortish maqsadida darak gaplar bilan bir qatorda so‘roq shaklli gaplar ham ishlatiladi. Aytilayotgan fikrni mantiqiy jihatdan bog‘lash uchun bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar, kirish va kiritma so‘zlar (gaplar) alohida rol o‘ynaydi.

Bir sostavli gaplar deyarli ishlatilmaydi. Fe’l kesimlar qotgan shaklida bo‘ladi (deyiladi, deb ataladi, hosil bo‘ladi). Gap bo‘laklari odatdagagi tartibda bo‘ladi, inversiyaga uchramaydi.

Rasmiy - ish uslubi.

Bu uslubdagagi nutq boshqa uslublarga qaraganda siqiq va chegaralangandir. Bu uslubda so‘z va iboralar aniq, qat’iy bir qolibda ishlatiladi. Masalan 4-modda O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir (“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”).

Rasmiy-ish uslubida yuridik hujjatlar, qonunlar, buyruq va qarorlar yoziladi. Rasmiy hujjatlarda nutq vositalarining standartligi va bir xilligi turlichadir. Jumladan, yuridik hujjat sifatida pasport, turli blankalar bir qolibda bir xil shaklda (stereotip) bo‘lsa, hisobot, qaror va buyruqlarning qat’iy bir qolibda - standart bo‘lishi shart emas.

Rasmiy-ish uslubidagi nutqning ham o‘ziga xos leksik va frazeologik birliklari (odam o‘rnida shaxs, beriladi o‘rnida taqdim etiladi, ish o‘rnida burch) mavjud. Maxsus terminlar, nutqiy shtamplar, tayyor formulalar ham rasmiy-ish uslubining elementlaridir (maqsadida, hisobidan, shunga ko‘ra, biz quyida imzo chekuvchilar).

Morfologik jixatdan rasmiy-ish uslubidagi nutq qisqartma qo'shma so'zlarning (medinistitut, BuxDU), qaratqich kelishigidagi otlar, olmoshlar, buyruq mayli va majhul darajali fe'llarning ko'p qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Sintaktik jihatdan esa sifatdosh va ravishdosh oborotli birliklarni hamda ergash gapli qo'shma gaplarni keng qo'lamda ishlatilishi bilan ajralib turadi. Bu uslub qo'shma kesimlar (qabul qilinsin, taklif qilindi, yordam beriladi) ko'proq qo'llanadi.

Kirish so'zlar, odatda, gap boshida keladi. So'zlar odatdagagi tartibda bo'ladi, inversiyaga deyarli uchramaydi.

Publitsistik uslub.

Bu davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, siyosiy nutqlar uslubidir. Kundalik hayotning turli tomonlarini, dolzarb masalalarni ommabop tarzda tushuntirib beradigan maqolalar shu uslubda yoziladi. Publitsistik uslubdagi nutq axborot boyligi, aniqligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Publitsistik nutq mantiqiy asosli bo'lishi bilan birga, jamoatchilikning fikri va yuragiga hissiy ta'sirli ham bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bunday nutqda tinglovchi va o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri murojaat, ritorik so'roq, antiteza, sintaktik parallelizm kabi nutq vositalari ko'p ishlatiladi.

Publitsistik nutqning xarakteriga ko'ra unda turli siyosiy terminlar, neologizmlar, professiona-lizmlar, so'zlashuv nutqi elementar (*ozodlik, tenglik, erkinlik, demokratiya, avangrad, do'stlik, sharaf, baqirmoq, vaysamoq*) uchraydi.

Qaratqich kelishigidagi otlar, qiyosiy darajali sifatlar, buyruq-istak maylidagi fe'llar, ayiruv, ta'kid va kuchaytiruv yuklamalarining ko'proq ishlatilishi publitsistik nutqqa xos morfologik xususiyat bo'lsa, sintaktik konstruktsiyalarning soddaligi, inversiyali gaplar, perefrazlar va undalmalarning qo'llanilishi uning sintaktik xususiyatidir.

Odatda, gazetalarning bosh maqolalari ko'pincha publitsistik xarakterda bo'ladi. Chunki ularda kundalik turmushdagi tarbiyaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yoritib boriladi. Misol: Vatanga – tinchlik, Loqaydlik – illat. Istiqlol yo'li. Adolat – ishimiz mezoni.

Umuman olganda, ommaviylik, siyosiylik, alohida emotSIONallik, baholash, fikr teranligi publitsistik nutqqa xosdir.

So'zlashuv uslubi.

So'zlashuv uslubidagi nutq ham hamma uchun umumiyligini va til vositalarini saylab ishlatishda erkendir. Bu uslub nutqi g'ayri rasmiyligi, ekspressivligi, bayonning erkinligi va asosan, dialogik xarakterdaligi bilan izohlanadi. So'zlashuv uslubda metoforik so'zlar, dialektizm, vulgarizm va frazeologik iboralar ko'proq qo'llanadi. Turli ekstralolingvistik faktorlar (qo'l, bosh, badan harakatlari, mimikalar) so'zlashuv nutqi uslubga xosdir. So'zlashuv uslubidan adabiy asarda personajlarning nutqiy tavsifini berish maqsadida foydalilanadi: - *Men sizga inak sog'ishniyam, - dedi Rayhonbibi Oliyaga, - o't o'rishniyam, polizga qanday ishlashniyam o'rgataman. qishloqqa ish bilmagan odam dar qoladi.* (O.Muxtorov.)

Subyektiv baho shaklli otlar, sifatlarning ozaytirma va kuchaytirma shakllarining (*toychoq, kelinchak, qizcha, oqqina, qizgish*) ko'p ishlatilishi bu uslubning morfologik xususiyatidir. Shuningdek, turli dialektal shakllarni ishlatish (-da o'mida -ga; -ning o'mida -ni, -lar o'mida -la) yoki affikslarni nutqiy tejam qilish (*maktabda o'kiydi o'mida maktab o'qiydi*) ham bu uslubning xarakterli belgisidir.

Sintaktik jihatdan so'zlashuv nutqining asosini to'liqsiz gaplar (- *Aytaman. -Kimga?* - *Oting nima?* - *Yodgor*) tashkil qiladi. Shuningdek, so'z-gaplar (*-Ha.-Yo'q.-Nahot.*), emotsiyonal gaplar (*Ha, barakalla! Yasha, azamat!* *Voy, rahmat!*), ritorik so'roq gaplar hamda bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ko'p ishlatalishi ham so'zlashuv uslubi uchun xarakterli xususiyatdir.

So'z tartibi nisbatan erkin, so'zlovchi uchun muhim sanalgan so'z gap boshida beriladi. (Kecha qaytdi daladan o'zi. Yozdim ukamga xat.). SHuning uchun ham bu nutqda inversiya hodisasi mavjud.

Badiiy uslub.

Badiiy uslubda, asosan, badiiy asarlar yaratiladi. Badiiy nutq obrazli va emotsiyonal-ekspressivdir. Bunda tilning aloqa vazifasi bilan estetik-emotsional vazifasi qo'shilib ketadi. Badiiy uslubda yuqorida qayd qilingan barcha uslublarga xos elementlar ishtiroy etadi. Shu bilan bir qatorda, badiiy nutqda polisemantik so'zlar, ko'chma ma'noli so'zlar, sinonim, omonim, antonimlar, eskirgan va yangi so'zlar, jargon va vulgarizmlar, frazeologik iboralar va xalq maqollari keng qo'llaniladi. Bunda so'z va iboralar vositasida obraz yaratiladi, jonli kartinalar chiziladi. (Chog'ishtiring: chehra, jamol, ruxsor. oraz; lab, dudoq; tabassum, ishva, noz, oq oltin, zarkokil).

Otlardagi ko'plik shakli (-lar)ning turli semantik-uslubiy maqsadlar uchun ishlatalishi, kichraytish-erkalash shakllarining ko'p qo'llanilishi, fe'l zamonlarining almashlab ishlatalishi badiiy uslubning morfologik xususiyatidir.

Sintaktik jihatdan badiiy uslub turli qurilishdagi gaplarning bo'lishi, ko'chirma va o'zlashtirma gaplarning chegaralanmaganligi, sinonimik gaplar, perefrazalarning ko'p uchrashi, so'zlarning to'g'ri tartibi va inversiyadan istagancha foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Ilmiy uslubda esa so'zlar terminologik xarakterda bo'lib, faqat tushuncha, tasavvur anglatса, badiiy uslubda so'zlar tushuncha ifodalash bilan birga, jonli obrazlar ham yaratadi: o'rik so'zining ilmiy va badiiy nutqda qo'llanishini chog'ishtiring:

O'rik – ra'noguldoshlar (atirgullilar oilasi) ga mansub mevali daraxt. Daraxti 10-15 metrgacha. Bargi keng, tuxumsimon. Guli oq yoki pushti, bargidan oldin ochiladi. Mevasi etli, danagidan ajratiladigan va ajratilmaydigan xillari bor. Mart-aprelda gullaydi, mevasi may-iyulda pishadi. (O'zME).

O'rik daraxti ostidagi baland supada yotgan Murotali odatdagidek, tong saharda uyg'ondi. Uyg'ondi-yu, ko'zlarini katta-katta ochib o'rik shoxlariga termildi. Har bir novda g'uncha gul bilan to'la edi. Keksa dehqon sevimli daraxtining shoxlari, novdalari, g'uncha va gullariga ishtiyoy bilan termular ekan, qalbi sevinch bilan talpinardi. qudratli o'rikning uzun shoxlari va novdalari keng hovlini to'ldirib turibdi. Murotali endigina gulga kirgan o'rikning chiroyiga maftun bo'lib yotardi. Darhaqiqat, o'rik bu yil misli ko'rilmagan daraja sergul bo'ladi, katta kichik novdalar shig'il gulga ko'milib, endigina kurtakdan chiqqan nimjon yaproqlarni ham yashirgan edi. O'rik daraxtining quyuq guli oppoq bulutlarni eslatadi. (Sh.R.)

Barcha nutq uslublari o'zaro aloqador: bir uslubda boshqa nutq uslublarining ko'rsatkichlari ham uchraydi. Shu bilan bir qatorda har bir uslub o'ziga xos leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega. Ana shu vositalarni bilish, ularning har biridan o'z o'rnida ustalik bilan foydalansh lozim. Agar ma'lum bir nutq uslubiga xos elementlar boshqa uslubda asossiz (uslubiy maqsadsiz) qo'llansa, nutq g'aliz bo'ladi. va tinglovchini zeriktiradi.

Adabiyotlar:

7. Абдураҳмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, № 6, 51-б.
8. Бабаханова Д. Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1987
9. Кожина М.Н.Стилистика русского языка. – М., 1983, с.59.
10. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.
11. Мукаррамов М. Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантико-функциональном аспекте. Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1985.
12. Мухамедов С. Ўзбек тили функционал стилларини белгилаш тўғрисида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, № 4. 58-б.
13. Сулаймонов А. Тил стиллари ҳақида//СМ, 1964, № 6. 21–23-б.
14. Тоғиев Ё., Ҳасанова Н., Тоғиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
15. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Ўқув кўлланма. Тошкент, 2006, 114 б.

5-ma’ruza: Madaniy nutq mezonlari. Reja:

1. Madaniy nutq tushunchasi.
2. Nutq mezonlari tasnifi.
3. Nutqning to‘g‘riligi.
4. Nutqning aniqligi.

Tayanch so‘z va iboralar: *nutqning aloqaviy sifati, madaniy nutq, asosiy mezon, nutqning lingvistik va nolingvistik mezonlari, nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi, tozaligi, nutqning ta‘sirchanligi (obrazliligi), nutqning o‘rinliligi.*

Nutqning aloqaviy sifati, uning maqsadga muvofiqligi madaniy nutqdan talab qilinuvchi asosiy mezon (o‘lchovlar) bilan belgilanadi. Madaniy nutqning lingvistik va nolingvistik mezon (o‘lchov)lari quyidagilar: nutqning to‘g‘riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi va tozaligi, nutqning ta‘sirchanligi (obrazliligi), nutqning o‘rinliligi. Bu o‘lchovlar ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Nutqda ulardan biri o‘z me’yorida bo‘lmasa, tom ma’nodagi madaniy nutq yuzaga kelmaydi. Yuqorida qayd qilingan mezonlar ba’zi adabiyotlarda nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifatlari deb ham yuritiladi.

Quyida nutq mezonlarining har biriga xos xususiyatlar haqidada fikr yuritamiz.

Nutqning to‘g‘riligi.

Nutqiy madaniyatning muhim belgilaridan biri fikrni to‘g‘ri, mazmunli bayon qilishdir. Nutqda qo‘llanadigan har qanday til vositasining kuchi adabiy til me’yorlariga tayanilgandagina ruyobga chiqadi. Adabiy tilning fonetik-orfoepik, leksik-semantik va grammatik me’yorlari talablariga to‘la mos keladigan nutq to‘g‘ri nutqdir. Adabiy tilning qayd qilingan me’yorlari bilan to‘g‘ri nutq tuzish orasidagi munosabatlar haqidada alohida fikr

yuritamiz. Adabiy tilning fonetik-orfoepik me'yori nuqtai nazaridan nutqning to'g'rilingiga e'tibor qaratilsa, quyidagilar namoyon bo'ladi.

Nutqning talaffuz (orfoepik) madaniyati til materiallarini to'g'ri, ifodali talaffuz qilish bilan bog'liqdir. Bunga so'z va iboralarning to'g'ri diktsiyasi, so'z va mantiqiy urg'u, intonatsiya (ohang) hamda pauza (to'xtam)ga e'tibor qilish orqali erishiladi. Orfoepik jihatdan nutqning to'g'ri bo'lishi, asosan, so'z va gap urg'usining to'g'ri ishlatilishiga bog'liq. Masalan, rus tilida urg'u erkin bo'lsa, o'zbek tilida urg'u bog'liqdir. Ya'ni so'z o'zaklariga qo'shimchalar qo'shilganda, urg'uning tushish o'rni ham o'zgarib boradi: Ishchi - ishchilar - ishchilarga kabi. Demak, talaffuzda ana shu me'yorni saqlash lozim bo'ladi. Xuddi shuningdek, so'zlardagi urg'uning ko'chishi ba'zan uning ma'nosini ham o'zgartadi: Olma - olma, qatlama- qatlama, yangi - yangi, hozir - hozir kabi qator so'zlarining qanday ma'no ifodalashi faqatgina urg'u yordamida oydinlashadi.

So'zlardagi urg'uni noto'g'ri qo'llash ma'no va adabiy talaffuzni buzadi: bino - biyno, sino-siyno kabi. Ma'noni ta'kidlab ko'rsatishda mantiqiy urg'udan ham foydalaniladi. Masalan, Men kinoga bordim gapi mantiqiy urg'usiga ko'ra uch xil fikrni anglatishi mumkin. Men bordim (sen emas), kinoga (teatrqa emas) bordim (bormadim emas.)

Nutqda mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Semiz papkali kishi keldi; Onasiz bola o'ynamas kabi gaplarning ma'nosi urg'uning qaysi gap bo'lagiga tushishiga ko'ra turlicha ma'nolarni ifodalashi mumkin. Nutq madaniyati oldidagi dolzarb muammolardan biri hozirgi talaffuz me'yorini aniqlashdir. Madaniy nutqda so'zlarining to'g'ri talaffuz qilinishi eng muhim shartlardan biridir. Hatto ayrim so'zlarini eskirgan shaklda talaffuz qilish ham nutq madaniyatini xiralashtiradi: ishkop, ustal, pan, parishta (adabiy talaffuzi: shkaf, stol, fan, farishta) Xuddi shuningdek, talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarini farqiga bormay (shavkat - shafqat) yoki e'tiborsizlik natijasida h tovushi o'mida x (mohir - moxir, mashhur- mashxur, shoh-shox)ni; u tovushi o'mida o' (ulkan-o'lkan, tovushini qo'llash g'ayriqonuniydir. Biror so'zni tarixiy etimologik tomonlari va grammatik xususiyatlarini yaxshi bilmay turib, uni to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas.

Endilikda matbuot sahifalarida o'zbeklar uchun talaffuzi qiyin bo'lgan filosofiya, filosofik ta'limot, filosofik materializm atamalari o'mida ularning ma'nolarini aynan ifoda qiladigan o'zbekcha talaffuz me'yorlariga mos keladigan falsafa, falsafiy ta'limot, falsafiy materializm kabi qadimgi variriantlarni qo'llash me'yor sanaladi. Ma'lumki, boshqa tillardan so'z qabul qilish nutqdan boshlanadi. So'z qabul qiluvchi til har bir so'zni o'z "g'alviri"dan o'tkazadi va qonun-qoidalariga bo'ysundirib oladi. Bunday holat eng avvalo, qabul qilingan so'zning talaffuzida namoyon bo'ladi. Nutqda bunga rioya qilmaslik orfoepik xatolarga olib keladi. Hamda nutqni g'aliz qiladi. So'zlarining talaffuzida ular tarkibidagi tovushlarning fonologik xususiyatga ega ekanligi hisobga olinadi. Jumladan, arab va rus tillaridan qabul qilingan so'zlar tarkibidagi f va j tovushlari o'zbek tili fonemalari tarkibidan o'rin olganligi uchun bu tovushlarni nutqda p va j tarzida, ya'ni poyda (foyda), paqir (faqir), Parg'ona (Farg'ona) pabrika (fabrika), pizika (fizika) jurnal, jyuri tarzida talaffuz qilish xato hisoblanadi. Lekin rus tilidagi ts, h, o' tovushlari o'zbek tili fonemalari tarkibidan o'rin ololmagan. Chunki bu tovushlarning fonologik parametrleri butunlay boshqa. Shuning uchun ularni "s" (eski qabul qilingan so'zlarda esa "ch" tarzida), "sh" va "i" tarzida talaffuz qilish mumkin: silindr (tsilindr), sirkul (tsirkul), cherkov (tserkov), chorizm (tsarizm), shi (hi), vistavka (vo'stavka) kabi. Rus tili uchun undosh tovushlarning qattiq-yumshoqligi fonologik ahamiyatga ega. O'zbek tilida bu hodisa ahamiyatsizdir. Shuning uchun rus tilidan kirgan

so‘zlarda yumshoq va qattiq tovushlarni ham, bir xil talaffuz etish me’yor hisoblanadi: yanvar, fevral, palto kabi. Intonatsiya (ohang) tufayli so‘zlarining ma’no ifodalash imkoniyatlari kengayadi. Masalan, keling so‘zi aytish ohangiga ko‘ra samimiyat masxaralash, norozilik , o‘ksinish kabi qator ma’nolarni ifodalashi mumkin.

Odatda, intonatsiya nutq so‘zlanib turgan vaziyatda yuzaga keladi va u har xil ko‘rinishda bo‘ladi. Bu haqda S. Inomxo‘jaev quyidagilarni yozadi: “Mantiq taqozosi, aniq vaziyatlar talabiga ko‘ra bitta so‘z bir-biriga o‘xshamagan olam-olam ma’no anglatishiga qodir. Jumladan, birgina “salom” so‘zining o‘zi quyidagi mazmunlarni ifoda etishi mumkin:

Salom! - “keling” ma’nosida

Salom! - “xo‘sh xizmat”

Salom?! - “yana keldingmi?”

Salo-o-m! - ”juda vaqtida kelding”

Salo-o-m?! - “men sizni tanimayapman”

Salom!!! - “gap tamom”

Salom! - “ha ishing tushdimi?”

Salom! - “bir pas kutib turing”.

Salom! - “vaqtim yo‘q, ketaver”

Sa-lom! - “mana ishim bitdi, gapir endi” kabi qator ma’nolarni ifodalaydi. Aniq shart-sharoit mazmunidan kelib chiqib, fikrlab so‘zlovchi so‘z can’atkorining nutqi yuksak madaniyati bilan e’zozlansa, o‘ylamay talaffuz qiluvchi san’atkorining nutqi madaniy past saviyada ekanligi bilan xarakterlanadi. To‘g‘ri nutq tuzishda pauza (to‘xtam)ning ham alohida o‘rnii bor. Pauza nutqdagi jumlalarning, gapdagisi ayrim so‘z yoki so‘z birikmalarining chegarasini ko‘rsatadi. Pauzani noto‘g‘ri qo‘llash nutqning mazmunini o‘zgartirishi mumkin: Poezddan uch bolali ona tushdi bolasi bor birta onami? Yoki har birida bittadan bolasi bor uchta onami?) Yana chog‘ishtiring: Odam bolasi bo‘l otang kabi axmoq bo‘lma. Albatta, bunday hollarda tinish belgisi muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri nutq tuzish uchun fikrni har tomonlama mazmunli, ifodali qiluvchi so‘z va so‘z variantlarini topa bilish, ularni o‘z o‘rnida ishlata olish muhim omildir. Boshqacha aytganda, lug‘aviy madaniyat bu so‘zlarining o‘z va ko‘chma ma’nolari hamda sinonim, omonim, antonim, paronim, chegaralangan leksika va boshqalarning ma’no qirralarini to‘la anglagan holda nutqda qo‘llay olishdir. Ma’lumki, har bir so‘z o‘ziga xos ma’nosini bilan nutqda ajralib turadi. Agar so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa, nutqda qaysi ma’nosini bilan qo‘llanilayotgani ochiq bo‘lishi kerak. So‘zning leksik ma’nosini tushunmaslik uni xato qo‘llashga olib keladi: O‘n kun deganda er haydash, ariq chopish tugallandi. Bu gapda chopish so‘zi xato qo‘llangan. Odatda, ariq chopilmaydi, qaziladi. Bir abiturient o‘z inshosida “g‘ofir Solihboyning qiroli edi” - edi degan jumlanli ishlatgan. Abiturient qirol-podshoh, qarol esa xizmatkor, qul ma’nosida qo‘llana olishini ajrata olmaydi.

Sinonimlar nutqni ta’sirchan qilish bilan birga, turli qaytariqlarning oldini olib, uni ravon qiladi. Nutqda sinonimlarning ma’no va uslubiy nozikliklaririni to‘la anglagan holda foydalanish lozim. Aks holda nutqiy g‘alizlik vujudga keladi. Chunki bir paradigmmani hosil qilgan sinonim so‘zlar turli so‘zlar bilan turlicha sintagmatik munosabatga kirishadi: oriq va ozg‘in sinonimlaridan ozg‘in odamlarga nisbatan, oriq esa hayvonlarga nisbatan ishlataladi. Yana chog‘ishtiring: Puxta, pishiq mustahkam, mahkam, chidamli kabi sinonim so‘zlar bino, iroda, g‘isht, yigit so‘zlarini bilan sintagmatik aloqaga kirishi ham, kirmasligi ham mumkin.

Til lug‘at boyligini oshirishda boshqa tillardan qabul qilingan so‘zlar muhim ahamiyatga ega. Ammo chet tilidan kirib qolgan so‘zlarining ma’no tuzilishini etarli anglamay

nutqda qo'llash hollari ham uchraydi. Jumladan, rus tilidan kirib kelgan “kandidat” so‘zining “saylanadigan shaxs” ma’nosiga tilimizda mavjud bo‘lgan “nomzod” so‘zi to‘la sinonim bo‘lib keladi. Bu hol nutqiy qo’llanishlarda to‘la saqlanadi: Deputatlikka kandidat deyish o‘rniga nomzod deyish o‘rinli va ma’qul. Ammo kandidat so‘zining ilmiy daraja ifodalashi ma’nosida uni nomzod so‘zi bilan almashtirish mumkin emas. Chunki kandidat so‘zining semantik tarkibi nomzod so‘ziga nisbatan ancha kengdir. Buni “fan doktori” birikmasini hozirgacha o‘zbekchalaشتira olmaslikda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Darhaqiqat, tilda mavjud bo‘lgan, keng xalq ommasi ongiga singgan ayrim chet so‘zlar (rus – inter.: kandidat) o‘rniga yana boshqa bir chet tilidan (tojikcha: nomzod) so‘zini olib ishlatishga ehtiyoj yo‘qdir. Bu tartibda tuzilgan nutqni to‘g‘ri nutq deb bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda so‘zlash madaniyatida sezilayotgan yana bir tendentsiya arab va fors so‘zlarini zo‘rma-zo‘raki ishlatish hisobiga yozma va og‘zaki nutqni jimmijador, dabdabali qilishga intilishdir: Jumladan, sarafroz, zuhur etmoq, alhol, muxtasar, nomavzun kabi so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha muqobillarini ishlatish o‘rinli bo‘ladi. Xuddi shuningdek, adabiy til lug‘at tarkibidan o‘rin olmagan, faqat so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan gostintsa, stolovoy, bolbnitsa, biblioteka kabi qator so‘zlearning o‘zbekcha muqobillarini ishlatish nutqiy to‘g‘rilikni ta’minlaydi.

To‘g‘ri nutq tuzish kishining ruhiy holati munosabati bilan bog‘liq. Jumladan, sen va siz kishilik olmoshlari nutq vaziyati hamda so‘zlovchi va tinglovchi munosabatiga ko‘ra turlicha semantik-uslubiy vazifa bajaradi. “Sen” kishilarni yaqinligini (yoshi yoki qarindoshligi jihatidan) ko‘rsatadi. “Siz” so‘zida hurmat semasi bo‘lganligi uchun yoshi ulug‘ yoki tanish bo‘lmagan kishilarga nisbatan ishlatiladi va orada oz bo‘lsada masofa saqlanadi. Ayni zamonda “sen” qo‘pollik, hurmatsizlikni, “siz” esa diqqat va xushmuomalalikni ifodalaydi. Nutq jarayonida biror bir sababsiz sharoitda “siz” dan “sen” ga va aksincha so‘zlashga o‘tish o‘rinli emas. Chunki “siz” so‘zidan keyin “sen” lash noqulaylik tug‘dirsa, “sen” dan keyin “siz”lash esa muomalada sovuqlik yaratadi. Xulosa qilganda, har ikkala holatda ham nutqiy to‘g‘rilik buziladi.

Nutqda ortiqcha keraksiz so‘zlarni qo‘llash uning ma’nosini, ta’sir kuchini sayozlashtiradi. Jumladan, ayrim notiqlar nutqidagi masalan, demak, tak, nihoyat, xo‘sish so‘zlarining takror-takror ishlatilishi bunga misol bo‘ladi.

Ayrim shaxslar nutqida beparvolik oqibatida ruscha so‘zlarni ehtiyoji bo‘lmagan o‘rinlarda ishlatadilar: aka o‘rniga brat, bratan, band o‘rniga zaynit, ota o‘rniga paxan marhamat o‘rniga pojaliista kabi. Xuddi shuningdek, yoshlar orasida juda chiroyli ismlarni buzib, ruschaga taqlidan talaffuz etadilar: Irodani – Ira, Adolatni – Adik, Dilbarni – Dilya, Ulug‘bekni – Udik kabi.

Yuksak nutq madaniyatiga erishish uchun shevachilikning ayrim salbiy ta’siridan ham qutulmoq lozim. Hozirgacha matbuot, radio va teleko‘rsatuvlarda shevachilik ta’siri seziladi.

Nutq madaniyati, nutqning to‘g‘riliği grammatika bilan uzviy bog‘langan. Grammatik me’yorlarni yaxshi bilish fikrni yuqori saviyada shakllantirishga yordam beradi. Nutqda grammatik shakllarning ma’no va tuzilishiga befarq qarash, vaziyatga mos tushmaydigan so‘zlarni sintagmatik munosabatga kiritish, gaplarni o‘rinsiz takrorlash aytidayotgan fikrni xiralashtiradi. To‘g‘ri nutqqa qo‘yiladigan talablardan biri uning grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilishdir. Shuning uchun to‘g‘ri nutq tuzishda leksik vositalar bilan bir qatorda grammatik ko‘rsatgichlarga ham etarli e’tibor qilish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, qaratqich kelishigi qo‘sishchasi -ning shaklini belgili va belgisiz qo’llash bilan bog‘liq

muammolar bor. qaratqich kelishigi qo'shimchasini tushirib qoldirganda, gapning ma'nosи, mazmuniga zarar etmasa, nutqqa ixchamlik, engillik beradi: Sharq yulduzi, xalq ijodi, til oldi, til orqa va h.k. Ba'zi hollarda qaratqich kelishigi qo'shimchasing tushirib qoldirilishi, axborotni aloqa jarayonini og'irlashtiradi, o'quvchi fikrnini chalg'itadi: Askar otasi deb yozganda, matnni o'qib chiqmasdan turib, gap kim haqida borayotganligini bilib bo'lmaydi: askarning otasi haqidami yoki askar birovning otasimi? Demak, to'g'ri nutq tuzishda har bir grammatik shaklning o'ziga xos belgisi va mazmuni hisobga olinadi.

Taniqli so'z san'atkori A.Qahhor o'zining "San'atkor" hikoyasida ham qaratqich va tushum kelishiklarini farqlamay ishlata diganlar uchrashini qattiq tanqid ostiga olgan edi: Pojarno'y "gugurtni erga tashlamang", - dedi. Rejissyorimiz esa "gugurtning erga tashlamang", dedi. qanday chiroylik!

To'g'ri nutq tuzishda sintaktik me'yorlarga ahamiyat berish: gapda mantiqiy bog'lanishlarga, jumlalarini ortiqcha cho'zib yubormaslikka ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga diqqat qilish ham talab etiladi.

Xulosa shuki, tildagi leksik, frazeologik va grammatik vositalardan o'rini va maqsadga muvofiq tarzda foydalanib to'g'ri nutq tuzish har bir madaniyatli kishining, ayniqsa notiqning muqaddas burchidir.

Nutqning aniqligi.

Aniqlik – bu aytidayotgan so'z yoki iboraning o'zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik madaniy nutqning asosiy beligilaridan biri bo'lib, nutqiy to'g'rilik bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqiy to'g'rilik bo'yicha yuqorida bayon qilingan barcha fikrlar nutq aniqligiga ham aloqador. Nutq aniqligi lug'aviy va grammatik vositalarning to'g'ri aytilishi va yozilishi orqali ro'yobga chiqadi. Nutqiy aniqlik deyilganda, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning aloqa jarayonidagi atamasi bo'lgan materiali o'rtasidagi mutanosiblik tushuniladi. YAxshi nutqning kommunikativ sifati bo'lgan aniqlikn "nutq-voqelik", "nutq-tafakkur" munosabati asosida belgilash mumkin.

Nutq aniq bo'lishi uchun, eng avvalo, so'zlar o'zi ifodalab kelgan denotati ma'nosini to'la aks ettirishi kerak. Agar so'zning denotati haqida to'g'ri ma'no yoki tasavvur bo'lmasa, bunday nutq aniq bo'lmaydi. Xuddi shu o'rinda to'g'ri nutq va aniq nutq o'zaro farqlanadi. To'g'ri nutq bu "nutq-til" munosabati asosida qurilib, asosan, lingvistik faktlarga suyansa aniq nutq "nutq – borliq – voqelik" munosabati asosiga qurilgan bo'lib, haqiqatni fahmlash va bilishga qaratilgan bo'ladi. Tafakkur qilish, bilish nutq shaklida ro'yobga chiqadi. Shu sababli aytidayotgan fikr tinglovchilar tomonidan qabul qilinsa, tushunilsa bunday nutq aniq bo'lib o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Shuning uchun so'zlovchi nima yoki kim haqida gapi rayotganligini har tomonlama chuqur tushungan bo'lishi kerak. Aks holda nutq aniq bo'lmaydi. Fikr tinglovchiga to'liq borib etmaydi.

Fikriy noaniqliklar quyidagi hollarda uchraydi.

1. So'z ma'nosiga etarli e'tibor bermaslik natijasida. Masalan: *Elliginchi yillarga kelib turmush ham, xalq maorifi ham o'z izmiga tushib ketdi*. Bu matnda izmiga so'zi o'mida iziga so'zini qo'llash kerak edi.

2. Paronimlar ma'nosini bilmaslik natijasida: *U singlisini judo sevar edi*. Judo emas juda. "Sutxo'rning o'limi" asarini o'qidi emas, "Sudxo'rning o'limi" asarini o'qidi kabi.

3. Mantiqiy jihatdan voqelikka zid bo'lgan tushuncha ifodalovchi so'zlarni yonma-yon ishlatish natijasida: *Pudratchi yil bo'yi g'o'zasiga ishlov berdi*. G'o'zaga yil bo'yi ishlov berilmaydi.

4. Nutqda biror so‘zni o‘z o‘rniga qo‘yib gap tuzolmaslik hamda so‘z tartibining buzib ishlatalishi ham jumlaning ma’nosiga putur etkazadi. Masalan: *Yaqindagina nashriyotdan chiqqan adibimizning yangi asarlar to‘plami keng jamoatchilikka manzur bo‘ldi*. (Yaqinda nashriyotdan adib chiqqanmi yoki kitob chiqqanmi?). *Ariq bo‘yidagi tut daraxtiga bog‘langan raisning oti kishnadi*. (Tut daraxtiga rais bog‘langanmi yoki ot?) Yuqoridaq gaplarda adibimizning, raisning so‘zleri birinchi o‘ringa chiqarilsa, nutq tushunarli bo‘lar edi.

5. So‘zning noo‘rin tanlanishi natijasida: Rejissyor bir qator umidli sahna ustalarni kashf etdi. Sahna ustalari kashf etilmaydi. Balki tanlanadi yoki tarbiyalanadi.

6. Bir sinonimik qatorni tashkil qilgan so‘zlarning barchasi ham boshqa so‘zlar bilan sintagmatik munosabat tashkil qilolmaydi. Masalan, ulug‘, buyuk, katta sinonimik qatoridan buyuk so‘zi tog‘ so‘zi bilan ulkan so‘zi bilan sintagmatik munosabatga kirishmaydi. Bunday so‘zlarni zo‘rma-zo‘raki biriktirish nutqni buzadi: *Tog‘larning buyukligi ko‘rinardi uzoqdan* (Mirmuhsin “Qadrondalar”) Buyuklikni (Mavhum ma’noli otni) ko‘rinadi deyish noo‘rindir. Nutqiy aniqlik vazifaviy uslublar doirasida ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, kun, ayyom sinonimik qatoridan ayyom kitobiydir: Ulug‘ ayyom, bahor ayyomi kabi. Bunday qo‘llanishlarda kun so‘zini ishlatib bo‘lmaganidek, kechagi kun yaxshi o‘tdi, gapida kun so‘zni o‘rnida ayyom so‘zini ishlatib bo‘lmaydi. Yana chog‘ishtiring: ustoz, ustod so‘z variantlaridan ustod so‘zni o‘zining tantanavorligi bilan nutqda ajralib turadi va h.k.

Ilmiy uslubdagagi nutqning bosh mezoni terminlarning aniq bir ma’noga ega bo‘lishidir. Bu jihatdan qaraganda, tilshunoslik terminlari orasidagi har xillik salbiy hodisadir: fe’l darajalari – fe’l nisbatlari; bosh daraja – aniq daraja; taqlid so‘zlar – mimemalar kabi.

Nutqda ixchamlikka, aniqlikka intilish hayotiy zarurat hisoblanib, u, odatda, og‘zaki nutqda ko‘proq uchraydi. Yozma nutqda turli sarlavhalar xalq maqollari ixcham shaklda bo‘ladi. Tobutdan chiqqan tovush – Tobutdan tovush; Oltin vodiyan esgan shabadalar – Oltin vodiyan shabadalar; Do‘stimdan kelgan xat – Do‘stimdan xat; Onamga yozilgan xat – Onamga xat; Yaxshidan ot qolur, yomondan dod qolur – Yaxshidan ot - yomondan dod kabi. Bunday qo‘llanishlar tilning ixchamlikka intilish qonuniyatini o‘zida aks ettiradi, shu sababli ular adabiy nutq ehtiyoji hisoblanadi. Demak, nutq ixchamligi deganda, nutqda so‘zlarni kam miqdorda qo‘llagan holda uning mazmundorligini kuchaytirish tushuniladi.

Ko‘pso‘zlilik nutqning mazmuniga, chiroli bo‘lishiga xalaqit beradi. Jumlalarni qisqa va to‘g‘ri tuzish nutq aniqligini ta’minlaydi.

Nutqning aniqligi uning mantiqiyligi bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, aniq nutq mantiqli nutqni yuzaga keltiradi.

Nutqning mantiqiyligi. O‘zaro mantiqiy bog‘liqlik inson faoliyatining barcha sohalari qatori fikr almashish quroli bo‘lgan til va nutq hodisalariga ko‘proq taalluqlidir. Tildagi leksik, frazeologik va grammatik birliklar ham o‘zaro mantiqan bog‘liqdir. Yaxlit bir tizim (sistema)ga birlashib, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, leksik va grammatik shakllar aniq hamda maqsadga muvofiq ishlatilgan nutq mantiqiydir.

Mantiqiylik, eng avvalo, nutqning tafakkur bilan aloqasiga asoslanadi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq hech qachon mantiqiy bo‘lmaydi. Mantiqiy nutq nafaqat so‘zlarning ma’nosiga asoslanadi, balki ularning sintagmatik bog‘lanishi bilan ham yuzaga keladi.

Mantiqiy nutq tushunchasi keng qamrovlidir. U gap, abzas, butun bir asarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Nutqda mantiqiylikka erishish uchun matndagi fikrlar bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmasligi lozim. Nutq boshida aytilgan fikr uning oxirida yakunlangandagina mantiqiy nutq hosil bo‘ladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, mantiqiylilik, eng avvalo, so‘zlar ifodalagan tushunchaning denotatiga mos kelishi bilan belgilanadi. Denotatga, voqelikka mos kelmagan nutq mantiqsiz bo‘ladi: Ko‘z yoshin seli-la o‘stirardi don. (G‘ayratiy) Gapdagi don so‘zi o‘rnida ekin so‘zini ishlatish lozim. Yana chog‘ishtiring: *Men ana shu “kosiblar” orasidan tarbiyachilik kasbini tanlab oldim.* (“O‘qituvchilar gazetasi” 20.12.1986). Kosib va kasb so‘zları turli denotatlarni ifodalaydi.

Nutq mantig‘ining buzilishiga iboralarning tuzilishi va ma’nosiga e’tibor bermaslik ham sabab bo‘ladi: qalandarov jahli chiqib, Saidani kabinetiga chaqirib tuzladi.

Nutqda ayrim so‘zlarining tushirilib qoldirilishi uning mantig‘iga salbiy ta’sir qiladi: - *Yur, jo ‘rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik.* (O‘Usmonov) Portretga tushib bo‘lmaydi. Portret uchun rasmga tushish mumkin. *Qiz onasini samolyotdan kutib olishga chiqadi. U oq ko‘ylakda bo‘ladi.* (Kim oq ko‘ylakda bo‘ladi? Onasimi yoki qizi).

Nutqiy mantiq talabiga ko‘ra gapdagi so‘zlar orasida ham izchillik bo‘lishi talab qilinadi. Bu izchillikning yo‘qolishi bilan mantiqiylilik buziladi: *Yaqinroq kelganimizda “Xush kelibsizlar!” degan yozuv uzoqdan ko‘zga tashlanardi.* (“Mushtum” 10.87)

Orfografiya (to‘g‘ri yozuv) va orfoepiya (to‘g‘ri talaffuz) nutq mantiqiyligini ta’minalashga xizmat qiladi. “Korrektor daftari” dan olingan quyidagi misollarda ularning nechog‘lik ahamiyatli ekanligini yaqqol ko‘rish mumkin: *Savol uylantirib qo‘ydi. Ot o‘chirish komandasi. Tarig‘ o‘qituvchisi. Bu yerda tuturug‘ sotiladi. Xaridorga kulaylik* (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”) Nutq madaniyatining yuksalishida tinish belgilarining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Tinish belgilari yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, gap qismlarining o‘zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini aniq belgilashda muhim omil hisoblanadi.

Punktuatsiya bir tomondan yozuvchiga o‘z yozma nutqini to‘g‘ri va ta’sirchan bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o‘quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, tushuna olish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, ular yozma matndagi mazmunni oydinlashtiradi. Masalan: U gapga usta, ota, chiroyli gapirdi. (Ota undalma bo‘lib, gap o‘rtasida kelgan va ikki tomondan vergul bilan ajratilgan). Bunda so‘zlovchining nutqi otaga qaratilgan. Maqsad aytيلاتgan fikrga otaning diqqatini jalb qilish. U gapga usta, ota chiroyli gapirdi (ota so‘zi ikkinchi gapning egasi; vergul esa sodda gaplarni ajratish uchun qo‘llangan). Bunda aytيلاتgan nutq mazmuni tamoman o‘zgardi. Yana chog‘ishtiring: Pagonini yulib, elkasidan otdim. Bu gap tarkibidagi vergul olib tashlansa, uning mazmuni ham o‘zgaradi.

Ko‘rinadiki, yozma nutqda tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi mantiqli nutq tuzishda orfografiya singari ahamiyatlidir.

Voqelik va fikrni to‘g‘ri, qiyinchiliksiz anglash gapda so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash, sodda, qo‘shma va murakkab jumlalarni aniq tuzish orqali ro‘yobga chiqadi.

Nutqda barcha so‘zlar ham o‘zaro mantiqiy munosabatga kirishib so‘z birikmasi hosil qila olmaydi. Bunday so‘zлами zo‘rma-zo‘raki bog‘lab gap tuzish mantiqsizlikka olib keladi: *Saida xotin-qizlarga boy-feodallarning munosabatini tanqid qildi.* (“O‘qituvchilar gazetasi” 20.12.86) Bu gap Saida xotin-kizlarga boy-feodallarcha munosabatni tanqid qildi, deyilsa, to‘g‘ri bo‘lar edi.

Ayrim nutqiy parchalarda “atrofga tikildi” birikmasi ko‘p uchraydi. Bu nutq qurilishi xato. Chunki atrofga tikilib bo‘lmaydi, qarash mumkin. Tikilmoq so‘zida qat’iy bir yo‘nalish bor, atrof esa ko‘p yo‘nalishdir. Nutqda uyushiq bo‘laklarni qatorlashtirishdan oldin shu

bo‘lak boshqa bo‘laklar bilan mantiqan bog‘lana olishini o‘ylab ko‘rishga ham to‘g‘ri keladi: Adib katta badiiy asarlar, she’rlar yozdi, gapida she’rlar so‘zi o‘rinsiz qo‘llangan. Chunki she’rlar badiiy asarning bir turidir.

Fikran bir-birini taqozo etmaydigan so‘zlar o‘zaro qator qo‘yilib uyushiq bo‘lakli gaplar hosil qilish nutq mantig‘ini buzadi. Masalan: Yangi qurilayotgan korxonalar, binolar, uy-joylar, ko‘chalar ham ko‘kalamzor boqqa aylantirilmoqda. (I.Rahim) Bu gapda binolar va uy-joylar so‘zlarini bir qatorga qo‘yish kerak emas.

Mantiqli nutq tuzishning asosiy shartlaridan biri gapda so‘zlar tartibiga e’tibor berishdir. O‘zbek adabiy tilida gap qurilishining sintaktik me’yori ega-to‘ldiruvchi-hol-kesim shaklidadir. Nutqda bu gap bo‘laklarining o‘rnini biror bir sababsiz o‘zgartib qo‘llash fikr mazmunii to‘g‘ri anglashga xalaqit beradi. quyidagi misollarga diqqat qiling: Astoydil jamoa xo‘jaligi a’zolari mehnat qildilar. Texnika-chinakam dehqonning do‘sti. Ayrim hollarda gapda so‘zlar tartibini o‘zgartirish ma’noni tamoman buzadi: *Doktor kasal kutdi – Kasal doktor kutdi. Ishlayotgan chaqqon qiz – Chaqqon ishlayotgan qiz* kabi.

Nutqda qo‘shma gaplar tarkibidagi ayrim sodda gaplarning o‘rnini o‘zgartirib qo‘llash mantiqsizlikni yuzaga keltiradi: Muzlar erib, havo isidi. Bu gap mantiqan noto‘g‘ri. Chunki avval havo isiydi, so‘ng muz eriydi. Bunday nuqsonlarni qo‘shma gaplarning tarkibidagi sodda gaplar o‘rtasidagi mantiqiy aloqa uzilgan hollarida ham uchratish mumkin: Ilg‘or terimchilar har kuni 150-160 kilogramga etkazib terayotganlari holda, shirkat xo‘jaligida hozir ham butun kuch terimga safarbar qilingan emas. Bu gapda mantiqiy izchillik yo‘q.

Nutqiy matnning yuzaga kelishida yozma matndagi abzaslar muhim rol o‘ynaydi.

Abzas matnda tugal ma’no mazmunni ifodalab, bir xat boshidan ikkinchi xat boshigacha bo‘lgan oraliqdagi mantiqiy nutq birligidir. Har bir yangi abzas kitobxon diqqatini yangi fikrga , yangi tasvirga jalg qilish vazifasini bajaradi. Matnni tegishli abzaslarga ajrata bilmaslik nutqning mantiqli bo‘lishini susaytiradi. Fikrni tegishli abzaslarga bo‘lib berish ayniqsa ilmiy uslubdagagi nutq uchun muhimdir. Mantiqiylik turli vazifaviy uslublarda o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Jumladan, ilmiy uslubdagagi nutq yaxlit bir tuzilishni, butunlikni tashkil qiladi. Bunda isbot qilinishi lozim bo‘lgan narsa yoki hodisa kirish, ya’ni masalaning qo‘yilishi, asosiy qism, ya’ni isbot hamda xulosadan iborat bo‘lib, bir mantiqiy fikr butunligi asosida yuzaga keladi.

Badiiy uslubdagagi nutq mantiqiyligi biroz boshqacha xarakterga ega. Badiiy asarlarda har bir voqeа yoki hodisa tasviri alohida mantiqiy bog‘lanishlarga ega bo‘ladi. Shunga qaramay, asar oxirida bir necha mantiqiy butunliklar birlashib bir murakkab mantiqiy tushunchani hosil qiladi.

Badiiy adabiyotda sifat o‘zgarishining yuz berishi, eng avvalo, tilda ixchamlik, mantiqiylik, raxonlikka erishish bilan o‘lchanadi. Buyuk so‘z san’atkorlari har doim o‘z asarlari sifatini yaxshilash uchun uning tili ustida qayta-qayta ishlaganlar. Chunki topib aytilgan birgina so‘z tasvirini yorqinlashtirib, unga jon kiritadi. Bu haqda A. Qodiriy shunday yozadi: “So‘z so‘yashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak... fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so‘z va jumlalarga yozuvda aslo o‘rin berilmasligi lozim”. Yozuvchi o‘zining bu fikriga umr bo‘yi qat’iy amal qilgan. Masalan, “O‘tgan kunlar” romanining birinchi nashrida Otabek “Og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam oq yuzlik, kelishgan qora ko‘zlik, o‘sinq qora qoshlik va endigina murti chiqa boshlagan bir yigit edi”, - deb ta’riflanadi. Ikkinchi nashrida esa muallif bosh qahramon qiyofasini ozgina bo‘lsa ham, “buzib turuvchi” so‘zlarni chiqarib tashlaydi. Darhaqiqat, “kelishgan ko‘zga” o‘sinq qora qoshini qo‘yish

mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki bu iboraning zamirida qandaydir bir salbiy ma’no ham yotadi. Shuning uchun ham “kelishgan qora ko‘zga mutanosib qora qosh”ni tanlaydi. “Ko‘rkam oq yuzli” birikmasi, “ko‘rkam va oq” bog‘lanmasi bilan almashtiriladi. Agar birinchi nashrda “ko‘rkam” so‘zi “oq” qa nisbatan qo‘llanib, ma’nosи zaiflashib qolganday tuyulsa, keyingi nashrda “va” bog‘lovchisini qo‘llash bilan har ikkala so‘z yuzga nisbat berilib, qahramon tashqi qiyofasining yana bir qirrasini ochadi. Shuningdek, “Murti chiga boshlagan” birikmasi o‘rnida “endigina murti sabz urgan” birikmasini qo‘llab obraz qiyofasiga ko‘tarinkilik baxsh etadi.

Bunday misollarni A.Qahhor, Oybek, S. Ahmad va boshqa yozuvchilar asarlarida ham ko‘rish mumkin. Badiiy adabiyotda, umuman, istalgan bir nutqda mantiqsizlik oqibatlarini yozuvchi A. Qahhor “Adabiyot muallimi” hikoyasidagi bosh qahramon Boqijon Baqoevning nutqi orqali qattiq tanqid ostiga olgan edi: “Chexovmi? Himm... Burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda, eng avvalo, uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya’ni... Himm. Mukarram, tovuqqa moyak qo‘ydingmi? qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi... Tavba, tovuqdan axmoq jonivor yo‘q - moyak qo‘ysang tug‘adi! Nima uchun moyak qo‘ysang tug‘adi? Xo‘roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o‘qiysizlarmi?” Keltirilgan parchadagi nutqiy qarama-qarshilik mantiqsizlikni paydo qilgan. Bunday mantiqsiz nutq “nafis adabiyot muallimi”ning obrazini kitobxon ko‘zi o‘ngida yaqqol gavdalantiruvchi uslubiy vazifa ham bajargan. Umuman olganda, mantiqan to‘g‘ri tuzilgan nutq ommabop va ta’sirchan, sermazmun va ifodali bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Nutqning tozaligi.

Nutqning tozaligi masalasi yirik so‘z san’atkorlari, olimlar va notiqlarni uzoq davrlardan buyon qiziqtirib kelmoqda.

Toza nutq - bu tilning barcha yaruslari bo‘yicha adabiy til me’yorlariga mos va xos holda fikr ifodalashdir.

Madaniy nutqning tozaligi fonetik -orfoepik jihatdan so‘z va qo‘srimchalarning to‘g‘ri talaffuzi bilan belgilanadi.

Leksik - grammatik tomondan esa shevaga xos so‘z va shakllarning ishlatilmasligi, vulgarizm, jargon, argo va turli xil “bekorchi” so‘zlarining qo‘llanmasligi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, nutqning tozaligini tilning sofligini buzuvchi nome’yoriy faktorlardan biri so‘z va qo‘srimchalarning mahalliylashtirib talaffuz qilishdir. Masalan: Iltipot (iltifot), parzan (farzand), apandi (afandi), insop (insof), keloppan (kelyapman), bordiz (bordingiz), qo‘sniyiz (qo‘sningiz) kabi. Ayniqsa talaffuzda “h” va “x” tovushlarining to‘g‘ri aytilmasligi fikr ma’nosini tamoman o‘zgartirib yuboradi. Shoir H.Olimjonning jizibador:

Va ko‘rdikim ajoyib bir hol,

Zaynab turar qayg‘uli va lol.

Misradagi “hol” so‘zi “xol” deb talaffuz qilsa, Zaynabning ahvoli emas, uning yuzidagi xoli to‘g‘risida gap borayotgan bo‘lib chiqadi va ma’no buziladi.

O‘zbek tili ko‘p shevalidir. Har bir shevaga xos lug‘aviy va grammatik shakllar mavjud bo‘lib, ular adabiy til me’yori doirasiga kirmaydi. Faqat so‘zlashuv va badiiy nutq uslublarida ishlatiladi.

Shevaviy so‘z va grammatick shakllar badiiy adabiyotda tasviriy vosita-mahalliy kolorit yaratish, qahramonlar nutqini individuallash vazifasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda adabiy tilning shevalar hisobidan boyib borishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo shevaga xos unsurlarni ommaviy nutqlarda, o‘quv va o‘qitish jarayonida, radio va televizor eshittirishlarida qo‘llash man etiladi. Bunga asosiy sabab sheva so‘zlarining ma’nosini ma’lum territoriya vakillarigagina tushunarli bo‘lib, ommafahm emasligidir. Chog‘ishtiring: buvi bir shevada ona, boshqasida onasining onasi ma’nosida.

Dodlama, dodlama dod sasi galdi,
Qarshining cho‘lidan yor sasi galdi
O‘lkasidan o‘lkaya el kabi yursam,
Gunlarning birida yor yuzin go‘rsam.

Yuqoridagi parcha “qullar” romaning bosh qahramoni Rahimod – Nekqadam nutqidan olingan bo‘lib, uning o‘zbek tili o‘g‘uz shevasi vakili ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bu o‘rinda dialektizmlar o‘zini oqlaydi. Ammo keyingi davrlarda e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik, soxta gapirishga urinish oqibatida ayrim yoshlarimiz nutqi g‘ayritabiylashib bormoqda. Masalan, Toshkentga o‘qishga yoki ishga kelgan ba’zi yoshlarning Toshkent shevasida gapirishlariga duch kelamiz:

- Toshkentda o‘qiysizmi? - so‘raymiz poytaxtlik emasligi shundoqqina bilinib turgan yigitchadan.

- Ha, o‘qivopman, - deydi yigitcha gap bergisi kelmay.
- Nechanchi kursda?
- Birinchi kursda-de!..

Sho‘rlik yigit qanchalik chirannmasin, gaplari soxta, notabiiy chiqaveradi, deb to‘g‘ri qayd qiladi tadqiqotchi olim Siddiq Mo‘min “So‘zlashish san’ati” kitobida. Nutq tozaligiga putur etkazuvchi lug‘aviy birlıklardan biri jargon va argolar tildagi so‘zlarining tovush tomonini o‘zgartirish, buzib qo‘llash, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish va tildagi mavjud so‘zlarga maxsus ma’no berish yo‘li bilan hosil qilinadi. Bunday so‘zlar ruhoniylar, savdogarlar, o‘g‘ri va firibgarlar nutqiga xos bo‘lib, maxfiylici bilan xarakterlanadi. Badiiy adabiyotda bu tiplarning obrazini yaratishda ayrim jargon va argolardan foydalilanadi. Jargon va argolar tilni bulg‘aydi. Madaniy nutqning tozaligi va sofligiga putur etkazadi.

Keyingi paytlarda talabalar hamda ayrim yoshlar nutqida uchrayotgan “dum”, “hachcha”, “mejdunarodno‘y”, “lakomativ”, “nishtyak” kabi ma’nosini faqat ularning o‘zlarigagina tushunarli so‘zlarni ijobjiy baholab bo‘lmaydi. Nutq tozaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan til birlıklaridan biri vulgarizmlar hisoblanadi. Vulgarizmlardan badiiy adabiyotda ayrim qahramonlarning dag‘alligini, madaniyatsizligini ko‘rsatish uchun foydalilanadi. Ammo bunday so‘zlar madaniy kishilar nutqida ishlatalmaydi. Nutqiy tozalikka rioya qilmaslik uning ta’sir kuchini pasaytiradi:

- Hozirgi yoshlarning beti yo‘q,- dedi o‘rtta yoshlardagi bir kishi avtobusda o‘tirib ketayotgan o‘smirga ishora qilib.

- Tog‘angga joy bersang, o‘lasanmi? Holbuki, shu gap “Uka, tog‘angizga joy bersangiz yaxshi bo‘lar edi” shaklida, iltimos ohangida aytilsa, uning ta’sir kuchi nihoyatda ortar edi.

Nutqda hali ona tilimizga singib ketmagan chet tillardan o‘rinsiz olib ishlatiladigan ajnabiy (varvarizm) so‘z va iboralar ham madaniy nutq tozaligini buzadi. Varvarizmlardan, odatda, o‘zga erga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, ba’zan chet el madaniyati oldida sajda

qiluvchi personajlarning nutqini individuallashda foydalanish mumkin. Ammo ayrim notiqlar o‘z nutqlariga e’tibor bermay, pala-partishlik bilan hali tilimizga kirib, o‘zlashmagan “zayavleniya yozdi”, “boshliq zaynit”, “organizovat qil”, “dokument topshirdi”, “ekzamen sessiyasi boshlandi” kabi qoliplarda gapiraveradilar. Bu hol tilimizning hozirgi taraqqiyotiga salbiy ta’sir qilib, uni buzadi. Xalq o‘rtasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlariga to‘siq bo‘ladi. H. Ahmedova “Buvi” hikoyasida ayrim varvarizm (ajnabiy) so‘zlarning noo‘rin va nomaqbul shaklda ishlatilayotganligini qattiq tanqid qiladi: ”Keksaygandan keyin odam arazchi, injiq bo‘lib qolar ekan. Bolalari dasturxon ustidan omisiz turib ketishsa, kampirning achchig‘i chiqadi va og‘ir “uf” tortadi. Bu uyda hech kimning ismi to‘liq aytilmaydi. Santa, Rajda, Maman, Kampirsho, Baaba, Babul kabi nomlar bilan chaqirishaveradi. Lekin har gal nabiralari “Baaba” deb chaqirganda, beixtiyor lablari titrab, achchiqlanaveradi.

- Ena degil, uyingga bug‘doy to‘lgur yoki achade, katta oyi de, babang nimasi, nima, men senga kuchukmanmi?... Xudo ko‘rsatmasin, vaqt kelib, omonatimni topshirguday bo‘lsam, bularning bittasi “voy mamul”, bittasi “voy babul”, deb ovoz chiqarisharmikan?”

Xullas, nutqning tozaligi uchun kurash adabiy til madaniyati uchun kurashdir. Nutqning tozaligini asrash, sofligini avaylash, tilimiz boyligini ko‘z-ko‘z qilish davri mustaqillik bergen ne’matlardan biri ekanligini doimo esda saqlash lozim.

Adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Ғ. Стилистик нормалар ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, № 6, 51-б.
2. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
3. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида Т., 1972.
4. Нутқ маданиятига оид масалалар. (Мақолалар тўплами) Т., 1973.
5. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
6. Шомақсудов А., Расулов И., Кўнгурор П., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., 1983.
7. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Ўқув кўлланма. Тошкент, 2006, 114 б.
8. Кўнгурор П., Каримов С. А., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. 1-2-қисм Самарқанд, 1986.
9. Кўнгурор П., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., 1992.
10. Қўчқортоев И. Адабий тилнинг стилистик табақаланиши ва нутқ маданияти // Нутқ маданиятига оид масалалар. – Тошкент, 1973, 110-б.

Adabiyotlar:

1. Каримов И.А. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида”. Т., 2011.
2. Каримов И.А. Асарлар тўплами.1-17 жиллар. - Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996-2009

3. Каримов И.А. Асарлар тўплами.1-19 жиллар. - Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996-2011.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият. 2008.
5. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Т.: Шарқ, 1999, 148 б.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998 й.
7. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., 1997.
8. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь
9. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь
10. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тарроқиётимизнинг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь.
11. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. - Т.: Ўзбекистон. 1998.
12. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. - Т.: Ўзбекистон. 1996.
13. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Туркистан, 2002 йил 31 август.
14. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, “Маънавият”, 2008.
15. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
16. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
17. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
18. Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва стилистика асослари. Программа Т., 1987.
19. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳакида Т., 1972.
20. Иномхўжаев С. Ўтмиш Шарқ нотиқлиги Т., 1972.
21. Маҳмудов Н., Шерматов А. Ўзбек нутқи маданияти асослари. Программа Т., 1987.
22. Нутқ маданиятига оид масалалар. (Маволалар тўплами) Т., 1973.
23. Сиддиқ Мўмин. Сўзлашиш санъати. Фаргона, 1997.
24. Тожиев Ё., Ҳасanova Н., Тожиматов X. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
25. Умурқулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.

26. Шомақсудов А., Расулов И., Кўнгурев Р., Рустамов X. Ўзбек тили стилистикаси. Т., 1983.
27. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар Т., 1996.
28. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Программа. Т., 1985.
29. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Ўқув кўлланма. Т., 1985.
30. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
31. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Монография. Т., 1992.
32. Кўнгурев Р., Каримов С. А., Курбонов Т. Нутқ маданияти асослари. 1-2-қисм Самарқанд, 1986.
33. Кўнгурев Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., 1992.
34. “Ўзбек тили ва адабиёти” журналининг “Нутқ маданияти” рубрикасида нашр қилинган мақолалар.
35. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
36. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
37. Основы культуры речи. М., 1984.
38. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
39. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

1-mashg‘ulot: Nutq va uning shakllari (2 soat)

1. Matnni tahlil eting.

Matn

Hamroyev kechki ovqatdan keyin birpas cho‘zilmoqchi bo‘lgan edi, to‘g‘ri kelmadi: narigi uy to‘polon – bolalar bir-bi-rini yostiqbilan urib o‘ynayotibdi; soat sakkiz yarimda majlisga borish ham kerak. Kecha Hamdam ota-onalar majlisi bo‘lishi to‘g‘risida maktabidan qog‘oz olib kelgan.

Hamroev hech qachon majlisga borgan emas, ammo fursati bo‘lganda bir tayyorlanib bormoqchi va bola tarbiyalashni bil-magan yoki bu ishga sovuq qaragan o‘qituvchilarни uyaltirmoqchi edi. Bu niyat uning xotini Sobiraxonga juda ma’qul bo‘ldi.

– *Gapiring, izza qiling! Bolalar mакtabda o‘qib qayta bevosh bo‘lib ketyapti. Siz uyda yo‘q vaqlarda Hamdamingizning dastidan menga kun yo‘q. Ilgarilar urib yengar edim, endi uray desam, qochib tomga chiqib ketadi, tomda turib menga tilini ko‘rsatadi (Abdulla Qahhor “Ayb kimda” hikoyasidan parcha)*

2. Nazorat savollari

1. Nutq nima?
2. Nutqning shakllarini sharhlang.
3. Og‘zaki nutqni ta’riflang.
4. Yozma nutqni ta’riflang

3. Testlar:

1. Talaffuzning uch usuli qaysilar?

- a) betaraf, kitobiy.
- b) betaraf, so‘zlashuv.
- c) betaraf, badiiy, so‘zlashuv.
- d) betaraf, kitobiy, so‘zlashuv.

2. Nutqda intonatsiya nima uchun kerak?

- a) jonli va ifodali qilishga yordam beradi.
- b) jonli va chiroylı qilishga yordam beradi.
- c) to‘g‘ri javob yo‘q.
- d) barcha javob to‘g‘ri.

3. Nutq tempini o‘zgartirish nimaga bog‘liq?

- a) so‘zlovchining nutqiga.
- b) so‘zlovchining hissiy holatiga.
- c) so‘zlovchining holatiga.
- d) tinglovchining holatiga.

4. Serzavq so‘zida urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

- a) ser.

- b) zavq.
- c) urg‘u olmaydi.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

5. Imlo qoidalari qachon qabul qilingan?

- a) 1994-yil.
- b) 1995-yil.
- c) 1996-yil.
- d) 1997-yil.

Adabiyotlar:

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Т., 1981.
2. Ахмедов А. Нотиқлик санъати. Т., 1967.
3. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
4. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
5. Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва стилистика асослари. Программа. Т., 1987.
6. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
7. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
8. Основы культуры речи. М., 1984.

2-mashg‘ulot:

Notiqlik tarixi (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matndagi shaxs ma’naviyati va madaniyatining namoyon bo‘lish xususiyatlartini aniqlang.

Matn.

To‘qqizinchi sinf a’lochilaridan, temir-tersakni hammadan ko‘p yig‘ib, oti radiodan aytilgan va maktab ma’muriyatidan rahmatlar eshitgan Zuhraxon degan qiz yo‘qolib qoldi.

O’sha kasofat shanba kuni maktabdan qaytishda Zuhra kitob-daftarlarini opasi Fotimaga berib, lola tergani qirga chiqqan ekan, qaytib kelmabdi. Uning ota-onasi avvaliga qarg‘ab, keyin yig‘lab butun lolazorni, butun qishloqni taka-taka qildi. Maktab ma’muriyati bulardan ham ko‘proq jon kuydirdi – jamoa ijroqo‘miga aytib butun qishloqni oyoqqa turg‘izdi, tumanga ma’lum qildi, chunki sinfda a’lochi qiz to‘rtta bo‘lsa –Zuhra uning yigirma besh protsentini tashkil qilar edi.

Chol-kampir boshqa xunuk xayollarga bormaslik uchun bir-birini ovutdi: Zuhra qoqvosh, ta’bi nozik, dimog‘dor qiz bo‘lib, maktabdoshlariga qo‘silmas edi, shahardan lola tergani chiqqan qizlardan birontasi ta’biga yoqib, o’sha bilan o‘ynab ketgan bo‘lsa ajab emas. (“Biron yigit bilan qochib ketmadimikan”, degani til bormas edi.) Ko‘ngliga yo‘l berish mumkin bo‘lgan va birdan-bir xayriyatli guman shu bo‘lib qoldi. Haqiqatan, shanba va yakshanba kunlari shaharlik yoshlar bitta danak topsa shu lolazorga kelib chaqib yer edi. Bularning ichida chiroyligi bor, sho‘xi bor, boyvachcha tabiatli bor, bevoshi bor... Buning ustiga Zuhra nihoyatda ko‘zga yaqin, bir qaragan kishi, ko‘zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xonatlas ko‘ylak

kiyib sochini "laylak uya" qilganida maqtoviga "chiroyli" degan so‘z goh kamlik, goh eskilik qilib qolar edi.

Zuhra o‘ziga munosib, ya’ni yaxshi o‘qiydigan suxsurdakkina biron yigit bilan ketgan, degan umidda chol bilan kampir bir oz taskin topgan bo‘ldiyu, lekin Fotima baloga qoldi: "Zuhra lola tergani boraman, desa, bitta o‘zini yuboraverdingmi? Birga borsang oyog‘ingga kuydirgi chiqarmidi, muncha noshud-notavon, muncha ham anqov-lakalov bo‘lmasang!.." (Nurli cho‘qqilar (hikoya). Abdulla Qahhor)

2. Nazorat savollari.

1. Shaxs ma’naviyati nima?
2. Muloqot madaniyati nima?
3. Ma’naviyat qanday namoyon bo‘ladi?
4. Nutqning kishi xulqi bilan aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?

Adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
2. Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва стилистика асослари. Программа Т., 1987.
3. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида Т., 1972.
4. Маҳмудов Н., Шерматов А. Ўзбек нутқи маданияти асослари. Программа Т., 1987.
5. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.
6. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
7. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
8. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
9. Основы культуры речи. М., 1984.

3-mashg‘ulot:

Adabiy til me’yori va nutq madaniyati (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Yozma matndagi fikrlar izchilligi va ketma-ketligini tahlil eting.

Matn.

San’atkor, izvoshchini hayron qoldirib, o‘zidan-o‘zi g‘o‘ldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo‘ygan ekan, san’atkorning tomog‘idan hech narsa o‘tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: «Ashulani mexayistik aytar emishman! Tovushim yomon bo‘lsa nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilg‘ulari kelipti... Amali traktorchi... Obbo!..»

- O‘qishga boardingizmi? – dedi xizmatchiga, qovog‘ini solib.
- Bordim... – Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o‘qir edi.
- Xizmatchisi savod maktabida o‘qiyotgan bir kishini traktorchi savodsiz, desa alam qilmaydimi? – dedi san’atkor o‘zicha bo‘g‘ilib, – «labingdan bo‘lsa olsam, e, shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, «bo‘lsa» emas, «bo‘sə» emish! O‘zi bilmaydiyu, menga o‘rgatganiga kuyaman! Senga o‘xshagan savodsizlar «bo‘sə, bo‘masa» deydi. Artist kulturniy odam gapni adabiy qilib aytadi – «bo‘lsa, bo‘lmasa» deydi. Pojarni «gugurtni yerga tashlamang» dedi, rejissyorimiz esa «gugurting yerga

tashamang» dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nimauchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejissyorimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida «ta'bir joyiz ko'rilsa» deb turadi. Bu traktorchi menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta «ta'bir joyiz ko'rilsa» demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.

– «J»ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

– Endi «J»ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi.

Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangiz-chi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joyiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

– Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.

– Nima edi?

– «J»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar.

Qanaqa yoziladi?

– Kichigini yozib qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib ko'rpagina kirdi. Xizmatchi chiroqni o'chirib chikdi. San'atkor ko'zini yundi, ko'ziga g'ira-shira qorong'i zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktorchining kallasi, u iljayar edi.

– Afting qursin!- dedi san'atkor va narigi yonboshiga ag'darildi.

Xayal o'tmay uyquga ketib, xurraq otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: «Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...» (Abdulla Qahhor. "San'atkor" hikoyasidan)

2. Nazorat savollari.

1. Yozma matn nima?
2. Fikr izchilligi nima?
3. Fikrning ketma-ketligi nima?
4. Fikrning bog'liqligi?

3. Testlar.

1. Qaysi gapda qaraqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- a) maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini.
- b) mehmonlarning yoshi ulug'i gapirdi.
- c) institut kutubxonasi birinchi qavatda.
- d) palovning masalig'i tayyorlab qo'yildi.

2. Quyidagi gaplarning qaysi biri uslub jihatidan noto'g'ri shakllangan?

- a) ko'zing og'risa qo'lingni tiy, tishing og'risa tilingni.
- b) Sotiboldining xotini og'rib qoldi.
- c) spid kasalligi bilan kasallanganlar soni ortib bormoqda.
- d) jarohati og'irligidan kasal tinmay ingrar edi.

3. Quyidagi gaplarning qaysi birida bir son noaniklikni ifodalagan?

- a) birdan mehmon kelib qolsa bo‘ladimi?
- b) endi sizlar uchun bir juft qo‘shiq eshittiramiz.
- c) eshonning bir talay qora mollari, qo‘ylari bor edi.
- d) maktab hovlisida sizni bir kishi chaqirdi.

4. Quyidagi gaplarda bir so‘zning qaysi ma’nosi ifodalangan?

Ikkovining niyati bir.

- a) miqdor ma’nosi.
- b) noaniqlik ma’nosi.
- c) teng ma’nosi.
- d) o‘xhash ma’nosi.

5. Quyidagi rang bildirgan so‘zlardan badiiy uslubga tegishlisini belgilang?

- a) ko‘k.
- b) zangor.
- c) moviy.
- d) zangori.

Adabiyotlar:

1. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
2. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
3. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
4. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳакида Т., 1972.
5. Иномхўжаев С. Ўтмиш Шарқ нотиқлиги Т., 1972.
6. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
7. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
8. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
9. Основы культуры речи. М., 1984.

4-mashg‘ulot:

Uslubiy va punktuatsion me’yor (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni o‘zgalar fikrini anglash bo‘yicha tahlil eting.

Matn.

Martning oxirgi kunlari. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g‘aflatda yotgan o‘t-o‘lanni, qurt-qumursqani uyg‘otgan, avvalgidan ham yorug‘roq, avvalgidan ham issiqroq shu’la sochayotganday tuyuladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o‘ziga juda ham katta ko‘k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko‘chaga qarab o‘tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo‘lsa-yu, oyoq-qi‘li butun odam ko‘chaga chiqolmay, derazadan mo‘ralab o‘tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo‘lgani bilan tovushi juda yo‘g‘on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog‘lig‘ini, kayfiyatini so‘radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Alievadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi.

Mastura Alieva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og‘ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko‘p kishi kirib ko‘rgan ekan. Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

– Shu sho‘rlik ayolni bir kirib ko‘raylik! Uch kunligi bormi, yo‘qmi... Sob bo‘lgan deyishadi...

– Ha, ancha og‘ir,— dedi hamshira xo‘rsinib,— o‘n yil dard tortish osonmi!

Poygaxdaggi karavotda kitob o‘qib yotgan Hoji aka degan xasta yo‘g‘on gavdasiga nomunosisib chaqqonlik bilan boshini ko‘tarib, ko‘zidan oynagini oldi.

– O‘n yil? O‘n yildan beri kasal ekanmi?

– Ha, o‘n yil bo‘libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo‘lar-bo‘lmas shu dardga yo‘liqqan ekan. Tomog‘idan hech narsa o‘tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo‘ylgan... Ba’zan o‘zi quyadi, ba’zan eri.

Hoji akaning ko‘zлari o‘ynab ketdi.

– Eri? Eri bormi?

– Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

– O‘n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi.

– Shuni aying,— dedi hamshira.— Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo‘ydirib oldi (Abdulla Qahhor “Ming bir jon” hikoyasidan).

2. Nazorat savollari.

1. Fikr nima?

2. O‘zgalar fikri qanday anglanadi?

3. So‘zlovchi fikrini anglash shartlari nimalar?

4. Tinglash madaniyati nima?

3. Testlar.

1. Quyidagi gapda nozik so‘zining qaysi ma’nosi ifodalangan?

Bu juda nozik ish, ehtiyyotkorlik lozim.

a) mo‘rt.

b) qaltis.

c) ingichka.

d) xipcha.

2. Badiiy uslubga xos gapni belgilangan?

a) Salom, o‘g‘lim! O‘qishlaring yaxshi ketyaptimi?

b) Erta tong, Quyosh hali o‘zining zarin nurlarini sochganicha yo‘q.

c) Seni kim aytadi o‘quvchi deb? Ahvolingga bir qara?!

d) Kecha Hindiston Bosh vaziri rasmiy tashrif bilan Respublikamizga keldi.

3. Quyidagi gapda yo‘l so‘zining qaysi ma’nosi ifodalangan?

Bu masala qaysi yo‘l bilan yechiladi?

a) tadbir.

b) safar.

c) yo‘nalish.

d) usul.

4. Quyidagi gap qaysi usulubga xos?

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdan boshlab amalga kiritilsin?

- a) so'zlashuv uslubiga.
- b) ilmiy uslubga.
- c) rasmiy uslubga.
- d) publitsistik uslubga.

5. Javoblardagi uslubiy jihatdan betaraf hisoblangan so'zni toping?

- a) go'zal.
- b) chiroylı.
- c) ko'rkan.
- d) suluv.

Adabiyotlar:

1. Иномхўжаев С. Ўтмиш Шарқ нотиқлиги Т., 1972.
2. Сиддик Мўмин. Сўзлашиш санъати. Фарғона, 1997.
3. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.
4. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
5. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
6. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
7. Основы культуры речи. М., 1984.

5-mashg'ulot:

Matndagi mantiqiy xatoliklar ustida ishslash (2 soat)

Mavzu bo'yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi.

— Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko'rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi.

Xayal o'tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o'ninchiligi palataga tomon yo'l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zları yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

— Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akramjon, kursi qo'yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teriyu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi, oyog'imi biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim

pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko‘zlarini ko‘rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit – Akramjon kursi qo‘yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o‘tirdik. Hoji aka yo‘g‘on gavdasi bilan Masturani to‘sib tikka turib qoldi. Yonimdag‘i kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qarasam... rangi bo‘z bo‘lib ketibdi! Uning qo‘rqqanini payqab, hamshira darrov yo‘l qildi:

– Ie, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! - dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqlarmikan, deb o‘ylagan edim, yo‘q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi... (Abdulla Qahhor “Ming bir jon” hikoyasidan).

2. Nazorat savollari.

1. Mantiqiy xato nima?
2. Mantiqiy xatolik qanday ro‘y beradi?
3. Mantiqiy xato qanday tuzatiladi?
4. Mantiqiy xatoga yo‘l qo‘ymaslik shartlari nimalar?

3. Testlar.

1. Sinonim sifatlar berilgan qatorni aniqlang?

- a) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya.
- b) chopqir, chapag‘on, metin.
- c) uyat, nomus, g‘urur, hayo.
- d) sezgir, ziyrak, hushyor, sergak.

2. Paronim so‘zlar berilgan qatorni aniqlang?

- a) ahil-ahl, asil-asl, katta-kichik.
- b) adabiy, mangu, adabiy-vaqtincha.
- c) achchiq-shirin, amir-amr, adil-adl.
- d) azim-azm, abzal-afzal, asir-asr.

3. So‘zlashuv uslubida qo‘llanadigan so‘zlar qatorini aniqlang?

- a) bashar, mozor, yaxshi, kasal.
- b) ado etmoq, behuda, yopiq.
- c) rostdan, bo‘ldi, mayli.
- d) voqeа, barvasta, chiroyli.

4. Tasviri yifoda berilgan qatorni aniqlang?

- a) shu kuni darsdan keyin sinf majlisi bo‘ldi.
- b) bu ish og‘ir, nihoyatda og‘ir edi.
- c) kerakli toshning og‘irligi yo‘q.
- d) mo‘yqalam sohibalari ko‘rgazmada o‘z ishlari bilan qatnashdilar.

5. Olmoshlarning qaysi turida kelishik qo‘shimchalaridan oldin egalik qo‘shimchalari bo‘lishi shart?

- a) kishilik olmoshlari.
- b) o‘zlik olmoshlari.
- c) ko‘rsatish olmoshlari.
- d) belgilash olmoshlari.

Adabiyotlar:

1. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
2. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
3. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддина М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
4. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида Т., 1972.
5. Иномхўжаев С. Ўтмиш Шарқ нотиқлиги Т., 1972.
6. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
7. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.
8. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
9. Кўнгурев Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., 1992.
10. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
11. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
12. Основы культуры речи. М., 1984.

6-mashg‘ulot:

Fikrni turli nutqiy sharoit va vaziyatga moslab ifodalash.(2 soat).
Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam, havoning avzoyi buzuq. Yuvunib chiqib qarasam, tunuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yoqqan qor zalvoridan qiyshayib qolgan shekilli... Qatiqroq shamol bo’lsa, tushib ketadigan...

Yo’lakda yotgan narvonni ko’tarib kelib tomga tiraguncha tinkam quridi, zax tortib, zildek bo’p ketibdi.

Narvon zinasiga oyoq qo’yishim bilan ayvondan onam tushib keldi.

- Nima qilmoqchisan?- dedi ko’zimga termulib.
- Hozir,- dedim beparvo qo’l siltab.- Tarnov qiyshayib qopti.
- Shoshma, bolam, avval choyingni ichib ol...
- Hozir tushaman.

Shunday dedim-u narvonga tirmashdim. Tomga chiqishim bilan pastdan onamning xavotirli xitobi eshitildi:

- Ehtiyyot bo’l, tom labiga borma!
- Uyga kirsangiz-chi! – dedim og’rinib.

Tunuka tomni taraq-turuq bosib, qiyshaygan tarnov oldiga keldim. Uvallo urinaman, tarnov la’nati o’nglansa qani! Zanglab ketganmi, bo’yo’g’i yopishib qolganmi...

Aksiga olib, yomg’ir shivilay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog’ib ketdi. Tom labida o’tirgancha, tarnovini qo’shqo’llab surishga urindim. Qilt etmaydi!

Pastdan yana onamning ovozi keldi:

- Menga qara, bolam.
 Narvon oldiga qaytib keldim.
 - Nima deysiz?
 - Jon bolam, mana buni kiyib olgin...
 Qarasam, onam bir qo'li bilan narvonni changallagancha, ikkinchi qo'lidato'n ushlab turibdi. Yupqa ro'moli, nimchasi ho'l bo'lib ketgan...
 Xunobim oshdi.
 - Hozir tushaman, dedim-ku! Men yosh bolamanmi?
 - Shamollab qolasan!
 - Obbo! Siz uyg'a kiravering! Hozir tushaman.
 Shunday deb, tag'in tarnov oldiga qaytdim. Jahl bilan tarnovni mushtlay boshladim.
 Bir mahal pastdan yana ovoz keldi:
 - Ada! Adajon!
 - Ha! – dedim battar xunob bo'lib.
 - Varragim yirtildi!
 Qarasam, yetti yashar o'glim hovli o'rtasida turibdi. Oyog'i ostida yirtilib, qamishlari qovurg'adek turtib chiqqan varrak loyga qo'rishib yotibdi. O'zi ko'yakchan. Boshyalang.
 Yomg'ir ostida diydirab turibdi.
 -uyga kir, Farruh!- dedim baqirib.- Uyga kir, shamollab qolasan!
 Quloq solsa qani! Goh varragiga, goh menga qaraydi. Kapalagim uchib ketdi!
 Tomda sirg'alibsirg'alib, narvon tomon yugurdim.
 Uch-to'rt pillapoya tushib qarasam, onam hamon narvon oyog'ini changallab turibdi.
 Ro'moli jiqlqa ho'l bo'lib, sochlariqa yopishib qolgan...
 Bir qo'li Narvon oyog'ida. Bir qo'lida to'n... (O'.Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan).

2. Nazorat savollari.

1. Uslubiy xato nima?
2. Uslubiy xatolik qanday ro'y beradi?
3. Uslubiy xato qanday tuzatiladi?
4. Uslubiy xatoga yo'l qo'ymaslik shartlari nimalar?
5. Uslubiy xatolarning qanday ko'rinishlari bor?

3. Testlar.

- 1. Kulmoq so'zining salbiy ma'no bo'yog'i qaysi gapda kuchli ifodalangan?**
 - a) Navoiy tabassum qildi.
 - b) kulgidan o'zini tiya olmadi.
 - c) Kulimsirab turgan yigit o'sha edi.
 - d) Tirjayib qaragan kishini tanimadi.
- 2. - lar qo'shimchasi qaysi gapda kesatiq, kinoya ma'nosini ifodalagan?**
 - a) u qanday azoblarni boshidan kechirmadi.
 - b) og'a, sog' borsangiz, avval dadamlarga salom ayting (Hamza)

- c) bu yerda bir paytlar xaroba uylar bor edi.
- d) o‘zlariyam qadam ranjida qilibdilar-da.

3. Quyidagi gaplarning qaysi birida tushum kelishigi o‘rnida jo‘nalish kelishigini qo‘llash mumkin?

- a) butun dalani o‘quvchilarning shovqini tutib ketdi.
- b) dam oluvchilar tog‘ havosini maqtab ketishdi.
- c) nima dedingiz? Gapingizni tushunmadim.
- d) shoir yangi yozgan she’rini o‘qib berdi.

4. Quyidagi gaplarning qaysi biri uslub jihatidan qo‘pol shakllangan?

- a) tug‘ishi yaqin bo‘g‘oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar.
- b) o‘g‘ir tabiatli kishi uzoq yashaydi.
- c) bizning sayohatimiz etti kun davom etishi kerak.
- d) bog‘imizda yosh olma ko‘chatlari yaxshi ko‘kardi.

5. Qaysi qatorda uslubiy betaraf so‘zlar berilgan?

- a) so‘zlati, turdi, baqirdi.
- b) jamol, yuz, bashara.
- c) so‘radi, qalb, chehra.
- d) yurak, yuz, gapirdi.

Adabiyotlar:

1. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
2. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
3. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддина М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
4. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳакида Т., 1972.
5. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.
6. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., 1992.
7. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
8. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
9. Основы культуры речи. М., 1984.

7-mashg‘ulot:

Fikrni turli nutq uslublariga moslab ifodalash. (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar. Ularni sevgi degan g’aroyib kuch topishtirdi. Ular ana shu kuch sehriga maftun bo‘lib qoldilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan. Unga Hijron degan alanga ergashib keldi.

Ular ana shu alanga otashida baravar kuya boshladilar.

Nihoyat, Hijron alangasi so‘ndi-yu, sevgi Visol degan entiktiruvchi tyyg‘uni yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg‘iz yurmas ekan. Endi I Sinov degan to’siqni yetaklab keldi.

Agar ular Sevgining qo'lidan mahkam tutishganida bu to'siqdan o'tishlari mushkul emasdi. Ammo bunday bo'lmadi. Ular sinov oldida chekindilar.

O'rtada Shubha, Rashk degan sharpalar o'rmalab qoldi. Shunda ular o'zlarini topishtirgan Sevgiga ilk bor ta'na toshi otdilar.

Sevgi shunda ham ularni kechirdi. Sabot, Mehr degan kuchlarga oshno qilishga urindi.

Ammo ular Sabotni ham, Mehrni ham unutdilar. O'zlarini topishtirgan Sevgi degan "yovuz kuch" ga la'nat aytdilar!

Shunda... Ularning qismatiga Xiyonat kirib keldi! Ular Sevgini ayblay-ayblay, oxiri... ajrashdilar...

Qismat chorahasida esa uchta begunoh go'dak chirqillab qoldi. Besh yashar o'g'il, uch yashar qizaloq va... yetim qolgan Sevgi... (O'.Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan).

2. Nazorat savollari.

1. Fikr ifodalash nima?

2. Fikr ifodalashning turli nutqiy sharoiti nima?
3. Fikr ifodalashning vaziyatga mosligi nima?

3. Testlar.

1. Qaysi qatorda uslubiy bo'yoqli so'zlar ishlatilgan?

- a) ro'mol, tuz, ish.
- b) jamol, qalb, chehra.
- c) noz, ishva, keldi.
- d) tush, til, qalb.

2. Qaysi qatorda so'zlashuv uslubiga xos so'zlar keltirilgan?

- a) ketti, so'radi, pichirladi.
- b) ming'irladi, vaysadi, botopti.
- c) sadoqat, totli, shirin.
- d) maysa, barg, sokin.

3. Kitobiy uslubga xos so'zlar qaysi javobda berilgan?

- a) ovoz, sas, tovush.
- b) gulzor, meva, ezgu.
- c) malak, siymo, bashar.
- d) inson, koinot, bashar.

4. Qaysi javobdag'i so'zlar doimo -lik qo'shimchasi bilan ishlatiladi?

- a) taqachilik, pishiqlik, suvchilik.
- b) baliqchilik, suvoqchilik, suvchilik
- c) pishiqlik, sherikchilik, to'qchilik.
- d) ijarachilik, to'qchilik, chilangorlik.

5. Qaysi javobda -lar qo'shimcha jamlash ma'nosini ifodalagan?

- a) naxshalar gulladi.
- b) jiyanlarim o'qimishli.
- c) boshlarim og'riyapti.
- d) yashnamoqda yangiyo'llar.

Adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддина М., Адабий норма ва нутқ маданияти. Т., 1983.
2. Сиддиқ Мўмин. Сўзлашиш санъати. Фарғона, 1997.
3. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
4. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Ўкув қўлланма. Т., 1985.
5. Қиличев Э. Бадиий тасвиринг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
6. Қўнғуров Р., Каримов С. А., Курбонов Т. Нутқ маданияти асослари. 1-2-кисм Самарқанд, 1986.
7. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
8. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
9. Основы культуры речи. М., 1984.

8-mashg‘ulot:

Fikrni turli sotsial auditoriyaga moslab ifodalash. (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Kecha kolxozda ketmon chopib, biri ikki bo’lmagan dehqon bugun yer olib, bola-chaqasi bilan gullatib qo’ysa-yu, qaddini kerib yursa, quvonaman.

Omadini bersin! Bu – bozor iqtisodi!

Kecha zavoddan olgan maoshini qay biriga yetkazishini bilmay rangi sarg’ayib yurgan injener bugun qo’shma korxona ochsa-yu, nest-nobud bo’lib yotgan mevalardan sharbat olib boyib ketsa, yana quvonaman.

Qandini ursine! Bu-bozor iqtisodi!

Kecha katalakdek xonaga tiqilib, “eskilik sarqiti” –beshik va sandiq yasagani uchun nalugchidan baloga qolib yurgan hunarmand bugun kattakon sex ochsa-yu, rohatini ko’rsa, tag’in bir bor quvonaman.

Baraka topsin! Bu bozor iqtisodi!

Kecha alifni kaltak deyolmay o’qituvchisidan dakki eshitgan va oxir-oqibat “xudosizlar jamiyat”da qo’nim topgan notavon bola bugun “biznesmen”bo’lsa-yu, xususiy samolyot sotib olsa, hayron qolmayman. Bu ham bozor iqtisodi.

Kecha buyuk ixtiolar qilgan olimning iste’dodli shogirdi bugun ilmini tashlab, tadbirkorga aylansa-yu, papkasiga “delavoy shartnoma” solib, zipillab yursa, hayron qolmayman. Bu ham bozor iqtisodi!

Kecha yurak qoni bilan doston yozgan shoir bugun o’sha dostoniga qalam haqi olsa-yu, puli mashinka haqiga yetmasa, hayron qolmayman. Bu ham bozor iqtisodi!

Kecha unvon olish uchun yugura-yugura betob bo’lib qolgan chalasavod “hofiz” bugun “otarma-otar” yursa-yu, “Yaguar” mashinasida kataysa qilsa, hayron qolmayman. Bu ham bozor iqtisodi!

Kecha bitta rostga bitta yolg'on qo'shmasakuni o'tmagan eshak bozorining daloli bugun "zamonaviy broker"ga aylansa-yu, uch qavatli "dacha" solsa, hayron qolmayman.bu ham bozor iqtisodi!

Ammo kecha alifni kaltak deyolmagan ateist bugun ming kishini to'plab "amrima'ruf" qilsa-yu, unga dashnom bergen o'qituvchisi choy tashib yursa, hayratlanmay iloj yo'q!

O'sha o'qituvchi ertasiga mактабни ташлسا-ю, "Ippadrom"га чиқиб сигарет сotsa, hayratlanmay ilojim yo'q!

Kecha buyuk ixtiolar qilgan olim, bugun eng yaxshi shogirdidan ayrilgani uchun ma'yuslanib bekatda tursa-yu, "kontrakt" bilan o'qishga kirgan birinchi kurs talabasi "inomarka"sida unga loy sachratib o'tsa, hayratlanmay ilojim yo'q.

Olim shu ahvolda tramvaya chiqishdan iymanib, uyiga piyoda ketsa, hayratlanmay ilojim yo'q!

Kecha eshak bozorida dalllollik qilgan "zamonaviy broker" bugun uch qavatli dachasini "yuvsu-yu", chalasavod "hofiz" bir soat "hangragani" uchun boshidan dasta-dasta "ko'ki" dan sochsalar...

Davraning bir burchida o'tirgan shoir yurak qoni bilan yozgan g'azallari tuproqqa qorishganidan ko'ngli o'ksib izdihomdan bosh egib chiqib ketsa, hayratlanmay ilojim yo'q!

O'sha davraning yana bir burchida xuddi shu "hofiz"ni bir tiyin ta'masiz davolagan do'xtir ham o'tirgan bo'lса-yu, "otarchi" unga ko'zi tushib "iya, sizam shu yerdamisiz, doxtir?" deb piching qilsa...

Do'xtir esa, "ertadan boshlab o'likdan kafanlik tilaganim bo'lsin!" deb qasam ichsa... Hayratlanmay ilojim yo'q!

Bunaqa bozorga o't tushib, alangasi osmonga chiqsin!! (O'.Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan).

2. Nazorat savollari.

1. Fikrni turli nutq uslublariga moslab ifodalash nima?
2. Ilmiy uslubda fikr qanday ifodalanadi?
3. Badiiy uslubda fikr qanday ifodalanadi?
4. Rasmiy uslubda fikr qanday ifodalanadi?
5. Publitsistik uslubda fikr qanday ifodalanadi?
6. So'zlashuv uslubida fikr qanday ifodalanadi?

3. Testlar.

1. Qaysi gapda «bir» so'zi predmetning noaniqligini bildirgan?

- a) bir gap kam, uka.
- b) kechagi to'yda qiz bir o'ynadi.
- c) bir kuladi, bir yig'laydi.
- d) bir unday deysiz, bir bunday.

2. Qaysi gapda bo'lishsiz fe'lidan tasdiq ma'nosi anglashiladi?

- a) ishga kelmay qo'ydi.
- b) sinfda yo'qlama qilindi.
- c) kitobni o'qimay qo'ymaydi.

d) gazeta chiqmay qoldi.

3. Ritorik so‘roq gap qaysi javobda berilgan?

- a) vatan so‘zi ona so‘zidir.
- b) negasiz yaxshi ko‘rmaysiz.
- c) nahotki daryolar oqar teskari?!
- d) tortinmasdan kelaver-chi.

4. «Bu ish men sizga aytsam ko‘p qiziq bo‘ladi» gapida uslubiy xato nima sababdan vujudga kelgan?

- a) kirish gap bo‘lganligi uchun.
- b) qo‘shma gap bo‘lganligi uchun.
- c) tinish belgilari qo‘yilmaganligi uchun.
- d) ko‘chirma gap bo‘lganligi uchun.

5. «Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot» gapida vergul nima uchun ishlataligani?

- a) kirish so‘zi uchun.
- b) undalma uchun.
- c) vergul kerak emas.
- d) uyushiq bo‘lak uchun.

Adabiyotlar:

1. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
2. Бегматов Э. Нотиқнинг нодир бойлиги. Т., 1980.
3. Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Ҳ. Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. Т., 1994.
4. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Монография. Т., 1982.
5. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., 1992.
6. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
7. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
8. Основы культуры речи. М., 1984.

9-mashg‘ulot:

Rasmiy va badiiy nutq tuzish (2 soat).

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Sharq ayoli bir qadar zabun bo‘lgan.

G’arb ayoli bir qadar erkin bo‘lgan.

Sharq podshosining harami bo‘lgan. Haramda rasman tan olingan kanizaklar bo‘lgan.

Xohlasa o’nta, xohlasa qirqta...

G’arb qirolining harami bo‘lmagan. Ammo uning rasman tan olingan jazmanlarifavoritkalar bo‘lgan. Xohlasa o’nta, xohlasa qirqta.

Sharqda to’rt nikohga ruxsat berilgan.

G’arbda bitta nikoh tan olingan.

Sharqda to'rt xotinning har biri o'z bolasini taxtga da'vogar qilib tarbiyalagan. G'arbda o'nlab favoritkalarning birontasi bolasini taxtga da'vogar deyishga haqqi bo'lмаган.

Sharqda ne-ne sultanatlar o'gay aka-ukalar o'rtasida xomtalash bo'lib, parchalanib ketgan.

G'arbda bu muammo bo'lмаган...

Xulosa: G'arb qiroli bir qadar dono, ayollar esa bir qadar erkin va... anchayin sodda bo'lган. Sharq podshosi bir qadar sodda, ayollar esa bir qadar zabun va ... anchayin makkor bo'lган!

Sharqning eng katta fojiasi-rasman qonunlashtirib qo'yilgan ko'p xotinlilik! (O'.Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobidan).

2. Nazorat savollari.

1. Sotsial auditoriya nima?
2. Fikrni turli sotsial auditoriyaga moslab ifodalash nima?
3. Sotsial auditoriyaga nima kiradi?

3. Testlar.

1. Xabar, raport, farmon, qaror, qaysi uslubda yoziladi?

- a) publitsistik uslubda.
- b) rasmiy-ish uslubida.
- c) badiiy uslubda.
- d) so'zlashuv uslubida.

2. Ritorik so'roq, inversiyali gap, dialog qaysi nutq uslubiga xos?

- a) badiiy uslubga.
- b) rasmiy-ish uslubga.
- c) so'zlashuv uslubga.
- d) publitsistik uslubga.

3. Uslubiyat bo'yicha darslik yozgan tilshunoslar nomlari qaysi qatorda berilgan?

- a) A. G'ulomov, M. Asqarova, A. Hojiyev.
- b) E. Qilichev, Yo. Tojiyev, A. Mahmudov.
- c) R. Qo'ng'urov, I. Rasulov, R. Rasulov.
- d) R. Qo'ng'urov, E. Qilichev, E. Begmatov.

4. A.Qahhorning qaysi hikoyasida rasmiy nutq elementlaridan keng foydalangan?

- a) «O'g'ri».
- b) «To'yda aza».
- c) «San'atkor».
- d) «Notiq».

5. Shevaga xos so'zlar qaysi nutq uslubida uchraydi?

- a) badiiy va ilmiy.
- b) publitsistik.
- c) ilmiy va rasmiy.
- d) so'zlashuv.

Adabiyotlar:

1. Ахмедов А.А. Нотиқлик санъати Т., 1967.
2. Сиддиқ Мўмин. Сўзлашиш санъати. Фарғона, 1997.
3. Умурқулов Б. Сўз танлаш санъати. Т., 1985.
4. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнгурев Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., 1983.
5. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар Т., 1996.
6. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Монография. Т., 1992.
7. Қўнгурев Р., Каримов С. А., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. 1-2-қисм Самарқанд, 1986.
8. Головин Б.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
9. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. М., 1986.
10. Основы культуры речи. М., 1984.

10-mashg‘ulot:

Ilmiy nutq tuzish (2 soat).
Mavzu bo‘yicha topshiriqlar.

1. Matnni tahlil eting.

Matn.

Bugun bayram. Ko’chalar gavjum. Sho’x- sho’x kuylar yangraydi.guras-guras odamlar o’tadi. O’yin-kulgi, shodon shovqin bahor osmonini titratadi.

Shundoqqina yo’lka chekkasida o’tirib olgan bolakay ovozi boricha hayqiradi:
-Gul! Kep qolinglar, gul! Atirgul. Bayram gullari!

Uning oldida bir savat gul quyosh parchasidek tovlanadi.

Gullar har xil: oq, qizil, pushti...

Odamlar kelib gul olishadi.

Nariroqda to’nkarylган eski paqir ustida o’tirib, rediska sotayotgan xotin ora-chora bolaga tanbeh berib qo’yadi:

- Izdachisini berdingmi, a’zam? Pulingga ehtiyot bo’l!

Bolakay hamon hayqiradi:

- Kelinglar! Gul olinglar. Gul!

... Bolalik yillarimni eslayman. To’rt aka-uka edik. Dadam hammamizni baravar kiyintira olmagani uchun, bayramga birimizga yangi do’ppi, birimizga botinka, yana birimizga ko’ylak sovg’a qilardi. Biz bayram kelishini orziqib kutar, shungacha yangi kiyimlarimizni har kuni bir-birimizga ko’z-ko’z qilar, ammo kiymas edik.

Bayram kuni shaharga tushardik. Go’yo hamma bizning yangi do’ppimizga, ko’ylagimizga havas bilan qarayotgandek tuyulardi.

... Bugun bayram. Odamlar guras-guras o’tadi. Chiroyli kiyangan bolalar shovqin solib yugurishadi.

Gulchi bolakay hamon qichqiradi:

- Gul olinglar, gul!

Boyagi xotin yana tanbeh beradi:

- Pulingga qara, pulingga!

- Каримов И.А. Ватан равнаки учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. -Т.: “Ўзбекистон”, 2001.
- Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. -Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
- Мирзиёев Ш.М. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 25 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. 2017 йил 7 декабрь. – Тошкент, 2018.
- Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент, 2018.

Asosiy adabiyotlar:

- Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. 1-қисм. -Т.: Наврўз, 1997.

8. Бекмирзаев Н. Нутқ маданияти ва нотиқлик асослари. -Т.: “Фан”, 2007.
9. Кайковус. Қобуснома. Тўлдирилган иккинчи нашри. -Т.: “Ўқитувчи”, 2006.
10. Карнеги Д. Ўз-ўзига ишонч ҳосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2010.

11. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. -Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.

Qo’shimcha adabiyotlar:

12. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: “Ўқитувчи”, 1992.
13. Абдураҳмонов Ф. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида/ “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1992. 5-6-сон. -Б.28-36.
14. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. Амалий қўлланма. З-нашри. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2009. 440 б.
15. Аъламова М. Нутқда акс этар бир олам бойлик. -Т.: “Ўқитувчи”, 1989.
16. Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва стилистикаси асослари. -Т., 1987.
17. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. -Т.: “Фан”, 1983. 151 6.
18. Головин Б.Н. Основы культуры речи. -М.: “Высшая школа”, 1980.
19. Жумахўжа Н.А. Истиқлол ва она тилимиз. -Т.: “Шарқ”, 1998.
20. Маҳмудов Н. Тилимизнииг тилла сандиғи. -Т.: Faфур Fулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012.
21. Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш (Муншаот). -Т. 1990. 224 6.
22. Маҳмудов Н., Рафиев А., Йўлдошев И. Нутқ маданияти ва давлат тилида иш юритиш. -Т.: “Чўлпон”, 2012.
23. Она тили – давлат тили. -Т.: “Адолат”, 2004.
24. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т. 1989.
25. Тожиев Ё., Жасanova Н., Сайдова Р., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари амалиёти. -Т., 1994. 115 6.
26. Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. 1-кисм. -Т., 2006. -Б.8.
27. Шомақсудов А., Расулов И., Кўнғуров Р., Рустамов Ж. Ўзбек тили стилистикаси. -Т.: “Ўқитувчи”, 1983. 248 6.
28. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Ўқув қўлланма. Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланган. Тошкент, 2002.
29. Қиличев Э. Нутқ маданияти ва услубият асослари. -Бухоро, 2003.
30. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т.: “Ўқитувчи”, 1985.
31. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. -Т.: “Ўқитувчи”, 1992. 160 6.
32. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. -Т.: “ТошДУ”, 1975.
33. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
34. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

35. Qilichev B. Nutq madaniyati. O'MM. Buxoro, 2018.

DASTUR BAJARILISHINING KALENDARLI REJASI

(ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari)

Fakultet: Barcha yo'nalishlar. **Bosqich:** 2-bosqich magistratura.

Fanning nomi: Nutq madaniyati. **Ma'ruza o'qiydi:** B.E.Qilichev

Amaliy mashg'ulotni olib borish: B.E.Qilichev.

Nº	Mashg'ulot shakli	Mavzu nomi	Sanasi	Vaqti	Auditoriya	Imzo
Ma'ruza mashg'uloti (barcha guruqlar)						
1	M.	"Nutq madaniyati" kursining maqsadi, vazifasi va mundarijasi				
2	M.	Nutq madaniyati va notiqlik tarixi				
3	M.	Adabiy til me'yorlari.				
4	M.	Nutqning vazifaviy uslublari tasnifi				
5	M.	Madaniy nutq mezonlari.				
Amaliy mashg'ulot (barcha guruqlar)						
1	Amal.	Nutq va uning shakllari.				
2	Amal.	Notiqlik tarixi				
3	Amal.	Adabiy til me'yori va nutq madaniyati.				
4	Amal.	Uslubiy va punktuatsion me'yor.				
5	Amal.	Matndagi turli xatoliklar ustida ishlash				
6	Amal.	Fikrni turli nutqiy sharoit va vaziyatga moslab ifodalash				
7	Amal.	Fikrni turli nutq uslublariga moslab ifodalash				
8	Amal.	Fikrni turli sotsial auditoriyaga moslab ifodalash				
9	Amal.	Rasmiy va badiiy nutq tuzish				
10	Amal.	Ilmiy nutq tuzish				

Yetakchi o'qituvchi

dots. B.E.Qilichev

Kafedra mudiri

A.R.Axmedov

TARQATMA MATERIALLAR

Fanning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, quyidagilar talabalarga tarqatish uchun tayyorlab qo‘yilgan:

1. Ishchi dasturning talabalarga mo‘ljallangan varianti(har bir talabaga taqdim etiladi).
2. Mustaqil ta’lim ishlanmasi(har bir talabaga taqdim etiladi).
3. Mustaqil ish(referat) mavzularini yoritish uchun turli to‘plam-lardan olingan maqolalar, jurnal va gazeta materiallarining nusxalari (Talabaga yordam tarzida, uning murojaatiga ko‘ra, taqdim etiladi).
4. Har bir darsda o‘tiladigan mavzu doirasida o‘zbek tilshunos-ligida yaratilgan adabiyotlarning nusxalari namoyish etiladi.
5. Blits savollar.
6. Muammoli savollarga guruhlarning javoblarini yozma tarqatma materiallarga qayd etish orqali tashkil qilinadi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni matni har bir talabaga beriladi va dars jarayonida o‘rni bilan unga murojaat etiladi.

MUOMALA MADANIYATI HAQIDAGI HIKMATLARGA MULOHAZA BILDIRING

O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.

Islom Karimov

Foydasiz tortishuvlardan inson o‘zini tiyishi kerak. Bu tortishuvlar ulug‘larni g‘azabga keltirsa, kichiklarning xulqini buzadi.

Ahmad Yugnakiy.

Har narsaning o‘lchovi, har ishning o‘ziga yarasha odobi bo‘lganga o‘xshash, so‘zning ham o‘lchovi, odobi bordur. So‘zga yolg‘on qo‘shmak, kishini aybini so‘zlamak, kishining nomusiga tegadigan so‘zlar so‘zlamak, shunga o‘xshash yaramas so‘zlarning zarari tegmasdan qolmas.

Qori Nizomiddin bin Mulla Hasan.

Tillar qanchalik g‘oyalar bilan boyigan bo‘lsa, zarur so‘zlar bilan ham shu darajada boyigan bo‘ladi.

J.Bernarden.

Til madaniyat bilan birgalikda yuksaladi.

N.Karamzin.

Kishilarga ulardan avvalroq salom berishga shoshil, bu ulug‘ kishilarning fazilatlaridan bo‘lib, kamtarinlik natijasidir.

Muhammad Husayn.

Har kim insonlar bilan muomala etarkan – ularga zulm etmasa, ular bilan hamkorlik qilarkan, yolg‘on so‘zlamasa, ularga bergen va’dasini o‘rniga keltirar bo‘lsa, muruvvati mukammal,adolati ochiq, do‘sligi vojib bo‘lur.

Muhammad (s.a.v.)

Fikringizga ehtiyot bo‘ling – ular qilmishlaringiz ibtidosidir.

Lao Stzi.

Tinglash va sukut saqlash seni donolikka yetaklaydi. Sukut – donolikning boshlanishi.

Pifagor.

Ba’zilar bir umr so‘zlaydilar-u, hech narsa aytolmaydilar. Ba’zilar esa bir umr sukulda bo‘ladilar-u, ammo aytilmagan so‘z qolmaydi.

Chjuan Stzi.

So‘zamollik – aqlga sayqal beruvchi nur.

Siseron Mark Tulliy.

Hech bir aytilgan so‘z aytilmay qolgan so‘zchalik foyda keltirmagan.

Plutarx.

Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta’sir o‘tkazish yo‘llari sodda va tushunarli bo‘lmog‘i lozim.

Forobiy.

Yovuzlik hukmron bo‘lgan saroyning qonuni shunday: yo sen egarda o‘ltirursan, yo senga egar o‘rnaturlar.

Firdavsiy.

Hakimning uch quroli bor: so‘z, giyoh va tig‘.

Ibn Sino.

Haqiqat va yolg‘on aslida narsalarning emas, so‘zning mohiyatiga xos xususiyatlardir. So‘z yo‘q joyda haqiqat ham, yolg‘on ham bo‘lmaydi.

Tomas Gobbs.

Hech qachon o‘z haqingda gapirma! Chunki yo o‘zingni maqtash yohud yomonlashga to‘g‘ri keladi. O‘zi haqida so‘zlamoqlik, aqlga qarshi ish tutmoqlikdir. Bundan tashqari, sen tinglovchini ham zeriktirib qo‘yanan.

Baltasar.

Asl notiqlik barcha kerakli narsalarni me’yori bilan ayta olish san’atidir.

Fransua de Laroshfuko.

Agar hikmatli so‘zda izohga muhtojlik sezilsa, demak, bu so‘z tobiga yetmagan.

Vovenarg Lyuk de Klapa.

Mutolaa – kallang o‘rniga boshqaning kallasi bilan o‘ylamoq demakdir.

Artur Shopengauer.

So‘z – buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish, so‘z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin. So‘z bilan mehr qozonish, so‘z bilan nafrat va adovatga yo‘liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so‘zni aytishdan saqlan!

Lev Tolstoy.

So‘zni ko‘ngilda pishqormaguncha tilga kelturma,

Har nekim ko‘ngilda bor tilga surma.

Alisher Navoiy.

So‘z aytishdan avval, har daqiqada so‘z ortidan keladigan oqibatni o‘yla.

I.P.Pavlov.

Tilingdan chiqqan sadaqa (ya’ni, pandu nasihating va maviza-yu hasanang) ba’zan qo‘lingdan (mol-dunyodan) chiqqan sadaqangdan ko‘ra hayrliroqdir.

Mahmud az-Zamaxshariy.

Yaxshi odam yuragining yaxshilik hazinasidan yaxshilik chiqarur. Yomon odam yuragining yomonlik hazinasidan yomonlik chiqarur. «Men sizga deymanki: insonlar aytadigan har bir bekor so‘zi uchun qiyomat kunida hisob beradilar. Sen o‘z so‘zlarining asosida yo oqlanasan, yoki ayblanasan.

Injildan.

Qulim meni qanday tanisa, uning-la shunday muomala qilaman.

Hadisdan.

Nodonning nodonligini ikki xislat aytib turadi: birinchidan, gapi tuturuqsiz, ikkinchidan, javobi poyma-poy bo‘ladi.

Aflatun.

Qay bir so‘zni bil sang joyini o‘tkarmay aytg‘il, vaqt ni zoe qilmag‘il, yo‘q ersa donishga sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang rost deg‘il va bema‘nilikni da‘vo qilg‘uvchi bo‘lmag‘il.

Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy.

Qadimgi Xitoy donishmandlari o‘gitlaridan namunalar

Qoida bo‘lmanan narsaga qarama! Qoida bo‘lmanan narsaga quloq solma!
Qoida bo‘lmanan narsani gapirma! Qoidaga zid ishlarni qilma!

Konfutsiy

Olijanob inson yonida uchta xatoga yo‘l qo‘yadilar: biron ta so‘z unga yetib bormaganda, u bilan gaplashish yengiltaklikdir; u tinglashi mumkin bo‘lganda, gapirmaslik damduzlikdir; uning yuz ifodasiga e’tibor bermasdan gapirish ko‘rlikdir.

Konfutsiy

Yumshoqlik va dilbarlik odamiylikning ildizlaridir. Hurmat va ziyraklik (u o‘sib unadigan) zamindir. Bag‘rikenglik odamiylikning namoyon bo‘lishidir. Izchillik va tadrijiylik uning san’atidir. Taomil va odatlar odamiylikning qiyofasidir. Nutq va suhbatlar uning bezagidir.

Li-szi

Aytilgan gaplar to‘g‘ri bo‘lishi kerak, ish va muomala natija berishi kerak, aytilgan gaplar bilan qilingan ishlar bir-biriga muvofiq bo‘lmog‘i darkor.

Mo-szi

Gapirish kerak bo‘lganda gapirmasalar, odamlarni yo‘qotadilar. Gapirish kerak bo‘lmananda gapirsalar, so‘zlarni yo‘qotadilar.

Konfutsiy

O‘rganish paytida fikrlamaslik – zulmat, fikrlash paytida o‘rganmaslik – xatar.

Konfutsiy

Qadimgi Misr donishmandlari o‘gitlaridan namunalar

Ishning mohiyatini anglab yetgandan so‘ng gapir. Kengashda gapirgan – bilgan odam. Aqlli nutq – har qanday ishdan qiyinroq.

* * *

O‘z bilimlaring bilan mag‘rurlanma va men yagona bilguvchiman, deb o‘zingga bino qo‘yma.

* * *

Faqat biladiganga emas, bilmaydiganga ham maslahat sol. Chunki san’atning chegarasi bo‘lmaganidek, san’atkor ham mahoratning oliy cho‘qqisiga chiqa olmaydi.

* * *

Agar sen boshliq bo‘lsang, so‘rovchining so‘zlarini tinglayotganda, xotiringni jam qilgin. U senga aytmoqchi bo‘lgan gaplarni aytib, ichini bo‘satib olmaguncha, uni oldingdan quvma.

* * *

Hech kimga: kattaga ham, kichikka ham tuhmat qilma.

* * *

Tuhmat gapni takrorlama, hatto uni eshitma ham... Gapisang eshitganingni emas, ko‘rganiningni gapir.

Til – shohning qilichi. Nutq har qanday quroldan kuchliroq.

* * *

Xattot (yozuvchi)lik eng foydali va obro‘li kasbdir, yosh yigit uchun xattot bo‘lish yaxshi.

* * *

G‘arb mutafakkirlarining o‘gitlaridan namunalar

Notiqning vazifasi tinglovchilarni o‘z gaplariga ishontirishdan iborat.

Gorgiy

Bilim bilmaslikni kengaytiradi.

Anaksimen

Yaxshi maslahatchi har qanday boylikdan afzal. Haqiqat chuqur quduqning tubida yashiringan. Ko‘p bilishga emas, ko‘p fikrlilikka intilmoq lozim.

Demokrit

Notiq uchun birinchi va eng muhim shart shuki, undan tabiiy iste’dod..., aql va hissiyotning alohida tiyrakligi talab etiladi... Ilm esa, zo‘r kelsa, aqlning bu tiyrakligini uyg‘otishi mumkin, ammo uni in’om eta olmaydi, zero, bularning barchasi tabiat in’omidir... Men ilm u yoki bu notiqning mahoratini oshirishga umuman qodir emas, demoqdan yiroqman. Ammo yo tili yozilmagan yoki ovozi sun’iy yoxud yuz ifodasi va xatti-harakatlari beo‘xshov va qo‘pol bo‘lgan shunday odamlar borki, hech qanday iste’dodi va bilimlari ularga yaxshi notiqlar qatoridan o‘rin olishiga yordam bera olmaydi. Va aksincha, ayrimlarga tabiat shunday

iste'dodni in'om etgan bo'ladiki, ularni allaqanday ilohiy qo'l suxandonlik uchun maxsus yaratgandek tuyuladi.

Siseron

Bahslashing, adashing, yanglishing, lekin xudo haqqi, yomon bo'lsa ham, o'z mulohazangiz bo'lsin.

Lessing

Ikkala bahslashayotgan odam ham qizishib ketsa, bu ikkalovining ham nohaqligini bildiradi.

L.Tolstoy

...Biz odatda e'tibor qilmaydigan odam o'z suxandonligi bilan maftun etishi mumkin. Tafakkur nafaqat tanaga ruh bag'ishlaydi, balki ma'lum darajada uni yangilaydi; bir-birining o'miga kelgan his-tuyg'u va fikrlar yuzni jonlantiradi va unga bir bunday, bir boshqacha ifoda beradi.

Jan Jak Russo

Nutqning boyligi fikr to'laligiga bog'liq.

V.Gyugo

Kuchli va muhim dalillarni oldin, boshqalardan bo'shrog'ini keyin, eng kuchlilarini esa fikrning oxirida keltirgan ma'qul, chunki tinglovchi va o'quvchilar gapning boshi va oxirini ko'proq eshitadi va ularni ko'proq eslaydi.

M.V.Lomonosov

Shoshilmay gapir, shoshqaloqlik – aqlsizlik belgisi.

Biant

Sharq mutafakkirlarining nutq odobi va til mahorati haqidagi fikrlaridan namunalar

Nahv nasrda va aruz nazmda aytilgan so'zning me'yорини о'lchovchi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon bo'lib qoldi, lekin nahv bular ikkisining umumiyyrog'idir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda o'z ichiga qamrab oladi...

Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Beruniy

Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinci ilm grammaticadir: u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda narsalar (substansiya) va hodisalarning (aksidensiya) joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar

yordamida biz bilmagan narsalarni billb olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Abu Nasr Forobiy

...Yaxshi so‘zlashga o‘rgan va muloyim so‘zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki, qanday so‘zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So‘zni o‘z joyida so‘zla, joyida aytilmagan so‘z, agar u yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon ko‘rinadi.

Kaykovus. “Qobusnoma”

Kishi suxandon va notiq bo‘lishi lozim.

Kaykovus. “Qobusnoma”

Xalq oldida gapirganda so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘z bilan baland darajaga erishgaiingni bilsin, chunki kishining martaba-sini so‘z orqali biladilar,... har kishining ahvoli o‘z so‘zi ostida yashringan bo‘ladi.

Kaykovus. “Qobusnoma”

Ey farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganingda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar!

Kaykovus

Shunday kishini notiq (suxango‘y) deymizki, uning har so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ham ma’lum bo‘lsin.

Kaykovus

O‘ylamasdan so‘zlama, har bir so‘zni o‘ylab gapir, to aytgan so‘zingdan pushaymon bo‘lmagaysan.

Kaykovus

Agar so‘zni va ilmni yaxshi bilsang ham hech bir so‘zni buzma, to‘g‘ri ta’rifla. So‘zni bir xil gapir. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi hatto aqli odam bo‘lsa ham xalq uni aqlsiz deydi...

Kaykovus

Bilib so‘zla, so‘z bilig sanalur

Yusuf Xos Hojib

Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,

Goho til maqtaladi, goho so‘kiladi.

Modomiki shunday ekan, so‘zni bilib so‘zla,

So‘zing ko‘r uchun ko‘z bo‘lsin, (u) ko‘ra bilsin.

Yusuf Xos Hojib

Alisher Navoiy notiqlik haqida

Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur.

* * *

Ko‘ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so‘z bil!

* * *

Tilingni ixtiyoringga asrag‘il, so‘zungni ehtiyot bila degil!

* * *

Mahallida aytur so‘zni asrama, aytmas so‘z tegrasiga yo‘lama!

* * *

Tiling bila ko‘nglungni bir tut, ko‘ngliyu tili bir kishi aytqan so‘zga but!

* * *

Agarchi tilni asramoq ko‘ngulga mehnatdur, ammo so‘zni sayramoq boshqa ofatdur.

* * *

Aytur so‘zni ayt, aytmas so‘zdin qayt!

* * *

Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi muxtasar.

* * *

So‘zi hisobsiz – o‘zi hisobsiz.

* * *

Og‘zig‘a kelganni demak nodon ishi va oldig‘a kelganni emak hayvon ishi.

* * *

Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz.

* * *

Yomon tillig, andoqkim el ko‘ngliga jarohat yetkurur, o‘z boshig‘a ham ofat Yetkurur.

* * *

So‘zida parishonliq – o‘zida pushaymonliq.

* * *

Yolg‘on aytquchi g‘aflatdadur.

* * *

Chin so‘zni yolg‘ong‘a chulg‘ama, chin ayta olur tilni yolg‘ong‘a bulg‘ama.

* * *

Saodatbaxsh ruh zuloliga matla’ ham til. Tilga iqtidorlig‘ – hakimi xiradmand; so‘zga ixtiyorsiz – layni najand. Tilki fasiq va dilnazir bo‘lg‘ay, ko‘broq bo‘lg‘ay agar ko‘ngil bila bir bo‘lg‘ay (Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manbai ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan (kishi) aql podshosidir: so‘zga ahamiyat bermaydigan (kishi) la’natlangan, past (kishi)dir) (1.23-62-b.)

O‘QITUVCHI HIKMATLARI⁶

Haqiqiy ustozlikning mohiyati ulug‘ hayot taqozo etayotgan axloqiy fazilatlarny yosh avlodning ongiga, e’tiqodiga, eng muhimi, uning kundalik xattiharakatiga aylantira bilishdadir.

* * *

O‘qituvchining obro‘sni bami soli bir muhtasham qasr bo‘lsa, o‘z kasbi va predmetini sevish, chuqur bilish, bayon etish mahorati va zebo xulq - uning zamini.

⁶ Ushbu hikmatlar Rahimjon Usmonovning «Odobnama» (Toshkent: O‘qituvchi, 1985, 56-77-b.) kitobidan olindi.

* * *

Yosh avlodda mustaqillik va tashabbuskorlik yetishmas ekan, bu bizning tarbiyachilik mahoratimiz bo'shligidan nishona.

* * *

O'qituvchining obro'si va mavqeyi faqat uning o'z shaxsi uchungina emas, balki yosh avlodning aqliy va axloqiy kamoloti uchun zarur.

* * *

O'qituvchining fikri va zehni nechog'lik teran bo'lsa, uning nutqi shunchalik ixcham va mazmunli bo'ladi.

* * *

Biz o'qituvchilarga bo'lgan xalq ishonchi va hurmati qancha orta borsa, el qoshidagi mas'uliyatimiz ham shuncha katta bo'ladi.

* * *

Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun yuksak ilmiy darajaga erishish shart emas, fanni chuqur bilish, bilganlarini bayon etish mahorati eng muhimi chin insonlik - mana shu fazilatlar uning uchun muhim.

* * *

So'zda nuktadonlik, chuqur mantiq va mazmundorlik ayniqsa, o'qituvchi uchun eng zarur sifatdir.

O'qituvchi qisqa ifodada ko'p fikr ayta bilish mahoratiga ega bo'lmog'i lozim.

* * *

Faqat o'zi gapirib, o'zi tinglash san'at emas, balki tinglovchilarning qalbini sehrlab olib, ularni ham birga fikrlashga va o'z fikrlarini ifodalashga unday bilish katta san'at.

* * *

Pedagog auditoriyaga kirish oldidan o'z fikrini ravshan, uslubini esa, jozibali qilish ustida naqqoshdek ijodiy izlanishi lozim.

* * *

Pedagogning nutqi muattar gulga o'xshab xushnisor va tabiiy bo'ladi.

* * *

Mohir notiq-o'qituvchining ta'limini olgan shogird ham so'zga chechan bo'ladi. Agar o'qituvchi xattot bo'lsa, shogird ham unga taqlid qiladi. Aksincha o'qituvchi xunuk yozsa, o'quvchilar ham badxat bo'ladilar.

* * *

Ijodiy mehnat egasi o'z bilimi va tajribasini muttasil oshirib bormasa, o'z ustida ishlashdan sal to'xtagudek bo'lsa, hayot oqimi uni qirg'oqqa chiqarib tashlaydi.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi gapda qaraqich kelishigi qo'shimchasini chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirish mumkin?

- a) maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini.
- b) mehmonlarning yoshi ulug'i gapirdi.
- c) institut kutubxonasi birinchi qavatda.
- d) palovning masalig'i tayyorlab qo'yildi.

2. Quyidagi gaplarning qaysi biri uslub jihatidan noto'g'ri shakllangan?

- a) ko'zing og'risa qo'lingni tiy, tishing og'risa tilingni.
- b) Sotiboldining xotini og'rib qoldi.
- c) spid kasalligi bilan kasallanganlar soni ortib bormoqda.
- d) jarohati og'irligidan kasal tinmay ingrар edi.

3. Quyidagi gaplarning qaysi birida bir son noaniklikni ifodalagan?

- a) birdan mehmon kelib qolsa bo'ladimi?
- b) endi sizlar uchun bir juft qo'shiq eshittiramiz.
- c) eshonning bir talay qora mollari, qo'ylari bor edi.
- d) mакtab hovlisida sizni bir kishi chaqirdi.

4. Quyidagi gaplarda bir so'zning qaysi ma'nosi ifodalangan?

Ikkovining niyati bir.

- a) miqdor ma'nosi.
- b) noaniqlik ma'nosi.
- c) teng ma'nosi.
- d) o'xhash ma'nosi.

5. Quyidagi rang bildirgan so'zlardan badiiy uslubga tegishlisini belgilang?

- a) ko'k.

b) zangor.

c) moviy.

d) zangori.

6. Quyidagi gapda nozik so'zining qaysi ma'nosi ifodalangan?

Bu juda nozik ish, ehtiyyotkorlik lozim.

- a) mo'rt.
- b) qaltis.
- c) ingichka.
- d) xipcha.

7. Badiiy uslubga xos gapni belgilangan?

- a) Salom, o'g'lim! O'qishlaring yaxshi ketyaptimi?
- b) Erta tong, Quyosh hali o'zining zarin nurlarini sochganicha yo'q.
- c) Seni kim aytadi o'quvchi deb? Ahvolingga bir qara?!
- d) Kecha Hindiston Bosh vaziri rasmiy tashrif bilan Respublikamizga keldi.

8. Quyidagi gapda yo'l so'zining qaysi ma'nosi ifodalangan?

Bu masala qaysi yo'l bilan yechiladi?

- a) tadbir.

- b) safar.
- c) yo‘nalish.
- d) usul.

9. Quyidagi gap qaysi usulubga xos?

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdan boshlab amalga kiritilsin?

- a) so‘zlashuv uslubiga.
- b) ilmiy uslubga.
- c) rasmiy uslubga.
- d) publitsistik uslubga.

10. Javoblardagi uslubiy jihatdan betaraf hisoblangan so‘zni toping?

- a) go‘zal.
- b) chiroylı.
- c) ko‘rkam.
- d) suluv.

11. Sinonim sifatlar berilgan qatorni aniqlang?

- a) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya.
- b) chopqir, chapag‘on, metin.
- c) uyat, nomus, g‘urur, hayo.
- d) sezgir, ziyrak, hushyor, sergak.

12. Paronim so‘zlar berilgan qatorni aniqlang?

- a) ahil-ahl, asil-asl, katta-kichik.
- b) adabiy, mangu, adabiy-vaqtincha.
- c) achchiq-shirin, amir-amr, adil-adl.
- d) azim-azm, abzal-afzal, asir-asr.

13. So‘zlashuv uslubida qo‘llanadigan so‘zlar qatorini aniqlang?

- a) bashar, mozor, yaxshi, kasal.
- b) ado etmoq, behuda, yopiq.
- c) rostdan, bo‘ldi, mayli.
- d) voqeа, barvasta, chiroylı.

14. Tasviriy ifoda berilgan qatorni aniqlang?

- a) shu kuni darsdan keyin sinf majlisi bo‘ldi.
- b) bu ish og‘ir, nihoyatda og‘ir edi.
- c) kerakli toshning og‘irligi yo‘q.
- d) mo‘yqalam sohibalari ko‘rgazmada o‘z ishlari bilan qatnashdilar.

15. Olmoshlarning qaysi turida kelishik qo‘srimchalaridan oldin egalik qo‘srimchalari bo‘lishi shart?

- a) kishilik olmoshlari.
- b) o‘zlik olmoshlari.
- c) ko‘rsatish olmoshlari.
- d) belgilash olmoshlari.

16. Kulmoq so‘zining salbiy ma’no bo‘yog‘i qaysi gapda kuchli ifodalangan?

- a) Navoiy tabassum qildi.
- b) kulgidan o‘zini tiya olmadı.
- c) Kulimsirab turgan yigit o‘sha edi.

d) Tirjayib qaragan kishini tanimadi.

17. - lar qo'shimchasi qaysi gapda kesatiq, kinoya ma'nosini ifodalagan?

a) u qanday azoblarni boshidan kechirmadi.

b) og'a, sog' borsangiz, avval dadamlarga salom ayting (Hamza)

c) bu yerda bir paytlar xaroba uylar bor edi.

d) o'zlariyam qadam ranjida qilibdilar-da.

18. Quyidagi gaplarning qaysi birida tushum kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini qo'llash mumkin?

a) butun dalani o'quvchilarning shovqini tutib ketdi.

b) dam oluvchilar tog' havosini maqtab ketishdi.

c) nima dedingiz? Gapingizni tushunmadim.

d) shoir yangi yozgan she'rini o'qib berdi.

19. Quyidagi gaplarning qaysi biri uslub jihatidan qo'pol shakllangan?

a) tug'ishi yaqin bo'g'oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar.

b) o'g'ir tabiatli kishi uzoq yashaydi.

c) bizning sayohatimiz etti kun davom etishi kerak.

d) bog'imizda yosh olma ko'chatlari yaxshi ko'kardi.

20. Qaysi qatorda uslubiy betaraf so'zlar berilgan?

a) so'zlati, turdi, baqirdi.

b) jamol, yuz, bashara.

c) so'radi, qalb, chehra.

d) yurak, yuz, gapirdi.

21. Qaysi qatorda uslubiy bo'yoqli so'zlar ishlatilgan?

a) ro'mol, tuz, ish.

b) jamol, qalb, chehra.

c) noz, ishva, keldi.

d) tush, til, qalb.

22. Qaysi qatorda so'zlashuv uslubiga xos so'zlar keltirilgan?

a) ketti, so'radi, pichirladi.

b) ming'irladi, vaysadi, botopti.

c) sadoqat, totli, shirin.

d) maysa, barg, sokin.

23. Kitobiy uslubga xos so'zlar qaysi javobda berilgan?

a) ovoz, sas, tovush.

b) gulzor, meva, ezgu.

c) malak, siymo, bashar.

d) inson, koinot, bashar.

24. Qaysi javobdagagi so'zlar doimo -lik qo'shimchasi bilan ishlatiladi?

a) taqachilik, pishiqchilik, suvchilik.

b) baliqchilik, suvoqchilik, suvchilik

c) pishiqchilik, sherikchilik, to'qchilik.

d) ijarachilik, to'qchilik, chilangorlik.

25. Qaysi javobda -lar qo'shimcha jamlash ma'nosini ifodalagan?

a) naxshalar gulladi.

b) jiyanlarim o'qimishli.

- c) boshlarim og‘riyapti.
- d) yashnamoqda yangiyo‘llar.

26. Qaysi gapda «bir» so‘zi predmetning noaniqligini bildirgan?

- a) bir gap kam, uka.
- b) kechagi to‘yda qiz bir o‘ynadi.
- c) bir kuladi, bir yig‘laydi.
- d) bir unday deysiz, bir bunday.
- e) opa-ukalarning xaraktiri bir.

27. Qaysi gapda bo‘lishsiz fe’ldan tasdiq ma’nosi anglashiladi?

- a) ishga kelmay qo‘ydi.
- b) sinfda yo‘qlama qilindi.
- c) kitobni o‘qimay qo‘ymaydi.
- d) gazeta chiqmay qoldi.

28. Ritorik so‘roq gap qaysi javobda berilgan?

- a) vatan so‘zi ona so‘zidir.
- b) negasiz yaxshi ko‘rmaysiz.
- c) nahotki daryolar oqar teskari?!
- d) tortinmasdan kelaver-chi.

29. «Bu ish men sizga aytsam ko‘p qiziq bo‘ladi» gapida uslubiy xato nima sababdan vujudga kelgan?

- a) kirish gap bo‘lganligi uchun.
- b) qo‘shma gap bo‘lganligi uchun.
- c) tinish belgilari qo‘yilmaganligi uchun.
- d) ko‘chirma gap bo‘lganligi uchun.

30. «Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot» gapida vergul nima uchun ishlataligan?

- a) kirish so‘zi uchun.
- b) undalma uchun.
- c) vergul kerak emas.
- d) uyushiq bo‘lak uchun.

31. Xabar, raport, farmon, qaror, qaysi uslubda yoziladi?

- a) publitsistik uslubda.
- b) rasmiy-ish uslubida.
- c) badiiy uslubda.
- d) so‘zlashuv uslubida.

32. Ritorik so‘roq, inversiyali gap, dialog qaysi nutq uslubiga xos?

- a) badiiy uslubga.
- b) rasmiy-ish uslubga.
- c) so‘zlashuv uslubga.
- d) publitsistik uslubga.

33. Uslubiyat bo‘yicha darslik yozgan tilshunoslar nomlari qaysi qatorda berilgan?

- a) A. G‘ulomov, M. Asqarova, A. Hojiyev.
- b) E. Qilichev, Yo. Tojiyev, A. Mahmudov.

- c) R. Qo‘ng‘urov, I. Rasulov, R. Rasulov.
- d) R. Qo‘ng‘urov, E. Qilichev, E. Begmatov.

34. A.Qahhorning qaysi hikoyasida rasmiy nutq elementlaridan keng foydalangan?

- a) «O‘g‘ri».
- b) «To‘yda aza».
- c) «San’atkor».
- d) «Notiq».

35. Shevaga xos so‘zlar qaysi nutq uslubida uchraydi?

- a) badiiy va ilmiy.
- b) publitsistik.
- c) ilmiy va rasmiy.
- d) so‘zlashuv.

36. Konnotativ ma’no nima?

- a) leksik ma’no.
- b) o‘z ma’no.
- c) ko‘chma ma’no.
- d) qo‘sishma ma’no.

37. «Gap tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma bo‘ladi» qaysi nutq uslubida yozilgan?

- a) so‘zlashuv.
- b) ilmiy.
- c) rasmiy.
- d) publitsistik.

38. «Qanday go‘zal bu makon» gapi qaysi uslubda yozilgan?

- a) ilmiy.
- b) rasmiy.
- c) badiiy.
- d) badiiy va ilmiy.

39. Arxaizm va istorizmlardan eng ko‘p foydalangan yozuvchi kim?

- a) A. Qodiriy.
- b) G‘.G‘ulom.
- c) Oybek.
- d) S.Ayniy.

40. Denotativ ma’no nima?

- a) ko‘chma ma’no.
- b) o‘z va ko‘chma ma’no.
- c) ko‘p ma’no.
- d) atash ma’no.

41. «Hosilni 80 foizini mashinalarda terdik» gapida qanday uslubiy xato bor?

- a) fonetik.
- b) leksik.
- c) grammatik.
- d) punktuktsion.

42. Antiteza usuli A. Qahhorning qaysi hikoyasi nomida uchraydi?

- a) «Bemor».
- b) «To‘yda aza».
- c) «Nutq».
- d) «O‘g‘ri».

43. Arxanzm va istorizmlardan qanday uslubiy maqsadlarda foydalaniladi?

- a) so‘z takroridan qutilish.
- b) davr ruhini berish.
- c) antiteza uchun.
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

44. «U darsga kechikib kiradi – U darsga kechikmay kirmaydi» gaplari o‘zaro qanday ma’noviy farqqa ega?

- a) so‘z qurilishiga ko‘ra.
- b) gap tuzilishida inversiya.
- c) uslubiy bo‘yog‘iga ko‘ra.
- d) omonim gap

45. Vulgarizmlar nima maqsadda ishlataladi?

- a) personaj nutqini individuallashtirish uchun.
- b) din vakillari nutqni berish uchun.
- c) sodda uslub yaratish uchun.
- d) asar ta’sirchanligini oshirish uchun.

46. Ijobiy ekspressiv bo‘yoqli so‘zlar qaysi qatorda berilgan?

- a) bobo, o‘g‘il, inson.
- b) toshbag‘ir, sochiq, tinch.
- c) jonim, toychog‘im, go‘zal.
- d) orom, osoyish, taxir.

47. Uslubiy bo‘yoqli so‘zlar qatorini aniqlang?

- a) ravshan, jonli, go‘zal.
- b) toychoq, onam, ruxsat.
- c) badburush, qo‘zichoq.
- d) yoqimli, ishchi, zabit.

48. Evfemizmlar nutqda nega ishlataladi?

- a) yumshoq aytish uchun.
- b) qo‘pol aytish uchun.
- c) badiiylik uchun.
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

49. «Onajon» so‘zida ekspressivlik qaysi yo‘l bilan hosil qilingan?

- a) leksik.
- b) grammatik.
- c) morfologik.
- d) fonetik.

50. Sinonimlarning uslubiy qo‘llanishi bo‘yicha kim dissertatsiya himoya qildi?

- a) E. Qilichev
- b) Sh. Rahmatullayev

- c) N. Fayzullayev
- d) A.G'ulomov

51. Arxaizm va istorizmlarning uslubiy qo'llanishi bo'yicha kim ilmiy ish qilgan?

- a) O'. Nosirov.
- b) S. Naimov.
- c) E. Qilichev.
- d) J. Muxtorov.

52. «Badiiy tasvirning leksik vositalari» monografiyasining muallifi kim?

- a) A. Qo'ng'urov.
- b) A. G'ulomov.
- c) I. Qo'chqortoyev.
- d) E. Qilichev.

53. «Fonografik uslubiy vostarlar» kitobining muallifi kim?

- a) H. Xudoyberdiyeva.
- b) G. Yaxshieva.
- c) A. Madvaliyev.
- d) S. Otamirzaeva.

54. Tildagi paronimlarning ma'nosini bilmaslik qanday uslubiy xatolarga olib keladi?

- a) uslubiy.
- b) fonetik.
- c) orfoetik.
- d) sintaktik.

55. Fonetik stilistika nimani o'rgatadi?

- a) fonema va nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlarini.
- b) undosh tovushlarning uslubiy xususiyatini.
- c) unli fonemalarning uslubiy xususiyatlari
- d) barcha javoblar to'g'ri.

56. «-К... Kimni bilasiz?!» matni qaysi uslubiyatda o'r ganiladi?

- a) fonetik.
- b) fonologik.
- c) grafik.
- d) fonografik.

57. «Kitobning kirishida kiritmalar haqida hech gap yo'q» gapida qanday uslubiy xato bor?

- a) logik.
- b) semantik.
- c) fonetik.
- d) uslubiy

58. So'z yasalishida pleonastik (qavatli) affiksli qatorni aniqlang?

- a) o'rmonzor, ishchi, tuyakash.
- b) to'qimdo'zchi, yo'rmado'zchi, kashtado'zchi.
- c) kulolchi, oshxona, yotoqxona.
- d) kashtachilik, miskarlik, suvchi.

59. «-Nahotki sevib qolgan bo'lsa? – dedim men o'z-o'zimga» gapida qanday grammatik nuqson mavjud?

- a) sonda.
- b) kelishikda.
- c) egalikda.
- d) shaxsda.

60. «Uzra» ko'makchisi qaysi kelishik bilan sinonimlik hosil qila oladi?

- a) bosh.
- b) qaratqich.
- c) jo'nalish.
- d) chiqish

61. «Yosh Oybeklar bayrog'ini ko'taraylik balandga» gapida -lar qo'shimchali so'zda qanday ma'no bor?

- a) hurmat.
- b) umumlatirish.
- c) ajratish.
- d) ko'plik.

62. Qaysi gapda «bir» so'zi noaniq ma'nosini bildirgan?

- a) tiling bilan dilingni bir tut.
- b) bir unday deysiz, bir bunday.
- c) bir-bir izladi.
- d) uchga birni qo'sh.

63. Stilistika so'zining ma'nosi nima?

- a) yunoncha "stylos" – uchi o'tkir qilingan tayoqcha.
- b) yunoncha "stylog" – yo'nalish uslub.
- c) inglizcha "speak" – gapirmoq.
- d) inglizcha "read" – o'qiymen.

64. Ilmiy stilning talabi nimadan iborat?

- a) nutqning ravon bo'lishi talab qiladi.
- b) fikrning aniq, mantiqli bo'lishini talab qiladi.
- c) fikrning asosli bo'lishini talab qiladi.
- d) nutqning aniqligini talab qiladi.

65. Qaysi uslubda qo'shma kesimlar ko'proq uchraydi?

- a) ilmiy uslubda.
- b) publitsistik uslubda.
- c) rasmiy uslubda.
- d) so'zlashuv uslubda

66. Vatan uchun jangda jon olib, jon berayotgan o'zbek yigit, bizni eshit! Bu gap qaysi usulda.

- a) so'zlashuv.
- b) rasmiy.
- c) badiiy.
- d) publitsistik.

67. So'zlashuv uslubiga xos gapni toping.

- a) oting nima? – Yodgor.
- b) ularning yetarli darajada dam olishini ta'minlash.
- c) bog'da chiroyli, xushbo'y gullar ochilgan.
- d) to'g'ri javob yo'q.

68. To'g'ri so'zining antomini toping.

- a) egri.
- b) qing'ir.
- c) noto'g'ri.
- d) barcha javob to'g'ri.

69. Antonim so'zlar ko'pincha qaysi uslubda qo'llanadi?

- a) rasmiy, so'zlashuv.
- b) badiiy, publitsistik.
- c) ilmiy, badiiy.
- d) rasmiy, badiiy.

70. Leksik stilistikada nima o'rganiladi?

- a) so'zlarning xususiyati va uslubiyati.
- b) so'zlarning belgisi va uslubiyati.
- c) so'zning uslubiyati, bo'yoqdorligi va qo'llanilishi.
- d) gaplarning uslubiyati, bo'yoqdorligi va qo'llanilishi.

71. Ma'lum shart-sharoitga ko'ra o'zgarib turadigan, qo'llanishi ko'pchilik tomonidan odat tusiga kirmagan, ma'lum uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan til elementlarining yig'indisi...

- a) uslubiy me'yordir.
- b) adabiy me'yordir.
- c) uslubiy bo'yoqdorlik.
- d) barcha javob to'g'ri.

72. Oltin tanga, oltin boshoq birikmalari ma'no ko'chishining qaysi turi?

- a) metonimiya.
- b) sinekdoxa.
- c) metafora.
- d) sifatlash.

73. Metaforalar o'z xarakteriga ko'ra necha xil ko'rinishga ega?

- a) 3 xil.
- b) 2 xil.
- c) 4 xil.
- d) 1 xil.

74. Umumtil metaforalariga nimalar kiradi?

- a) ko'chma ma'nosi yangi, ta'sirchan metaforalar.
- b) obrazlilik sezilib turadigan metaforalar.
- c) tasvirlanayotgan voqeaga ijobiy yoki salbiy munosabat bildiruvchi metaforalar.
- d) ko'chma ma'nosi unutilayotgan til birligi sifatida qotib qolgan metaforalar.

75. Ko'chma ma'nosi hali yangi, ta'sirchan, obrazliliği sezilib turgan metaforalar qanday metafora deyiladi?

- a) poetik metafora.

- b) umumtil metafora.
- c) poetik metonimya.
- d) umumtil metonimya.

76. Butilka og‘zi, tog‘ etagi, daryo qo‘ltig‘i kabilar ma’no ko‘chishining qaysi turi?

- a) metonimya.
- b) metafora.
- c) sifatlash.
- d) sinekdoxa.

77. Sinonimlarning turini aniqlang: boryapti, bormoqda.

- a) morfologik sinonim.
- b) leksik sinonim.
- c) frazeologik sinonim.
- d) sintaktik sinonim.

78. Leksik sinonimlar berilgan qatorini toping.

- a) katta, ketyapti.
- b) katta, ulug‘.
- c) katta, kichik.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

79. Do‘ppisini osmonga otdi iborasiga teng keladigan so‘zni toping.

- a) telbalik qilmoq.
- b) xafa bo‘lmoq.
- c) xursand bo‘lmoq.
- d) barcha javob to‘g‘ri.

80. Eskilik yoki yangilik bo‘yog‘i yaqqol sezilib turadigan so‘zlar...

- a) arxaizmlar.
- b) istiorizm.
- c) faol so‘zlar.
- d) nofaol so‘zlar.

81. Lug‘aviy neologizmlar qanday ko‘rinishga ega?

- a) leksik va frazeologik.
- b) leksik va semantik.
- c) leksik va morfologik.
- d) morfologik va semantik.

82. Qaysi qatorda leksik neologizmlar berilgan?

- a) bakalavr, magistr.
- b) yo‘ldosh, do‘s.
- c) o‘rtoq, rangli televizor.
- d) yo‘ldosh, yo‘lchi.

83. Yo‘ldosh, o‘rtoq kabi so‘zlar neologizmning qaysi turiga mansub?

- a) leksik.
- b) morfologik.
- c) semantik.
- d) sintaktik.

84. Qanday nutqda dialektizmlardan foydalanilmaydi.

- a) rasmiy nutqda.
- b) publitsistik nutqda.
- c) so‘zlashuvda.
- d) badiiy nutqda.

85. Ishlatilish doirasi kasb-koriga ko‘ra chegaralangan, ma’lum kasb-hunar egalari doirasidagina ishlatiladigan so‘z va iboralar...

- a) professionalizm.
- b) dialektizm.
- c) frazeologizm.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

86. Salbiy emotsiyal bo‘yoqdor so‘zlar qatorini toping.

- a) valdirama, vaysama.
- b) olma, kelma.
- c) vaysama, aytma.
- d) barcha javob to‘g‘ri.

87. Adabiy tilda ishlatilmaydigan dag‘al, qo‘pol so‘zlar va iboralar...

- a) argolar.
- b) jargonlar.
- c) vulgarizmlar.
- d) evfemizmlar.

88. Evfemizm nima?

- a) aytmoqchi bo‘lgan fikr.
- b) aytmoqchi bo‘lgan fikrni yumshoq va odobli qilib ifodalash.
- c) aytmoqchi bo‘lgan fikrni qo‘pol va dag‘al qilib ifodalash.
- d) barcha javob to‘g‘ri.

89. Evfemizmlar berilgan qatorni toping.

- a) mudroq, uyg‘oq.
- b) mashhur, obro‘li.
- c) og‘iroyoq, boshi qorong‘u.
- d) o‘g‘irlamoq, moylamoq.

90. Emotsional-ekspressiv so‘zlar berilgan qatorni toping.

- a) xursandlik, xafalik.
- b) bahri ochildi, dimog‘i chog‘ bo‘ldi.
- c) bahri ochildi, xursand bo‘ldi.
- d) ochilmoq, gullamoq.

91. Ketdi so‘ziga teng keladigan iborani aniqlang.

- a) tuyog‘ini shiqillatdi.
- b) ikki oyog‘ini qo‘liga oldi.
- c) yuragidan urdi.
- d) hafsalasi pir bo‘ldi.

92. Bir pul iborasining ma’nosi qaysi qatorda berilgan?

- a) anglay olmaslik, tushuna olmaslik.
- b) idrok qilib yeta olmaslik, gapira olmaslik.
- c) qadr-qimmatsiz, foydasi yo‘q.
- d) arzon, qadr-qimmatsiz.

93. So‘zlashuv nutqiga xos frazeologik iboralar qatorini belgilang

- a) buzilmas do‘stlik, qo‘li egri.
- b) ko‘z bo‘yamoq, siyosiy tanglik.
- c) juftakni rostlamoq, buzilmas do‘stlik.
- d) qo‘li egri, ko‘z bo‘yamoq.

94. Qaysi qatorda publitsistik nutqqa xos iboralar berilgan?

- a) nog‘orasiga o‘ynamoq.
- b) tayyor oshga bakovul.
- c) juftakni rostlamoq.
- d) ko‘z bo‘yamoq.

95. Lug‘atlar asosan necha tipga bo‘linadi?

- a) ensiklopedik, filologik.
- b) ensiklopedik, leksik.
- c) filologik, leksik.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

96. Filologik lug‘atlar necha tilli bo‘ladi?

- a) bir tilli, uch tilli.
- b) bir tilli, to‘rt tilli.
- c) bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli.
- d) ikki tilli, uch tilli.

97. Umumxalq ishlata digan so‘zlar qatorini toping.

- a) egat, kultivatsiya, chekanka, ko‘sak**
- b) iskana, randa, poytesha, pona, parma, payraxa**
- c) ko‘z, qo‘l, radio, gazeta, yaxshi, yomon, kel, tur**
- d) yostiq, bolish, taka, ko‘chik, jastiq**

98. Faqat atamalar berilgan qatorni aniqlang.

- a) inson, kishi, odam**
- b) yuz, bet, qosh**
- c) odam, o‘pka, ichak**
- d) peshona, manglay, bosh**

99. Kasb-hunar so‘zlarini toping.

- a) ajdod, alam, ko‘l, oqim**
- b) dasht, osmon, bulut, tinchlik**
- c) nina, qaychi, andoza, angishvona**
- d) A, B**

100. Serzavq so‘zida urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

- a) ser.
- b) zavq.
- c) urg‘u olmaydi.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

No	Umumiy mavzular	JN	ON	YaN	Jami
11	Darsga qatnashganlik darajasi	0-5			0-5
2	Ma’ruza konspekti va ma’ruzada o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasi.		0-40		0-40
3	Seminar darslarida tayyorgarligi, adabiyotlardan konspekt olishi, so‘zga chiqishi, vazifalarni bilishi va bayon etish savyysi.	0-10			0-10
4	Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o‘zlash-tirish darajasi.	0-15			0-15
5	Yakuniy baholashda og‘zaki javob yoki o‘tkazilgan yozma, test sinovlariga javoblar.			0-30	0-30
Jami		0-30	0 - 40	0 – 30	0 – 100

Baholash mezonlari

“Nutq madaniyati” fani o‘quv rejasida belgilanganidek magistratura yo‘nalishi 2-bosqich magistrantlariga o‘qitiladi. Fan uchun jami 40 soat, shu jumladan 20 soat ma’ruza, 20 amaliy soat, 18 soat talabanining mustaqil ishi uchun ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2005-yil, 30-sentabrdagi 217-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy muassasalarida talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to‘g‘risida muvaqqat Nizom”da belgilanganidek “Nutq madaniyati” fanidan talabanining bilimini baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YAB);

“Nutq madaniyati” fani bo‘yicha talabanining semestr davomidagi o‘zlshtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- joriy baholash – 30 ballgacha ;
- oraliq baholash – 40 ballgacha;
- yakuniy baholash – 30 ballgacha;

Joriy baholash bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan har bir mavzu bo'yicha talabaning adabiyotlaridan olgan konspekti, bilimi, mustaqil ijodiy fikrmulohazalari, mustaqil ishi natijalari va amaliy ko'nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va seminar mashg'ulotlarida amalga oshiriladi.

Oraliq baholash semestr davomida o'tkaziladi. Talabalarning bilimi berilgan mavzular bo'yicha 0-40 ball doirasida baholanadi. Oraliq baholashda talabalarning o'lashtirish ko'rsatkichi ma'ruzalar o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish usuli va talabaning mustaqil ishi nazarda tutilgan holda baholanadi.

Yakuniy baholash semestr yakunida o'tkaziladi. Yakuniy baholashda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari ishchi o'quv dasturidan kelib chiqqan holda fanning umumiylarini doirasida baholanadi. Yakuniy baholash test usulida amalga oshiriladi.

"Nutq madaniyati" fani bo'yicha talabaning bilimlarini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurtish. Amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushunish. Bilib aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish. Amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushunish. Bilib aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatni tushunish. Bilib aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega emaslik. Bilmaslik.